

M.Z. Eshonqulova

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘QITISH METODIKASI





TURON ZARMED UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK TA'LIM VA SPORT FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
KAFEDRASI O'QITUVCHISI**

Eshonqulova Malika Zayniddin qizi

**ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGI
VA UNI O'QITISH METODIKASI**
*fanidan mustaqil ishlarga doir uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar
(60110500 – boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun)*

**“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro 2023**

UO‘K: 37.091.33:811.512

KBK: 74.268.3O‘zb

Eshonqulova Malika Zayniddin qizi, Ona tili o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi / [Matn]: uslubiy ko‘rsatma / M.Z. Eshonqulova - Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 120 b.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar 60110500 – boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ona tili o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi fanidan ona tili bo‘limlari tasnifi, so‘z turkumlari, qo‘llanish doirasi, ularning ilmiy strukturalari haqida ma‘lumotlar kabi qator tushunchalar va mazmun yoritilgan.

Taqrizchilar:

N.O.Safarova - Buxoro davlat universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası professori, filologiya fanlari nomzodi

ISBN: 978-9943-9147-1-1

***Mazkur uslubiy ko‘rsatmani “TURON ZARMED UNIVERSITETI”
nashrga tavsiya etgan***



© Eshonqulova Malika Zayniddin qizi
© “KAMOLOT” nashriyoti



Milliy va adabiy til.

Milliy til — umumiy hudud, iqtisod va ma'naviy boylik bilan birga millatni tashkil etuvchi ijtimoiy tarixiy kategoriya. Millatning o'zaro aloqa vositasi hisoblangan milliy til 2 shaklga ega: og'zaki va yozma. Milliy til qabila, elat tillaridan farqlanadi. U, odatda, millatni birlashtirib turuvchi yagona til vazifasini bajaradi. "Milliy til" tushunchasi tilning yashash shakllariga aloqadordir, u til mavjudligining alohida turi bo'lib, mavjudlikning boshqa tur(lar)iga (urug', qabila yoki elat tiliga), shuningdek, boshqa milliy tillarga qarama-qarshi qo'yilishi (masalan, o'zbek tilining qozoq tilidan farqlanishi) mumkin. Har bir millat o'z tiliga ega. Ba'zan bir millat bir necha tilga ega bo'lishi mumkin: belgiyaliklar — bir millat, lekin fransuz va vallon tillarida so'zlashadi. Shveysariyaliklar — yagona millat, lekin ular nemis, fransuz, italyan va retoroman Milliy tillarida so'zlashadi. Aksincha, bir necha millatlar bir Milliy tildan foydalanadilar, xususan, AQSH, Angliya, Avstraliya va boshqa inglizcha so'zlashuvchi mamlakatlarda ingliz milliy tilining variantlari, ya'ni britaniya ingliz, amerika ingliz, avstraliya ingliz variantlari qo'llanadi. Milliy tilning hosil bo'lishi uzoq va murakkab jarayondir. Milliy tilning shakllanishidagi eng oliy bosqich milliy adabiy til hisoblanadi. Biroq milliy til adabiy tildan farqdanib, og'zaki nuqt va xalq shevalarini ham o'z ichiga oladi.

Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda Adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham Adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan (masalan, qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili Adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqa Adabiy til bo'lgan.

Adabiy tilning ikki – og'zaki ham yozma ko'rinishi mavjud. Har qanday Adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda Adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma Adabiy til va og'zaki Adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan Adabiy tilni ayni bir

deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun birdek. U ham yozma, ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham Adabiy til me'yorlariga bo'ysunsada, ko'plab xususiylik hamda umum e'tirof etmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Turli xalqlarda hamma davrlarda ham Adabiy til bilan badiiy asar tili bir taxlitda bo'lmagan. Adabiy til bilan milliy til o'rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi (qarang shevalar). Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (masalan, Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ammo bu bog'lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o'zi Adabiy til ko'rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo'ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma'lum shaklda birikishi va vazifasining o'ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) o'zbek Adabiy til rivojini ta'minlovchi muhim voqea bo'ldi. O'zbek Adabiy til i turli xalqlar Adabiy til i rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda.



Fonetik va fonologik hodisalar

Fonetika (yunoncha: *phonetikos* — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo'shib, uning o'rganish obyekti yanada kengaytiradilar (rus olimi L. V. Shcherba). O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, perseptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi.

Nutqning tovush tomoni segment (lotincha: *segmentum* — qirqim, parcha, bo'lak) va ustsegment (supersegment) birliklarga bo'linadi.

Segment birliklar ketmaket joylashadi (bir vaqtning o'zida 2 ta tovushni talaffuz qilib bo'lmaydi). Shuning uchun ularni silsilali yoki ketmaket birliklar deyish mumkin. Ustsegment birliklarga urg'u va ohang (intonatsiya) kiradi. Bu birliklar segment birliklar ustiga qo'yiladi va ularga turlicha tus beradi.

Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik jiyemni tebratishidan hosil bo'ladi; demak, uning akustik (fizik) jihati bor. Uchinchidan, muayyan so'z va morfemaning ma'no tomoni bilan tovush qobig'i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma'lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmu zaminidagi ma'noni idrok etadi, bu persektiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimi, nutq ma'lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega. Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o'rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy fonetika; tarixiy (diaxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o'rganiladi

Fonologiya (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari — bo'g'inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini o'rganuvchi bo'limi. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa sifatidagi tovushlarning o'zini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq ma'noli birliklar — morfemalar, so'zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasini o'rganish turadi. Shu tufayli fonologiyani ba'zan funksional fonetika deb ham ataydilar. Ruschex tilshunosi N. S. Trubetskoyning aniqlashicha, fonologiya bilan fonetika o'rtasidagi o'zaro munosabat shundan iboratki, har qanday fonologik tavsifning ibtidosi ma'no farqlovchi tovushiy ziddiyatlarni aniqlashdir; fonetik tavsif esa boshlang'ich nuqta va moddiy asos sifatida qabul qilinadi.

Fonologiyaning asosiy birligi — fonema, asosiy tadqiqot obyekti — fonemalarning zidlanishlari (oppozitsiyalari) bo'lib, bu oppozitsiyalar bir butun holda tilning fonologik tizimini hosil qiladi. Muayyan o'rinda bir fonemaning ikkinchisiga qarama qarshi qo'yilishini namoyon etuvchi so'zlar (burborbi kabi) kvaziomonimlar (soxta omonimlar) deyiladi.

Odatda, tildagi fonemalar soni kvaziomonimlar yordamida aniqlanadi va bunda biryo‘la bir fonemani ikkinchisiga qarama qarshi qo‘yish orqali ularning farqlanish elementlari tasnif etiladi. Mas, tol, sol so‘zlaridagi ikki fonema — t va s portlovchi, sirg‘aluvchi farqlanish elementlariga ega. Ularning har ikkisi ham til oldi, jarangsiz, shovqinli undoshlardir va bu belgilari farqlanmovchi elementlar deyiladi. Demak, fonema tilda o‘z vazifasini fonologik jihatdan farqlanuvchi va farqlanmovchi elementlar orqali bajaradi.

Fonologiya zamonaviy ma‘nodagi mustaqil tilshunoslik fani sifatida 20-asrning 20—30-yillarida shakllandi; uning yaratuvchilari N. S. Trubetskoy, russhveysar olimi S.O.Karsevskiy, rusamerika tilshunosi R.S. Yakobsonlar bo‘lib, ular 1928-yil Gaagada bo‘lib o‘tgan Tilshunoslarning 1-xalqaro kongressida fonologiyani asosiy g‘oyalarini bayon etganlar. N. S. Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" (1939) kitobi fonologiya taraqqiyotidagi eng muhim bosqich bo‘lgan. Fonologiya paydo bo‘lishining ilk asoslari 19-asr oxirlarida nemis olimi I. Vinteler va ingliz olimi G. Suit asarlarida, umumnazariy jihatlar keyinchalik F. de Sossyur tadqiqotlarida shakllangan. Ayniqsa, fonologiyani rivojlanish asoslarini yaratishga ruspolyak tilshunosi I. A. Boduen de Kurtene katta hissa qo‘shdi. Fonema g‘oyasi va uning prinsiplari ilk marta uning asarlarida ishlab chiqilgan. Boduen de Kurtene tadqiqotlari negizida Leningrad va Moskva fonologik maktablari shakllandi (o‘zbek tilshunoslarining fonologik tadqiqotlari ham asosan ana shu maktablar ta‘sirida yaratilgan). Hozirgi kunda mazkur maktablarning fonologik nazariyalaridan tashqari Yevropa va AQShda yana 10 ga yaqin fonologik nazariyalar yaratilgan.

Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan nutq parchasi tovush sanaladi. Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so‘z va uning ma‘noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik til birligi fonemadir.



Ona tilining vokalizmi

Vokalizm — unli fonemalar tizimi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmi tarkibida quyidagi oppozitsiyalar bor:

1. Tilning uch darajali ko‘tarilish belgisiga ko‘ra:
a) i (yuqori tor unli) — e (o‘rta keng unli) = i-e oppozitsiyasi ;
b) e (o‘rta keng unli) — a (quyi keng unli) = e-a oppozitsiyasi ;

d) i (yuqori tor unli) — a (quyi keng unli) = i-a oppozitsiyasi;
e) u (yuqori tor unli) — o' (o'rta keng unli) = u-o' oppozitsiyasi;
f) o' (o'rta keng unli) — o (quyi keng unli) = o'-o oppozitsiyasi;
g) u (yuqori tor unli) — o (quyi keng unli) = u-o oppozitsiyasi.
2. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra;
a) i (lablanmagan) — u (lablangan) = i-u oppozitsiyasi;
b) e (lablanmagan) — o' (lablangan) = e-o' oppozitsiyasi;
d) a (lablanmagan) - o (lablangan) = a-o oppozitsiyasi.

Eslatma: prof. A.Abduazizov va prof. A.Nurmonovning ta'kidlashicha, tilning yotiq (gorizontal) harakatiga asoslangan belgilar (unlilarning so'z shakllari tarkibidagi pozitsiyasiga bog'liq bo'lgan old va orqa qator ko'rinishlari) fonologik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib, fonemaning asosiy belgilari qatoriga kirmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fonologik oppozitsiya turli til tovushlarini qarama-qarshi qo'yishga asoslanmaydi, chunki u muayyan bir tilning struktural birligidir va shu tilning o'zigagina xizmat qiladi. Qolaversa, fonologik oppozitsiyalar hozirgi (amaldagi) tilning strukturaviv birliklari sanaladi, ular tarixan o'zgarib turishi ham mumkin. Masalan. qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalar tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko'ra old qator va orqa qator zidlanishlariga ega bo'lgan:

(i-ы) + (y-u) + (e-o) + (e-a) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bunday zidlanish o'zining fonologik xususiyatini yo'qotgan — fonemalar konvergenziyasi natijasida i-ы unlilari bitta «i» ga, y-u unlilari bitta «i» ga, e-o unlilari bitta «o'»ga, e-a unlilari esa bitta «a»ga birlashgan. Demak. fonologik oppozitsiyalar til taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan belgilanadi, ayni shu bosqichda bir fonema boshqa fonemaga bir xil pozitsiyada qarama-qarshi qo'yiladi: hozirgi o'zbek adabiy tilidagi «i» va «u» unlilari so'z boshida (ich va uch) yoki bir xil fonetik qurshovda (bir v-l bur, qish va qush) bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgani kabi. Demak. «oppozitsiya» tushunchasi «fonema» va «pozitsiya» tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir: fonemaning bo'lishi oppozitsiyaning bo'lishini. oppozitsiyaning bo'lishi esa pozitsiyaning bo'lishini taqozo qiladi.



Ona tilining konsonantizmi

Konsonantizm — undosh fonemalar tizimi.

Fonologik oppozitsiya ikki fonemaning bitta farqlanish helgisi asosida o'zaro zidlanish hosil qilishidir. Masalan, «r» (jarangsiz) va «b»

(jarangli) undoshlari jarangsiz-jarangli belgisi asosida bir oppozitsiyaga birlashadi: p-b kabi.

Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi:

p (lab-lab) — b (lab-lab), p (portlovchi) — b (portlovchi) kabi.

Demak, undosh fonemalarga xos bo'lgan uchta fonologik belgidan - artikulatsiya o'mi, artikulatsiya usuli va jarangsizlik-jaranglilik belgilaridan faqat bittasi (so'nggisi) p-b oppozitsiyasiga asos bo'lgan. Shuning uchun u «birlik oppozitsiya» sanaladi. Prof. A. Abduazizovning ta'kidlashicha hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi tarkibida quyidagi birlik oppozitsiyalar bor. Talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi va to'siqning hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

a) labial-til oldi (dental, alveolyar) undoshlar oppozitsiyasi: (p-t) + (b-d) + (m-n) + (f-s) + (v-z) + (f-sh) + (v-l) + (v-r);

b) labial-til o'rta undoshlari oppozitsiyasi: (f-y) + (v-y);

d) labial-til orqa undoshlari oppozitsiyasi: (p-k) + (b-g) + (f-x) + (v-g'); e) labial- bo'g'iz undoshlari oppozitsiyasi: (f-h) + (v-h); d) til oldi-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: (t-k) + (t-q) + (d-g) + (s-x) + (z-g') + (n-ng); til oldi- bo'g'iz undoshlari oppozitsiyalari: (s-h) + (z-h) + (sh-h) + (j-h) + (ch-h) + (dj-h);

Bunda ch-h va dj-h zidlanishlari «ikkilik oppozitsiya bo'ladi», chunki ularda «til oldi-bo'g'iz undoshi» belgisidan tashqari, ikkinchi differensial belgi ham bor: ch (qorishiq portlovchi) — h (sirg'aluvchi), dj (qorishiq portlovchi) — h (sirg'aluvchi) kabi.

2. Artikulatsiya usuli va to'siqning qanday hosil bo'lishiga ko'ra:

a) portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar oppozitsiyasi:

(p-f) + (b-v) + (t-s) + (d-z) + (t-sh) + (d-j) + (k-x) + (g-g') + (q-x) + (k-h) + (g-h);

b) portlovchi- affrikatalar oppozitsiyasi: (t-ch) + (d-dj);

d) sirg'aluvchi-affrikatalar oppozitsiyasi (sh-ch) + (j-dj);

e) portlovchi-burun sonanti oppozitsiyasi: (b-m) + (d-n) + (g-r); 0 sirg'aluvchi-sonantlar oppozitsiyasi: (z-l) + (j-r); g) shovqinli sonant-burun sonanti oppozitsiyasi: (v-m) + (l-n) + (r-n); j) yon sonant-titroq sonant oppozitsiyasi: (l-r).

3. Jarangsiz-jaranglilik belgilariga ko'ra: (p-b) + (t-d) + (s-z) + (f-v) + (k-g) + (sh-j) + (ch-dj) + (x-g').



Nutqning fonetik bo'linishi

Inson nutqi faqat uzliksiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat bo'lmay, balki ohang butunligi, takt, tovush, so'z va bo'g'in kabi turli hajmdagi fonetik bo'laklardan tashkil topgan.

Nutqning ohang butunligi (faza). Nutqning ikki to'xtam orasidagi butunlik bo'lib, u ko'pincha tugal bir gapga teng bo'ladi. Masalan; Jisrnimiz yo'qalur, o'chmas nomimiz, G'alaba to'yida bo'larmiz biz ham (H.O.)

Takt. ohang butunligining ikki qisqa to'xtam orasida keluvchi va bir bosh urg'u bilan aytiladi.

U ohang butunligi(faza)ning bir qismi bo'lib. qisqa ohang bilan ajratib aytiladi. Masalan, dunyoda (bir o'lka bor \ biroq\ bitilmagan) dostonidir bori.

Tovush. Nutq a'zolarining bir marta harakat qilib o'rniga qaytishi (ekskursiya va rekursiya) paytida yuzaga keladigan ohang birligidir. So'z. Nutqining alohida bir urg'u bilan aytiladigan bo'lagi bo'lib, u takt ichiga yoki o'zicha mustaqil keladi. Bir takt ichida bir nechta so'z bo'lishi mumkin. Masalan: Men ne uchun \ sevaman O'zbekistonniV (A.O.) Birinchi taktda to'rtta, ikkinchi taktda esa bitta so'z bor.

Bo'g'in . Bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovush bo'g'in deyiladi. So'zlami talaffuz etganimizda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi muayyan oraliqda bo'linib-bo'linib, goh kuchli, goh kuchsiz zarb bilan o'tadi va u bo'g'inni hosil qiladi. Masalan, bolalar so'zida uch bo'g'in bor: bo-la-lar. Birinchi, ikkinchi bo'g'inlar ikkita tovushdan, uchunchi bo'g'in esa uch tovushdan taslikil topgan. O'zbek tilida bo'g'inlarning soni so'z tarkibidagi unli tovushlar miqdoriga bog'liq, ya'ni so'zda nechta unli bo'lsa bo'g'inlar ham shuncha bo'ladi. Ayrim bir unli tovush ham mustaqil bo'g'in bo'la oladi, ammo undosh tovush yakka holda bo'g'in bo'la olmaydi, faqat undoshlar unlilar bilan birgalikda bo'g'inni tashkil qiladi.

Bo'g'in turlari. O'zbek tilida bo'g'inlar qanday tovush bilan kelishiga ko'ra ikki turga bo'linadi;

1) ochiq bo'g'in. Unli tovush bilan tugaydigan bo'gin ochiq bo'g'in deyiladi. Masalan, o-na, lo-la, to-la.

2) yopiq bo'g'in undosh tovush bilan tugaydigan bo'g'in yopiq bo'g'in hisoblanadi.

Masalan: mak-tab, daf-tar.

Bo'g'inlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Tarkibidagi bo'g'inlar soniga ko'ra so'zlar turlicha bo'ladi;

- 1) bir bo'g'inli so'zlar;
- 2) ikki bo'g'inli so'zlar;
- 3) uch bo'g'inli so'zlar;
- 4) ko'p bo'g'inli so'zlar.

Bir bo‘g‘inli so‘zlar: qism, qir, tog‘, bog‘, tol, oz, ol, osh; ikki bo‘g‘inli so‘zlar: lo-la, to-la, bo-la, mak-tab, daf-tar; uch bo‘g‘inli so‘zlar: sa-o-dat, ko-mi-la. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar: mu-o-ma-la, o-ri-yat-li. til-shu-nos-lik, a-da-bi-yot-shu-nos-lik, mak-kor-o-na va boshqalar. So‘z tarkibidagi unli va undosh tovushlarning o‘rinlashish tartibiga ko‘ra quyidagicha bo‘ladi. Bunda unlilar uchun v- vocal (ovozli) birinchi harfi. undoshlar uchun c consonant (shovqinli) birinchi harfi olinadi:
 Masalan: unli-undosh: ol, osh- vc+ vc
 undosh+unli+undosh: bog‘, tog‘: cvc+ cvc
 unli+undosh+unli: o-na, o-ta: v+cv. v+cv
 undosh+unli+undosh+unli: lo-la, bo-la: cv+cv, cv+c
 unli+undosh+undosh: ost, ust: vcc. vcc;
 undosh+undosh+unli+ undosh+ undosh: sport, spirt:ccvcc. ccvcc.

TR	TAMOYIL	IZOH	MISOLLAR
1	Unlilik tamoyili	So‘z tarkibidagi unlilar asosiy bo‘g‘in belgilash.Unli bo‘g‘in hosil qiluvchi vosita hisoblanadi.	lo-la, o-na, sa-o-dat
II	Espirator	Nafasning bo‘linishiga asoslanadi. Talaffuz jarayonida nutq oqimining liar bir kiclik bo‘linishi bo‘g‘in sanaladi. Bunga muvoriq bo‘g‘in bir nafas bilan tala’fiuz qilinuvchi eng kichik fonetik butunlikdir.	Besh yuz yil-lar tik-lol-dik-mi, Navoiyning hay-kalini. (Shukrullo)

III	Sonorlik tamoyili	Ovoz darajasiga asoslanadi. Bir nafas bilan talafiuz qiluvclii eng kichik fonetik bitimda bir tovush o'zining ovozliligi bilan cho'qqi hosil qiladi. Bo'g'in soni ovozlilik cho'qqisi bilan belgilanadi.	ba-land
IV	Muskul kuchla-nish tamoyili	Nutq oqimining kuchli boshlanib, kuchsiz tugash qismi. Uning cho'qqisi (markazi)da bo'g'in hosil qiluvclii to'ush mayjud bo'ladi, bunga muvofiq undoshlar kuchli tugovchi va ikki cho'qqili turlarga bolinadi	ke-la-man, ay-ta-man, bo-ra-man

Bo'g'inning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1) yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi;

2) barmoq vaznida yoziladigan she'r misralari bo'g'in sonining teng bo'lishiga asoslanadi;

3) birinchi sinf o'quvchilarini savodga o'rgatish davrida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qish va yozish asosida savodi chiqariladi



Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar deyiladi. Fonetik hodisalar unilarga ham, undoshlarga ham taalluqlidir.

Fonemaning nutq oqimida turli ottenkalarda namoyon bo'lishi, bunday ottenkalarning yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator-pozitsion) va b. omillarning ishtiroki borligi yuqorida aytib o'tilgan edi. Fonetik hodisalar ham aslida ana shu omillar mahsuli sifatida sodir bo'ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

I. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar:

1. Assimilatsiya bir xil kategoriyadagi tovushlarning (mas, undosh bilan undoshning) o‘zaro moslashuvidir. Bunday moslashuvning quyidagi turlari bor: a) progressiv assimilatsiya - oldingi tovushning keyingi tovushni o‘ziga moslashtirishi: ketdi > ketti (td > tt), ekkan > ekkan (kg > kk), qishloqqa > qishloqqa (qg > qq) kabi;

b) regressiv assimilatsiya. Keyingi tovushning oldingi tovushni o‘ziga moslashtirishi: tuzsiz > tussiz (zs > ss), birta > bitta (rt > tt) kabi;

d) to‘liq assimilatsiya. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga aynan moslashadi (ular o‘rtasida neytrallashuv sodir bo‘ladi): nonvoy > novvoy (nv > vv), terakga > terakka (kg > kk) kabi;

e) to‘liqsiz assimilatsiya. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga qisman moslashadi: tanbur > tambur (nb > mb), shanba > shamba (nb > mb) kabi. Bu so‘zlarda «v» (til-tish undoshi) lab-lab «b»ga faqat artikulatsiya o‘rni jihatdan moslashgan (lab-lab «m»ga o‘tgan), ammo boshqa belgilari moslashmagan. Qiyos qiling: «m» — sonor, «b» — shovqinli; «m» - yumuq fokusli burun tovushi (nazal tovushi), «b» — sof portlovchi kabi;

f) kontakt assimilatsiya — ketma-ket joylashgan tovushlarning o‘zaro moslashuvi (q.: yuqoridagi misollar);

g) distant assimilatsiya — so‘z tarkibida bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o‘zaro moslashuvi: sichqon > chichqon, soch > choch kabi.

O‘zbek tilida o‘zak bilan affiksdagi unlilar assimilatsivasi ham uchraydi. Assimilatsiyaning bu turi singarmonizm (unlilar uyg‘unlashuvi) deb ham nomlanadi. Bunda unlilarning uyg‘unlashuvi lab garmoniyasi va til garmoniyasi (lingval garmoniya) shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan: keldi —

«e» old qator), «i» (old qator). Bunda o‘zak va affikslar tarkibidagi har ikkala unli old qatordir (til garmoniyasi); qoldi — «o» (orqa qator), «i» (orqa qator). Bunda affiksdagi old qator «i» o‘zakdagi orqa qator «o»ga moslashgan «i» ning orqa qator ottenkasi yuzaga kelgan (bu ham til garmoniyasi hisoblanadi); lab garmoniyasi ko‘proq shevalarda uchraydi: o‘glim (adabiy tilda) - ulum (qipchoq lahjasi shevalarida), ko‘zim (adabiy tilda) - ko‘zum (kezym: qipchoq lahjasida) Bunda o‘zak va qo‘shimchalardagi unlilarning lablanish jihatdan moslashuvi sodir bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida assimilatsiyaning bu turi deyarli uchramaydi. Assimilatsiyada fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi (o‘zgarish tovushlarning bir-biriga ta’siri natijasida bo‘lganligi uchun).

2. Akkomodatsiya — turli kategoriyalardagi tovushlarning, masalan, unli bilan undoshning o‘zaro ta’siri tufayli yuzaga keladigan moslashuv. Masalan: kisht «i»ning old qator ottenkasi, u sayoz til orqa «k» undoshiga moslashgan — qish (qbish: «i»ning orqa qator ottenkasi, u chuqur til orqa «q» undoshiga moslashgan). Ba’zan unli undoshga emas, aksincha, undosh unliga moslashadi. Masalan, lab-tish (labio-dental) «f» undoshi lablashgan «i» unlisi ta’sirida lab-lab «f»ga aylanishi mumkin. Qiyos qiling: faqat («f» — lab-tish), nufuz («f» — lab-lab), aft («f» — lab-tish), ufq («f» — lab-lab), saf («f» — lab-tish), tuf («f» — lab-lab) kabi. O‘zaro ta’sirda bo‘lgan tovushlarning bir-biriga nisbatan oldin yoki keyin kelishiga ko‘ra akkomodatsiya quyidagi ikki turga bo‘linadi:

a) progressiv akkomodatsiya. Bunda oldingi tovush keyingi tovushga ta’sir qiladi: kulmoq so‘zida sayoz til orqa «k» undoshi orqa qator «u»ni old qator «u» ga aylantirgani kabi. Qiyos qiling: qul («i» - orqa qator unli) - kul («u» — old qator unli), qol («o‘» — orqa qator «o» unlisi) - ko‘l («o‘» - old qator «e» unlisi);

b) regressiv akkomodatsiya. Bunda keyingi tovush oldingi tovushga ta’sir qiladi. Masalan: to‘k so‘zida sayoz til orqa «k» undoshi orqa qator «o‘» unlisini old qator «o‘»ga aylantiradi. Assimilatsiyada bo‘lganidek, akkomodatsiyada ham fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi.

3. Dissimilatsiya - so‘z tarkibidagi bir xil (yoki o‘xshash) tovushlardan birining boshqa tovushga ko‘chishi: birorta > bironta (ror > ron), kissa > kista (ss > st) kabi. Bu hodisani assimilatsiyaning aksi deyish mumkin. Dissimilatsiya hodisasi yo‘nalishiga qarab ikki xil bo‘ladi:

a) progressiv dissimilatsiya. Bunda keyingi tovush o‘zgaradi: zarur > zaril

b) regressiv dissimilatsiya. Bunda oldingi tovush o‘zgaradi: maqtanmoq > maxtanmoq kabi.

Tovushning o‘zgarish darajasiga ko‘ra dissimilatsiya yana ikki turga bo‘linadi:

a) to‘liq dissimilatsiya. Bunda ikkita bir xil tovushdan biri noo‘xshash tovushga aylanadi: kissa > kista (ss > st) kabi;

b) to‘liqsiz dissimilatsiya (qisman dissimilatsiya). Bunda tovushning artikulyatsion xususiyatlaridan ayrimlarigina o‘zgaradi. Masalan, uchta > ushta (ch > sh) kabi: «ch» va «t» undoshlarining ikkalasi ham portlovchi, ammo «t»ning ta’sirida «ch» sirg‘aluvchi «sh» ga o‘tgan.

Tovushlar o‘rtasidagi masofaga nisbatan ham dissimilatsiya ikki xil bo‘ladi:

a) kontakt dissimilatsiya. Bunda yonma-yon turgan tovushlardan biri o'zgaradi: kissa > kista kabi:

b) distant dissimilatsiya. Bunda dissimilatsiyaga uchrayotgan tovushlar bir-biridan uzoqroqda joylashgan bo'ladi. Masalan: birorta > bironta kabi.

4. Nazalizatsiya — so'z tarkibidagi bunn sonantlari ta'sirida shu sonantlar yonida qo'llangan unlining rezonator ton bilan aytilishi non, nok, men, meng kabi. Bunday hollarda ham fonemaning kombinator ottenkasi (unlining ko'rinishi) paydo bo'ladi.

II. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar:

1. Reduksiya — unli fonemaning urg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi: bilan — b:bn. biroq — b:roq kabi. Bunda «i» unlisining kuchsizlangan, qisqa (bilinar-bilinmas) talaffuz etiladigan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi.

2. So'z oxiridagi ochiq bo'g'inda tor unlilarning biroz kengayishi: bordi > borde kabi. Bunda ham tor «i» unlisining biroz kengaygan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi.

3. Jarangli -b > va «d» undoshlarining so'z oxirida jarangsizlanishi: maktab > maktap (b > p), savod > savot (d > t) kabi. Bunday holat jarangli j, j (dj), z undoshlarida ham uchraydi: massaj > massash (j > sh), dilxiroj > dilxiroch (j > ch), sakkiz > sakkis (z > s) kabi. Yuqoridagi barcha holatlarda b, d, j, j (dj), z fonemalarining jarangsizlashgan pozitsion ottenkalari qo'llangan. O'zbek tilida ko'p bo'g'inli so'zlarda portlovchi, jarangsiz «q» ning so'z oxirida sirg'aluvchi, jarangli «g» tarzida talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: baliq > baligo'rtoq > o'rtoq, taroq > turoq kabi.

III. Turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashish. O'zbek tilida bunday moslashishning quyidagi turlari uchraydi:

1. Proteza - so'z boshida tovush orttirilishi:

a) rus > o'ris, ro*za> oraza, ol*ro1> o'ramol kabi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda sonor «r» tovushi so'z boshida qo'llanmagan, demak, uni so'z boshida qo'llash ko'nikmasi ham bo'lmagan, bu hoi boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar boshidagi sonor «r»dan oldin bir unlining orttirilishiga olib kelgan, shu tariqa olinma so'zning fonetik tarkibi turkiy tillar qonuniyatiga bo'ysundirilgan;

b) shkaf> ishkop, stakan > istakan kabi: turkiy tillarda so'z yoki bo'g'in boshida (pozitsion omil) undoshlar o'zaro birika olmaydi (sintagmatik omil), ayni shu qonuniyat yuqorida keltirilgan ruscha o'zlashmalar boshida bir unlining orttirilishiga, demak, shu so'zlarning

turkiy til qonuniyatiga moslashtirilgan shaklining yaratilishiga olib kelgan.

2. Epenteza — soʻz oʻrtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa ham asosan boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar tarkibida yuz beradi — ularning fonetik tarkibi turkiy til qonuniyatlariga moslashtiriladi (soʻz yoki boʻgʻin boshida qatorlashib kelgan ikki undosh orasida bir unli orttiriladi: plan > pilon, klubnika > qulupnay, traktor > tiraktir kabi). Maʼlumki, turkiy soʻzlar tarkibida ikki unli ham yonma-yon qoʻllanmaydi. Bu hoi Said, oila, soat arabcha oʻzlashmalarning jonli tilda Sayid, oyila, sogʻat deb (ikki unli orasida bir undoshning orttirilib) talaffuz qilinishiga sabab boʻladi.

3. Epiteza (austeza) — soʻz oxirida tovush orttirilishi: bu hodisa koʻproq soʻz oxirida qatorlashib kelgan sk, nk undoshlaridan soʻng yuz beradi: otpusk > otpuska, kiosk > kioska, tank > tanka, blank > blanka kabi. Bunda ham pozitsion-sintagmatik omil (turkiy soʻz oxirida sk, nk undoshlari birikmasining uchramasligi) koʻproq darajada asos boʻlgan.

IV. Fonetik hodisalarning boshqa turlari:

1. Tovush tushishi. Soʻz oʻzagidagi yoki unga qoʻshilgan qoʻshimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning maʼlum fonetik qurshov yoki pozitsiya taʼsirida talaffuz etilmasligi. Bu hodisaning quyidagi turlari bor:

a) prokopa, ankopa - soʻz boshidagi tovushning tushib qolishi: yilon > ilon, yagʻoch > agʻoch > ogʻoch, yigna > igna kabi. Bunda til oʻrta «y»da ovoznining ustunligi, demak, uning unliga yaqinligi, oʻzidan keyingi unliga singib ketishi kabi omillar taʼsiri bor. Prokopa, asosan, tarixiy jarayon mahsuli boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchramaydi;

b) sinkopa — soʻz oʻrtasidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida koʻproq uchraydi-oʻzak morfemaga aflfiks morfema qoʻshilganda, urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchib, oʻzakdagi unli kuchsizlanadi va tushib qoladi: burun > burnim, burning, burni; oʻgʻil > oʻgʻlim, oʻgʻling, oʻgʻli kabi. Soʻz oʻrtasidagi unlining tushib qolishi baʼzan tarixiy (diaxron) planda sodir boʻlgan boʻlib, hozir sezilmasligi ham mumkin: olcha < olisha, kelyapti < kelayapti kabi. Oʻzbek tilida undosh tovushlar sinkopasi ham uchraydi: pastqam > pasqam, pastda > pasda kabi. Ularning baʼzi turlari tarixiy plandagina qaralishi mumkin: erdi > edi kabi;

d) apokopa — soʻz oxiridagi tovushning yoki qoʻshma soʻz komponentining tushirib qoldirilishi: baland > balan, xursand > xursan, gʻisht > gʻish, goʻlsht > goʻlsh, obro u > obro \ podshoh > podsho kabi.

Qo'shma so'z komponentining tushirib qoldirilishi asosan ruscha leksik o'zlashmalarda uchraydi: metropoliten > metro, kilogramm > kilo, taksomotor > taksi kabi. Tovush yoki komponentning tushib qolishiga olib keladigan sabablar qatorida pozitsion (urg'usiz bo'g'indagi reduksiya) va sintagmatik (yonma- yon qo'llangan tovushlarning singishib ketishi) bilan birga fonatsion energiyani tejash, ixchamlikka erishish kabi omillar ham qatnashadi;

2. Eliziya — unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlangan so'zning qo'shilishi natijasida bir unli tovushning tushishi. Masalan, ayta oldi > aytoldi, Dili prom > Dilorom kabi. Bu hodisa unlilar singishuvining bir ko'rinishidir. Yana qarang: sinerezis.

3. Sandxi hodisasi — analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlar. Masalan: ishlar edi > ishlardi, borgan emish > borganmish kabi. Bu hodisa o'z tabiatiga ko'ra eliziyaga juda yaqin turadi.

4. Aferezis - oldingi so'zning so'nggi tovushi (yoki tovushlari) ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovushning (yoki tovushlarning) tushishi: ne uchun > nechun, mulla aka > mullaka kabi. Bu hodisa sandxining bir ko'rinishi, xolos.

5. Gaplogiya - yasama so'z tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil bo'g'indan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa ham ko'proq ixchamlashtirish, energiyani tejash asosida sodir bo'ladi. Masalan, tragikomediya < tragikokomediya. Bu so'zning tarkibida ikkita bir xil bo'g'in («ko» - uchinchi bo'g'in va «ko» - to'rtinchi bo'g'in) birin-ketin kelganligidan talaffuzda ulardan biri tushirib qoldirilgan va so'zning ana shu ixchamlashtirilgan shakli adabiy til uchun me'yor bo'lib qolgan. Bunday hodisa mineralogiya < mineralologiya, morfonologiya < morfofonologiya so'zlarida ham kuzatiladi.

6. Tovushlarning o'rin almashinuvi (metateza). Bu hodisa ko'proq jonli so'zlashuvga, ayniqsa, shevalarga xos bo'lib, adabiy tilda kam uchraydi: tuproq > turpoq (Toshkent shevasida), daryo > dayro (qipchoq lahjasi shevalarida), to'g'ramoq > to'rg'amoq (ayrim shevalarda) kabi. O'rin almashinuviga uchragan tovushlar so'z tarkibida bir-biriga yaqin yoki uzoq joylashgan bo'lishi mumkin, shunga ko'ra metatezaning ikki turi farqlanadi:

a) kontakt metateza — yonma-yon joylashgan tovushlarning o'rin almashinuvi: tuproq > turpoq (pr > rp), ahvol > avhol (hv > vh) kabi;

b) distant metateza — bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'rin almashinuvi: aylanayin > aynalayin (bunda ikkinchi

bo'g'in boshidagi «l» bilan uchinchi bo'g'in boshidagi «n» tovushlari orasida «a» unlisi bor). Tarkibida metateza hodisasi yuz bergan ayrim so'zlar hozirgi adabiy tilda me'yor darajasiga ko'tarilgan: yog'mir (etimologik shakli) > yomg'ir (hozirgi adabiy tildagi shakli) kabi.

7. Geminatsiya - ikkita bir xil undoshning so'z tarkibida qavatlanishi: muddat, izzcit kabi. Bunday qavatlanish ma'lum uslubiy maqsadlarda yuzaga keltirilishi ham mumkin: Masalan, maza '(bitta «z», bunda uslubiy bo'yoq yo'q.) - mazza (ikkita «z»). So'zning bu shaklida ma'no kuchaytirilgan). Yana qiyos qiling: yashamagur> yashshamagur, uchulasi> uchchalasi, rosa > rossajuda > judda kabi. Geminatsiya hodisasi so'z yasalishida ham uchraydi: achimoq (fe'l) — achchiq (sifat), isimoq (fe'l) — issiq (sifat), qotmoq (fe'l) — qattiq (sifat) kabi. Sifatlarning kuchaytiruv (intensiv) formalarida ham geminatsiya hodisasi uchraydi: oq > oppoq, sog' > soppa- sog' kabi. Degeminatsiya — so'z tarkibidagi geminatsiyaning yo'qolishi: men+ning > mening, sizni > sizzi > sizi; qayyer > qayer kabi.

8. Sinerezis — so'z tarkibida yondosh qo'llangan ikki unlining diftonglashuvi — bir cho'ziq unli holiga kelishi: mutolaa > mutola: matbaa > matba: saodat> so.dat kabi. Bu hodisa ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: zahar > za:r, shahar > sha:r kabi.

9. Spirantizatsiya — ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) sirg'aluvchi undoshga o'tishi: bora ber> boraver (b > v), kabob > kavob (b > v), po'stloq > po'stlog'i (q > g'), taroq > tarog'i (q > g') kabi. Bu hodisada pozitsion omil (intervokal holat) bilan birga kombinator omil (unlilarning undoshga ta'siri) ham ishtirok etgan.



Grafika

Grafika muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarining har biri grafik tilshunoslikda grafemalar sanaladi⁴⁵. Yozuvning tovush tili bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun grafema muayyan til yozuv tizimining eng asosiy strukturaviy va funksional birligi sanaladi.

Grafema ifoda va mazmun planlariga ega bo'lgan bilateral (ikki tomonli) belgidir. Uni quyidagi chizmalar shaklida tavsiflash mumkin:

g(grafema):

1) ifoda plani — J harfning bosma va yozma shakllari (optik-grafik tasviri)

2) mazmun plani - sirg'aluvchi «j» (jurnal so'zidagi) va qorishiq «dj» (juda so'zidagi) fonemalari.

?(grafema):

1) ifoda plani — so'roq (?) belgisining optik-grafik tasviri.

2) mazmun plani — so'roq ohangi (intonema, prosodema).

5(grafema):

1) ifoda plani — 5 raqamining optik-grafik tasviri.

2) mazmun plani - «olti» bilan «to'rt» orasidagi miqdor tushunchasi.

Yuqorida keltirilgan grafemalardan birinchisi (J grafemasi) alifbodagi harfga, ikkinchisi (? grafemasi) tinish belgisiga, uchinchi (5 grafemasi) esa raqamga asoslanadi, shunga ko'ra birinchi tip grafemalar harfiy belgilar guruhini, ikkinchi va uchinchi tip grafemalar esa noharfiy belgilar guruhini tashkil etadi. Muayyan til yozuvining grafik tizimi ana shunday belgilar majmuyidan tarkib topadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, grafema yozuv birligi U. fonema, intonema, aksentema va leksemalar esa til birliklaridir. Binobarin, grafema bilan fonema, intonema yoki leksema o'rtasidagi aloqa to'ppa-to'g'ri (tabiiy holda) bo'lishi mumkin emas, bunga tovush tilining fizik-akustik asosga, yozuvning esa optik-grafik asosga tayanganligi yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun grafema bilan fonema, intonema va leksema o'rtasidagi aloqa kodlashtirish orqali ta'minlanadi: har bir grafemaning mazmun plani oldindan (grafik tizim shakllantirilgan va joriy qilingan paytda) kodlashtirib qo'yiladi. Grafemalarning yozuvdagi lingvistik-funksional xususiyatlarini reallashtirishda ularning differensial belgilari (shakli yoki tasviridagi tafovutlar) muhim rol o'ynaydi: bu jihatdan grafemalar tovush tilidagi fonemalarga o'xshaydi, chunki fonemalar ham, ma'lumki, differensial belgilar tufayli fonologik qiymatga ega bo'ladi, farqi shundaki, fonemalarning differensial belgilari akustik-artikulatsion omillarga tayanadi, grafemalarning differensial belgilari esa optik-grafik omillarga asoslanadi. Masalan, gul va kul so'zlarining ma'nolarini farqlashda «g» va «k» fonemalaridan birinchisining jarangli, ikkinchisining esa jarangsiz bo'lishi (akustik tavofuti) tovush tili uchun qanchalik ahamiyatli bo'lsa, shu tovushlarni yozuvda ifodalovchi grafemalarning shakliy tafovutlari (optik-grafik tasviri) tilning yozma formasi uchun shunchalik ahamiyatlidir.



Orfografiya va orfoepiya

Orfografiya (grek. orthos - «to‘g‘ri» + grapho - «yozaman») yozuv sistemasining ikkinchi komponenti bo‘lib, u to‘g‘ri yozish me‘yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfografiya grafikadan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: grafika qoidalari grafemalarning mazmun planini (referentini) kodlashtirishga, orfografiya qoidalari esa ma‘lum prinsiplar asosida orfogrammami tanlashga asoslanadi. Chunonchi, odam so‘zida <o!> ning yozilishi «d» grafemasining grafikada kodlashtirilgan fonemasiga mos, shu sababli bu so‘zning yozilishi grafika tomonidan boshqariladi. Savod so‘zida esa boshqacharoq holatga duch kelinadi: so‘z oxiridagi «d» jarangsiz «t» ga o‘tadi (savot tarzida talaffuz qilinadi), demak, uni ikki xil yozish mumkin: savod (fonematik prinsip asosida) — savot (fonetik prinsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me‘yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o‘zbek orfografiyasida savod deb yozish qoidalashtirilgan. Bundan tashqari, orfografiyada qo‘shma so‘z komponentlarining qo‘shilib yoki ajratilib yozilishini, so‘z qismlarining satrdan satrga ko‘chirilishini, bosh va kichik harflaming qo‘llanishini belgilab beradigan qoidalar ham borki, ular yozuvning grafikaga aloqador bo‘lmagan jihatlarini tartibga solish va boshqarish imkonini beradi. Adabiy tilning og‘zaki shaklida so‘z tanlash, gap tuzish va to‘g‘ri talaffuz me‘yorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, uning yozma shaklida orfografiya me‘yorlariga (imlo qoidalariga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday me‘yorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining to‘g‘ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyaning (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo‘l qo‘ymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma‘rifiy rolini mustahkamlashda buning o‘ziga yarasha ahamiyati bor.

Orfoepiya so‘zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o‘zak va qo‘shimchalardan iborat so‘z formalarini to‘g‘ri talaffuz qilish me‘yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo‘limi ham orfoepiya deyiladi. Orfoepik me‘yorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi — jonli tildagi turlicha talaffuz ko‘rinishlaridan adabiy til an‘analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinadi: yo‘q-jo‘q, ko‘z-go‘z, ota-ata, aka-oka, anor-onar kabi. Hozirgi zamon davom fc‘li qo‘shimchasi shevalarda -yapfti -opfti -vot(ti) shakllarida qo‘llanadi: boryapti, boropti, borutti, borvotti kabi. Adabiy tilda shulardan yo‘q, ko‘z, ota, a k a , anor boryapti variantlari adabiy talaffuz mc'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan. To‘g‘ri talaffuz nutq madaniyatining muhim

belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi.

Unli tovushlar orfoepiyasi

I unlisi:

1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: til, tish, bil, sir kabi;

2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: qish, g'isht, xil kabi;

3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: chiy, kiy\ 131

ming kabi;

4) h bilan yondosh bo'lganda ham biroz cho'ziq va ingichka talaffuz qilinadi: hid, hind, his kabi;

5) ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa (bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, viqor kabi), urg'uli bo'g'inda esa kuchliroq va cho'ziqroq (nozik, alik, rost lik kabi) talaffuz etiladi;

b) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda biroz kengayadi («i» dan kengroq, «s» dan torroq unli tarzda talaffuz qilinadi): tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi kabi.

U unlisi:

1) bir bo'g'inli so'zlarda va ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa (tush, tus, pul, buloq, bug'doy kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq (bulut, yetuk, popuk kabi) talaffuz etiladi;

2) k,g,y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), q, g', x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: kul va quU atifgul va norg'ui yuk va xulq kabi;

3) —uvchi, -uv affikslari tarkibida cho'ziqroq aytiladi: yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv kabi.

O' unlisi:

1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: bo'r, to'r, ro'mol, so'roq kabi;

2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urg'uli bo'g'inda) cho'ziq talaffuz qilinadi: ko'p-ko'p, zo'r-zo'r, mo'l-mo'l kabi;

3) sayoz til orqa k,g, til o'rta u va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng yumshoq (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng qattiq va yo'g'on (orqa qator) unli tarzda talaffuz etiladi. Qiyos qiling: ko'l va qo'l, go'r va g'o'r, ho'l va xo'r, yo'l va qo'r kabi.

E unlisi:

1) soʻz va boʻgʻin boshida kengroq (erkin, ekin, eslamoq kabi), boʻgʻin ichida bir oz torroq (kecha, beda, tekin, sekin kabi) talaffuz qilinadi.

2) A unlisi: I) sayoz til orqa k, g undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (kam, katta, gap, gat, gazlama, kayfiyat kabi), chuqur til orqa q, g\ x undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda esa yoʻgʻon unli tarzida (qalam, qargʻa, qasida, gʻam, gʻalvir, xalq, xabar, xat kabi) talaffuz etiladi.

O unlisi:

1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: tosh, bahor, somon, shamol kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urgʻusiz boʻgʻinda «a»ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: samon, davon kabi, ammo bu hoi adabiy talaffuz (orfoepik meʼyor) hisoblanmaydi;

2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan soʻng yumshoq, chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlaridan soʻng esa yoʻgʻon unli tarzida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: kosib va qoshiq, kotib va qolip, komil va qobil, gov va gʻov, govmish va gʻovlamoq kabi;

3) urgʻuli boʻgʻinda kuchliroq va biroz choʻziq talaffuz etiladi: bogʻbon, obod soʻzlarining birinchi va oxirgi boʻgʻinlaridagi o unlisi talaffuzini qiyoslang;

4) u va h undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda ham o unlisi biroz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi. Qiyos qiling: yor va qor, hakim va xolis kabi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi koʻproq kombinator va pozitsion omillar taʼsirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bogʻliq boʻladi. Xususan:

1) b, d jarangli undoshlari soʻz oxirida jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi, bu hoi oʻzbek adabiy talaffuzi uchun meʼyor hisoblanadi: kitob > kitop, borib > borip, yozib > yozip, savod > savot, obod > obot kabi;

2) b, d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qoʻllanganda assimilatsiyaga uchrab, p, t holida talaffuz etiladi, bu hoi ham adabiy talaffuz meʼyori hisoblanadi: ibtidoiy > iptidoiy, ketdi > ketti\

3) j, z undoshlarining jarangsiz undoshlar taʼsirida sh, s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun meʼyordir: ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur > maskur kabi;

4) b, q undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi v, g' undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: bora her > boraver, keta ber > ketavcr kabi.



Ona tili lug'at tarkibining ma'no jihatdan tavsiflanishi

Lug'at tarkibining shakl va ma'no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi

Lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi

Lug'at tarkibining faolligi yoki nafaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug'at tarkibining hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi

Lug'at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma'no va tarkib jihatdan tavsiflanishi. Leksikografiya (lug'atshunoslik). Lug'atlar, ularning turlari

Leksikologiya va frazeologiya. Bu bo'limlarda o'zbek tilining lug'at boyligi, uning rivojlanish qonuniyatlari, lug'aviy birliklarning qatlamlanishi, turlari, leksik-semantik va tematik guruhlari, leksema va frazemalarning semantik tarkibi, qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Leksikografiya. Bu bo'limda lug'atchilik, lug'at tiplari va turlari, lug'atlarning tuzilish prinsiplari, lug'at maqolalarining sxemalari, lug'atlarning amaliy ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

Leksikografiya tilshunoslikning lug'atchilik bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Lug'atlar tildagi so'zlarni, iboralar, maqol-matallar va turli nomlarni ma'lum tartibda o'z ichiga olgan kitoblardir. Bunday lug'atlar o'tmishda qo'lyozma shaklida ham bo'lgan.

Leksikografiyaning vazifa doirasiga quyidagilar kiradi:

- a) lug'at tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish;
- b) lug'at tiplari va turlarini aniqlash;
- d) lug'atshunoslarning ishini tashkil qilish;
- e) lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartoteka fondini yaratish;
- f) lug'atchilik tarixini o'rganish;
- g) lug'at tuzish bilan shug'ullanish.

Lug'atlarning ko'zlangan maqsadga ko'ra turlari

Lug'atlar ko'zlangan maqsadga ko'ra dastlab ikki tipga bo'linadi:

1. Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar.
2. Lisoniy (lingvistik) lug'atlar.

1. Ensiklopedik lug'atlarda tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, tarixiy voqea-jarayonlar, buyuk shaxslar, ilm-fandagi kashfiyotlar, davlatlar, shahar- lar haqida ma'lumot beriladi. Demak, bu tipdagi

lugʻatlarda asosiy eʼtibor tildagi soʻzlarga emas, balki shu soʻzlar yoki soʻz birikmalari vositasida .lomlangan hodisalarga qaratiladi. Ensiklopedik lugʻatlar oʻz navbatida ikki turga boʻlinadi. Universal ensiklopediyalar. Bunday lugʻatlarda ishlab chiqarishning, fan, adabiyot, tabiat, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar, predmetlar, hodisalar va shu sohalarida tanilgan buyuk shaxslar (olimlar, ixtirochilar, yozuvchilar, shoirlar, davlat arboblari, qahramonlar, sanʼatkorlar) haqida maʼlumot beriladi. «Oʻzbek... ensiklopediyasi» (14-jildlik, 1971 — 1980), shu kunlarda yaratilayotgan «Oʻzbek milliy ensiklopediyasi» (uning bir necha jildi nashrdan chiqdi) bunga misol boʻladi.

Soha ensiklopediyalari. Bunday ensiklopediyalarda faqat bir sohaga oid materiallar beriladi: «Zoologiya ensiklopediyasi» (3 jildlik. Tesha Zohidov, 1960—1969), Botanikadan ruscha-oʻzbekcha ensiklopedik lugʻat (Q.Z.Zokirov, H.A.Jamolxonov, 1973) shular jumlasidandir.

2. Lisoniy lugʻatlarda soʻz maʼnolari, imlosi, talaffuzi, iboralar (frazemalar), xalq maqollari, xullas, til birliklari va filologik tushunchalarga oid maʼlumotlar beriladi. Demak, lisoniy lugʻatlarda til va nutq birliklari, til kategoriyalari haqida maʼlumot berish, maqol va matal kabi janr boyliklarini toʻplash maqsad qilinadi. Lisoniy lugʻatlar ham dastlab ikki turga — umumiy va xususiy (maxsus) lugʻatlarga boʻlinadi. Umumiy lugʻatlarda umumtil birliklari, ularning maʼnolari va qoʻllanish xususiyatlari izohlanadi. Bunday lugʻatlar bir tilli, ikki tilli, koʻp tilli, izohli, izohsiz boʻlishi mumkin. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati» (ikki tomli, 1981), «Oʻzbekcha-ruscha lugʻat» (1959), «Ruscha-oʻzbekcha lugʻat» (besh tomli, 1950—1955) va boshqalar shular jumlasidandir. Xususiy (maxsus) lugʻatlarda tilning lugʻat boyligidagi birliklar maʼlum sohalar boʻyicha yoki shu tildagi maʼlum mikrosistemalar, guruhlar boʻyicha tanlab izohlanadi. «Ruscha-oʻzbekcha fizik terminlar lugʻati» (M.D.Yagudev, R.X.Mallin, 1952), «Ruscha-oʻzbekcha matematik terminlar lugʻati» (M.Sobirov, 1952), «Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati» (A.Hojiyev, 1974), «Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati» (A.Hojiyev, 2002), «Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati» (Sh.Rahmatullayev, 1978), «Imlo lugʻati» (Olim Usmon, 1949), «Oʻzbek tilining imlo lugʻati» (S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.A.Ahmedov, 1976), «Oʻzbek ismlari» (E.Begmatov, 1991), «Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati» (Sh.Rahmatullayev, 1984), «Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati» (Sh.Rahmatullaev, N.Mamatov, R.Shukurov, 1980), «Ruscha-oʻzbekcha botanika terminlarining qisqacha izohli lugʻati»

(Q.Zokirov, M.M.Nabiyev, O'.Pratov, H.Jamolxonov, 1963) va boshqalar shular jumlasidandir. Keyingi yillarda o'zbek tilida yana bir qator yangi lug'atlar yuzaga keldi: «Yozuv tarixidan qisqacha lug'at-ma'lumotnoma» (N.Mahmudov, 1990), «O'zbek ismlari» (E.Begmatov, 1991), «O'zbek tilining etimologik lug'ati» (Sh.Rahmatullayev, 2000), «O'zbek tilining imlo lug'ati» (Sh.Rahmatullayev, A. Hojiyev, 1995), «O'zbek tili tasviriyl ifodalarining izohli lug'ati» (R.Rasulov, I.Umirov, 1997), Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati (A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, K.Kokren, M.Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronov, 2001), «Turkcha- o'zbekcha, o'zbekcha-turkcha lug'at» (Nizomiddin Mahmud, Ertug'ul Yaman, 1993) shular jumlasidandir.

Tanlangan tillar miqdoriga ko'ra lug'atlar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli bo'ladi: «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati» (H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova, 1967) bir tilli; «Ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha geografiya terminlari lug'ati» (H.H.Hasanov, 1964), «Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at» (N.T.Hotamov, 1969), «Ruscha-o'zbekcha botanika terminlarining qisqacha izohli lug'ati» (Q.Z.Zokirov, M.N.Nabiyev, O'.Pratov, H.A.Jamolxonov, 1963), «Ruscha-o'zbekcha lug'at» (V.V.Reshetovning umumiy rahbarligida, 1972) kabilar ikki tilli; «Lotincha-o'zbekcha-ruscha normal anatomiya lug'ati» (A.A.Asqarov, H.Z.Zohidov, 1964). «Botanikadan ruscha-o'zbekcha ensikopedik lug'at»ga (Q.Z.Zokirov, H.A.Jamolxonov) ilova qilingan «Botanik nom va terminlarning o'zbekcha-ruscha-lotincha so'zligi» (201 — 254- betlar) hamda «Botanik nom va terminlarning lotincha-ruscha- o'zbekcha so'zligi» (255-294- betlar), «Zoologiya ensiklopediyasi»ga (T.Z.Zohidov) ilova qilingan «Sutemizuvchilarning o'zbekcha-lotincha- ruscha nomlari» (1960, 210— 228-betlar) hamda «Suvda va quruqlikda yashovchilar va sudralib yuruvchilarning o'zbekcha-lotincha-ruscha nomlari» (1969, 195-226- betlar) esa ko'p tilli lug'atlardir. Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlardan asosan taijimachilikda foydalaniladi. Shu sababli ular tarjima lug'atlari deb ham yuritiladi.

So'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra lug'at turlari

So'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra lug'atlar izohli va izohsiz turlarga bo'linadi: so'z yoki terminlarning imlosini, tushunchalarning ruscha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-ruscha nomlarini berish bilan cheklangan lug'atlar izohsiz lug'atlar deb, shunday so'z yoki terminlarning ma'nolariga izoh beradigan lug'atlar izohli lug'atlar deb ataladi. Chunonchi: «O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati» (F.Kamolov

va Z.Ma'rufov tahriri ostida, 1962), «O'zbek tilining chappa lug'ati» (R.Qo'ng'irov, A.Tixonov, 1968) kabilar izohsiz lug'atlar, «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (Azim Hojiyev, 1974), «O'zbekcha-ruscha lug'at» (Bosh muharrir — prof. A.K.Borovkov, 1959), «O'zbek tilining izohli lug'ati», ikki tomli (1981) kabilar izohli lug'atlardir.

Obyekti va predmetiga ko'ra farqlanadigan lug'atlar

Obyekti va predmetiga ko'ra ham lug'atlar xilma-xil bo'ladi.
Chunonchi:

a) terminologik lug'atlar:

«Ruscha-o'zbekcha fizik terminlar lug'ati» (M.D.Yagudaev, R.X.Mallin, 1952).

«Ruscha-o'zbekcha matematik terminlar lug'ati» (M.Sobirov, 1952), «Pedagogikadan qisqacha ruscha- o'zbekcha terminologiya lug'ati» (Sh.Boyburova, N.Takanaev, 1963),

«Qisqacha ruscha-o'zbekcha iqtisodiy terminlar lug'ati» (O.Aminov, J.Do'stmuhamedov, A.Usmonov, 1971),

«Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari» (I.Ismoilov, 1966) va h.k;

b) frazeologik lug'atlar:

«O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati» (Sh.Rahmatullayev, 1964); «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (Sh.Rahmatullayev, 1978);

«Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at» (M.Sodiqova, 1972); «Frazeologicheskiy slovar «Xazoyin-ul Maoniy» Alishera Navai» (E.A.Umarov, 1971);

d) orfografik lug'atlar:

«O'zbek adabiy tilining orfografik lug'ati» (S.Ibrohimov, M.Rahmonov, 1940), «Imlo lug'ati» (Olim Usmon, 1941, 1949);

«O'zbek adabiy tilining imlo lug'ati» (S.Ibrohimov, M.Rahmonov, 1956), «O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati» (F.Kamolov, Z.Ma'rufov tahriri ostida. 1962),

«Imlo lug'ati» (Y.Abdullayev, M.Omilxonova, S.Zufarova, 1970—1987), «O'zbek tilining imlo lug'ati» (S.I.Ibrohimov, E.A.Begmatov, A.A.Ahmedov. (1976);

«O'zbek tilining imlo lug'ati» (Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, 1995);

e) orfoepik lug'atlar:

«Talaffuz madaniyati» (O'.Usmonova, 1976). Ushbu risolaning 29—58-betlarida ayrim so'zlar talaffuzi (lug'ati) berilgan:

f) antroponimik lug'atlar:

«O‘zbek ismlari imlosi» (E.A.Begmatov. 1972);

«O‘zbek ismlari» (E.A.Begmatov. 1991);

g) toponimik lug‘atlar:

«Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?» (S.Qorayev, 1970);

h) sinonimlar lug‘ati:

«O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» (A.Hojiyev, 1963),

«O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» (A.Hojiyev, 1974);

i) chastota lug‘ati:

«Slovar naibolee upotrebitelnykh slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka» (I.A.Kissen, 1972). Bu tipdagi lug‘atlarda o‘zbek tilidagi so‘zlarning faollik darajasi ko‘rsatiladi;

j) dialektologik lug‘atlar:

«Xorazm shevalari», 1-kitob, (F.Abdullayev, 1961), «O‘zbek shevalari leksikasi» (kollektiv, 1966). Bu kitoblarda dialektologik tadqiqotlar natijasi bilan birga, sheva so‘zlarining lug‘atlari ham berilgan;

k) tarixiy lug‘atlar:

«O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at» (P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, 1953),

«Navoiy asarlari lug‘ati» (P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, 1972),

«Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati», 4tomlik.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi (hozir- akademik) E.I.Fozilov tahriri ostida. - T., 1983 (1 —II tomlar), 1984 (III tom), 1985 (IV tom);

«Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug‘at» (X.Nazarova, 1972),

«Drevnetyurkskiy slovar» (kollektiv, 1969); 1) internatsional so‘zlar lug‘ati

«Internatsional so‘zlar lug‘ati» (O.Usmon, 1959).

«Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati» (Olim Usmon, Renat Doniyorov, 1965); m) teskari lug‘at:

«O‘zbek tilining chappa lug‘ati» (R.Qo‘ng‘irov, A.Tixonov, 1968).

Bu tipdagi lug‘atlarda so‘zlar tartibi so‘z boshidagi birinchi harf asosida emas, balki so‘z oxiridagi harflarning alfavitdagi tartibi asosida joylashtiriladi. «Chappa lug‘at» bir xil tovush yoki bir xil bo‘g‘in bilan tugagan qofiyadosh so‘zlarni topishda juda qulay praktik qo‘llanma hisoblanadi;

n) etimologik lug‘atlar:

«Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazykov» (E.V.Sevortyan, 1974). Bu tipdagi lugʻatlarda soʻzlarning kelib chiqishi ilmiy asosda yoritiladi;

«Oʻzbek tilining qisqa etimologik lugʻati» (Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, M.Qodirov, 1997);

«Oʻzbek tilining etimologik lugʻati» (Sh.Rahmatullayev, 2000);

o) maqol va matallar lugʻati:

«Oʻzbek xalq maqollari» (Toʻplovchi va tuzuvchilar: Mansur Afzalov, Saidahmad Xudoyberganov, Malik Rahmonov, Sobiijon Ibrohimov, Husayn Shams va Rustam Komilovlar, 1958, 1965);

«Keng uyning kelinchagi» (Sh.Shomaqsudov, S.Dolimov, 1961).



Morfemika va soʻz yasalishi

Morfemika. Bu boʻlimda soʻz yoki soʻzning grammatik shakllari tarkibidagi maʼnoli qismlar — morfemalar xususida, morfemalarning funksional-semantik, strukturaviy va pozitsion tavsifi haqida maʼlumot beriladi.

Soʻz yasalishi. Bu boʻlimda oʻzbek tilining soʻz yasash usullari, ularning soʻz turkumlari boʻyicha tavsifi, tarixiy va hozirgi soʻz yasalishi kabi masalalar yoritiladi.

Morfemika soʻzning eng kichik maʼnoli qismlari haqidagi taʼlimotdir. Bu kichik qismlar morfemalardir. Bu morfemalar turli koʻrinishlarga ham ega boʻladi. Masalan, *ishla* soʻzidagi *-la* elementi *hayda* soʻzida *-da* formasida kelgan (lekin *hay-hayla* feʼlida yana *-la* tusida qoʻllangan), hozir ajralmaydigan *unda* soʻzida ham aslida shu *-da* affiksi bor (*un—ovoz*). Bu *-la* va *-da* koʻrinishlari umumiy tarzda morfema deyiladi. Buning har bir koʻrinishi esa morf sanaladi. Demak, morfema morflarning yigʻindisidir. Bu turli koʻrinishdagi qismlar, morflar, bir-biriga nisbatan allomorf sanaladi. Bu hol oʻzak morfemalarda ham uchraydi: *tash-qi* soʻzidagi *tash* elementi *tish* tusida ham uchraydi (*chiq* soʻzining kelib chiqishini eslang: *tishiq — chiq*).

Yana: *yuvmoq — yumoq* (u koʻylakni yuvgan-yugan), *toʻzgʻi-toʻzi* (*-gʻi* va *-i*), *qoʻzgʻa* va *toʻzgʻi* (*-gʻa* va *gʻi*), *toʻzidi—toʻzgʻidi—toʻzgʻoq* (*toʻzi* va *toʻz*, *qoʻzi* va *qoʻz*, *qazi* va *qaz*: *qazigʻan—qazgan*), *-gancha* va *-guncha* (Bu formalar keyinroq differentsiatsiyaga uchragan), *kuchuk* *uvladi—Boʻri ulidi* (*uv* va *u*, *-la* va *-li*). Anglashiladiki, morfema deganimizda (oʻzak morfema ham, affiks morfema ham), yuqoridagi kabi yaqin — oʻxshash morflarning yigʻindisini koʻzda tutamiz, shu har xil koʻrinishlarning umumiy atalishini anglaymiz (lekin maʼlum morfologik modelga koʻra regulyar

takrorlanadigan variantlar morf sanalmaydi). Morfema sostaviga koʻra, koʻpincha, umumlashtirib aytganda, fonemalar kompleksidan, baʼzan bir fonemadan iborat boʻladi (har bir konkret koʻrinishga nisbatan aytganimizda morf fonemadan iborat boʻladi), bir qancha soʻzlarda takrorlanadi, (bir xil maʼnoda), muntazamlilik xarakteriga ega boʻladi. Morflarning bir morfema sanalishi (-*la* va -*da* affikslarini eslang) ularning maʼno jihatidagina emas, balki formal tomondan (material-tovush tomonidan) ham yaqin-oʻxshash boʻlishiga asoslanadi. Masalan, *islamoq* va *iskamoq* feʼllaridagi -*la* va -*ka* yasovchi affikslarining semantik funktsiyasi bir xil, lekin bular orasida material yaqinlik-oʻxshashlik yoʻq, demak, bular sinonim affikslardir. Morfemalar funktsiyasiga koʻra soʻz yasashiga ham, soʻz oʻzgarishiga ham aloqador. Affikslarning soʻz yasovchi affikslar (derivatsion affikslar. Bunday soʻz yasash derivatologiya deyiladi) va soʻz oʻzgartuvchilar (relyatsion affikslar) tusidagi klassifikatsiyasi shu holatga asoslanadi. Bu hodisa soʻz yasashi (affiks) bilan paradigmatika orasida formal oʻxshashlik borligini koʻrsatadi. Masalan, *temir* + *chi* (affiks orqali soʻz yasash)—*temir*+*-ni* (affiks orqali forma yasash: bir soʻzning formasini (keng maʼnoda) hosil qilish). Koʻrinadiki, «yasash» soʻzi har ikki maʼnoda ham, umuman, hosil qilish (bir-biridan hosil qilish) maʼnosida umumiy nom boʻlib qoʻllanadi. Bu soʻz:

1. *uzum*—*uzum* + *ni*, *uzum*+*ga* kabi hollarda soʻzning formasini hosil qilish maʼnosida qoʻllanadi. Har bir soʻz maʼlum bir formada boʻladi (*uzum*—*nol*ʼ forma, *uzumni*—tushum kelishigi formasi va

b) u shu hamma formalarning jamini oʻz ichiga olgan, umumlashtirgan birlik sanaladi. Uning hamma koʻrinishlari bir soʻzning turli formalari sanaladi. Bunday affikslar (-*ni*, -*ga*, -*dan* kabi) sintaktik funktsiyani bajaradi: soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydi, soʻzning qoʻshilmadagi—gapdagi va soʻz birikmasidagi—sintaktik vazifasini koʻrsatadi. Demak, bu formalar orasidagi har xillik grammatik farqdir. Bunday maʼno grammatik boʻlib, soʻzning leksik maʼnosi oʻzgarmagan.

2. *Uzum*—*uzum* + *chi*, *uzum*+*zor* kabi hollarda yangi soʻz hosil qilish maʼnosida qoʻllanadi. Bunda affiks leksik funktsiyani bajaradi: yangi leksik birlik hosil qiladi. Bunda juft (affiks qoʻshilmagan holat bilan affiks qoʻshilgan holat: *uzum*—*uzumchi*) orasidagi farq semantik plandagi farqdir. Demak, bu oʻrinda affiksatsiya orqali tugʻilgan ikki hodisani koʻramiz:

1. Affiks—yangi soʻz yasash vositasi (*uzum* + *chi*).

2. Affiks—soʻz formasi hosil qilish vositasi. «Yasash, yasama» soʻzlari bu hodisalarning hammasi uchun ham—«hosil qilish, tugʻdirish, yaratish» kabi maʼnolarda qoʻllanadi, lekin termin sifatida yangi soʻz yaratish maʼnosi uchun xoslangan: *yasama* soʻz (*yasama* soʻzi — sifat), *yasalma* (yasalish natijasida hosil boʻlgan soʻz — *yasalma* soʻz, *yasalma* termini — ot).

Har bir tilning *yasama* soʻzlari shu tildagi soʻz yasash modellari asosida yaratiladi. Masalan, bajaruvchi shaxs otlarining yasalish modellari:

ot (oʻzak-iegiz) + *chi* affiksi (*kran+chi*), ot + *soz* (*samolyotsoz*);
sifatning maʼlum turlarini yasashning modellarn: *ot+li* (*bolali*), feʼl + q (*ochiq*);

qoʻshma otlarning yasalish modellari: ot + ot (*non jiyda*, *qoʻl arra*, *qoʻl soat*), sifat+ot (*koʻk qar-gʻa*);

abstrakt maʼnoli otlarning yasalish modellari: sifat + *lik* (*yaxshilik*, *kattalik*), ravish + *lik* (*tezlik*);

natija otlarining yasalish modellari: feʼl+m (*toʻplam*, *bogʻlam*), feʼl + n(*tugun*, *boʻgʻin*) va b.

Soʻz yasash modellari, umuman, hosil qilish, yaratish sxemasi — andazasi maʼnosidagi umumlashgan, abstrakt hodisadir.

Buning ayrim xususiyatlari:

1) yasalish modeli bir xil boʻlgan soʻzlar struktura va maʼno tomonidan oʻxshash boʻladi;

2) soʻz yasash modellarining unumli yo unumsiz boʻlishi uning shu strukturadagi modelning yangi *yasalma* hosil qilish yo hosil qilmasligidandir. Masalan, qoʻshma soʻzning sifat+ot, ot+ot modellari unumli, uning izofa bilan hosil boʻlishi (*fasli bahor* tusida) unumsiz: koʻshma soʻz hosil qilmaydi;

3) *modelʼ* soʻzi abstrakt tushunchani bildiradi, lekin juda umumiylik va nisbatan umumiylik holatlariga qarab, uning sostavidagi elementlar ham turli tusga kiradi. Masalan, *yasama* soʻz hosil qilishning modellari: oʻzak+ suffiks, prefiks+oʻzak, lekin buning nisbatan aniq turlari haqida gapirganimizda, modelning qismlari ham shunga mos nomlardan boʻladi; ish otlari yasashning modellari: feʼl+q (*suvoq*, *chopiq*), feʼl+m (*terim*, *oʻrim*); qoʻshma soʻz hosil qilishning modeli: soʻz+soʻz, qoʻshma otlarning modellari: ot+ot, sifat+ot, son+ot va b.

Qoʻshma soʻzning modellari soʻz birikmasining modellariga oʻxshaydi, lekin ularning hamma turi ham oʻxshash boʻla bermaydi.

Koʻrinadiki, soʻz yasash modeli *yasama* soʻzning tuzilishi sxemasi, demak, bu sxema soʻz yasash sxemasidir.

U soʻzning yasash strukturasi tekshirishning umumlashtirilishidan tuzilgan: soʻzning yasash strukturasi aniqlash bilan umumlashtirish natijasida soʻz yasash modellari belgilanadi, bu modellar tilning soʻz yasash sistemasini tashkil qiladi. Har bir yasalmaning asosida boshqa soʻz yotadi («falon soʻz falon soʻzdan yasalgan») va bu yasash maʼlum modelga koʻra biror yoʻl, usul bilan yuzaga kelgan boʻladi. Demak, har bir yasashda ikki elementning munosabati bor: yasashga asos boʻlgan soʻz va yasali chiqqan soʻz (yasashga asos boʻlgan element mustaqil holda ayrim soʻz, lekin yasalmaga asos boʻlgach - undan yangi soʻz yasalgach — soʻzning qismi: oʻzak yoki negiz). Yasalmadagi bu ikki element tashqi va ichki tomonlardan oʻzaro munosabatda boʻladi. Bu munosabatning xususiyatlari:

Soʻz yasashining, yasama soʻzning, binarlik (ikki qismdan iborat boʻlish) holati, binar oppozitsiya tusida boʻlishi, unda ikki elementning aloqador ekanligini koʻrsatadi: yasama soʻz (mahsul) va uning yasovchisi (yasalishga asos boʻlgan element).

Masalan, *sutchi* (*sutchi* soʻzi *sut* soʻzidan yasalgan, *-chi* morfemasi yasovchi affiksi boʻlib, yasashning vositasi boʻlib kelgan). Binar konstruksiyadagi bu qismlar bir xil oʻzakli — bir oʻzakdan boʻladi. Demak, oʻzak oʻsha elementlarning umumiy qismi sanaladi: qiyoslanayotgan elementlarning (yasama soʻzning yoki qarindosh soʻzlarning) umumiy — oʻxshash qismi. Yasalmadagi ikki element semantik jihatdan ham, formal (tashqi) jihatdan ham aloqador: shu tomonlar yasalganlikning koʻrsatkichidir (busiz yasalmalik munosabati boʻlmaydi):

a) soʻzning formal strukturasi murakkablashadi (kengayadi: yasovchi element yasalmaga nisbatan soda boʻladi: *ish* — *ishchi*): bu yasalganlikning tashqi tomoni;

b) maʼnosi ham murakkablashadi. Masalan, *oʻroq*, yasalmasi oʻz yasovchi soʻziga («oʻr»ga) nisbatan ikki tomonlama murakkabdir. Lekin konversiyada formal murakkablashish maʼlum bir tashqi — material koʻrsatkich orqali kengayish — uzayish tusida emas, balki kategorial oʻzgarish tusida boʻladi. Koʻrinadiki, yasalgan soʻz bilan yasovchi soʻz oʻzaro yasalmalik munosabati bilan bogʻlangan boʻladi: bularning aloqasi soʻz yasash munosabati sanaladi. Bu elementlar orasidagi semantik aloqa sezilmas holga kelsa, orada soʻz yasash munosabati boʻlmaydi, yasama soʻz tub soʻzga aylanadi (soddalanish hodisasi). Soʻz yasash strukturasi deganda, shu ikki element orasidagi formal va semantic munosabatlarning birgaligini, yigʻindisini tushunamiz. Yasama soʻzning maʼnosi yasovchi

soʻzning maʼnosiga asoslanadi: yasalma oʻzakning maʼnosini rivojlantiradi, oʻshandan kelib chiqadi: *Oʻroq* yasalmasining maʼnosi oʻrsh harakati bilan asoslanadi (motivlanadi). Shunga koʻra: birinchi element asoslovchi (motivlovchi), ikkinchi element asoslanuvchi (motivlanuvchi), ikkala elementning orasidagi munosabat motivatsiya (motivlash, asoslash) munosabati sanaladi. Demak, «motivlangan» soʻzi «yasalgan» degan maʼnoni talqin qiladi. «Motivlovchi» esa «shunga asos boʻlgan, shuni yaratuvchi» degan maʼnodir. Shuning uchun ham yasama soʻzning maʼnosi, kelib chiqishi aniq sezilib turadi (motivlovchi orqali: koʻchgan maʼnodagi soʻzning asl maʼnodagi soʻz orqali sezilib turgani kabi).

Masalan, «mard» maʼnosidagi *xoʻroz* soʻzi «petux» maʼnosidagi *xoʻroz* soʻzidan — (shuning yasalmasi), lekin tub soʻzning maʼnosi bunda y emas: yasama soʻzlardagi motiv — sostavidagi qismlarni va qarindosh soʻzlarni chogʻishtirib aniqlash — bunda yoʻq. SHuning uchun tub soʻzlarning juda kami genetik jihatdan (tarixiy-etimologik tekshirishlar orqali) aniqlangan boʻladi: yasamaligi belgilanadi. «Soʻzning maʼnosi uning sostavidagi qismlarning semantik xususiyatlari bilan bogʻliq» degan fikr hamma vaqt ham shu qismlarning maʼnosi yigʻilib, oʻsha soʻzning maʼnosini hosil qiladi, shunga teng boʻladi, degan mazmunpi anglata bermaydi. Bunda ikki-holat bor:

1. Yasalmaning maʼnosi koʻpincha, qismlarining maʼnosidan tugʻiladi (*suvoq, suvoqchi, suvoqchilik* kabi).

2. Yasalmaning maʼnosi, baʼzan, qismlardan anglashilgan maʼnolarning yigʻindisidan boshqacha boʻladi. Masalan, *andavalamoq* (andava+la) soʻzining xas-poʻshlash maʼnosi qismlarning asl maʼnosidan boshqa: bunda ideomativlik bor (bu hodisa yasovchi soʻzda yoʻq). Yana: *qoʻlqop* (chogʻishtiring: *shakar qop*), *temirchi* (ezma maʼnosida), *ninachi* (juda «mayda» odam: «ikir-chikir»larigacha eʼtibor beradigan odam). Yana: *oʻq ilon, it uzum, it qovun*. Bu misollar yasalmaning, asl soʻz yasaliş maʼnosini saqlash bilan birga, yana boshqacha - oʻzakda boʻlmagan mazmunga ham ega boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi. Baʼzan buning aksiga oʻxshaganroq holni koʻramiz: yasovchi soʻz koʻp maʼnoli boʻlganda, yasalmada, odatda, uning oʻsha holati, hamma maʼnosi saqlanmaydi. Masalan, *koʻp* formasidagi element

a) *feʼl koʻpmoq: xamir koʻpdi*, boʻrtib chiqmoq,

b) ruscha «mnogo» maʼnosidagi soʻz. Bundan *-chi* affiksi orqali soʻz yasaganimizda (*koʻpchimoq*), uning «mnogo» maʼnosi saqlangan.

Tub soʻz motivga ega boʻlmaganligidan, u predmet, hodisa va boshqalarni bevosita anglatadi, yasama soʻz motivlangan soʻz boʻlib, u vosita orqali anglatadi. Misollar: *tuz*, *suv*, *taramoq*, *oq* — *tuzluq* (tuz orqali anglanadi), *suvchi* (suv orqali), *taroq* (tarash harakati orqali), *oqarmoq* (rang-tus orqali).



Ot turkumining ma'no turlari.

Otlar ma'no jihatdan quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1. Atoqli otlar. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib koʻrsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, havonlarning atoqli nomlari, tashkilot va geografik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: *Alisher*, *UlugʻBek*, *Zarafshon*, *Toshkent*, *Samarqand*, *Mars* kabi. Bunday atoqli otlar oʻzaro tub va yasamaligi hamda tuzilishiga koʻra farqlanishi mumkin. Masalan, *Lola*, *Goʻzal*, *Amir*, *Gavhar Orol* kabi otlar sodda tub, *Ilonli*, *Doʻstlik*, *Paxtakor* kabi atoqli otlar sodda yasama, *Ulugʻbek*, *Alisher*, *Nurato*, *Nurobod*, *Qoʻshrabot*, *Uchquduq* kabi atoqli otlar qoʻshma otlardir. Atoqli otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Biroq ular boshqa soʻz turkumlari asosida ham yuzaga keladi. Masalan: *Asal*, *Quvonch*, *Anor* kabilar turdosh otdan, *Oʻlmas*, *Sotiboldi*, *Turdi*, *Tursun* kabilar esa feʻldan, *Aziz*, *Botir*, *Shirin*, *Vali* kabilar sifatdan, *Toʻqsonboy*, *Oltibek* kabilar esa sondan, *Bultur*, *Avvalboy* kabilar esa ravishdan hosil boʻlgan atoqli otlardir.

Turli turkumga mansub boʻlgan soʻzlarning atoqli ot sifatida qoʻllanishi natijasida ular oʻzining hususiy nominativ mohiyatidan chekingan holda, umumiy semantik maʼno tashuvchi lugʻaviy birlikka aylanib qoladi. Masalan, *Uchquduq* mazkur joydagi uchta quduqni emas, balki umuman shahar tushunchasini anglatuvchi onomastik birlikdir.

2. Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, *inson*, *daryo*, *shahar*, *kitob*, *daftar*. Turdosh otlar quyidagi maʼno guruhlarga mansubligi bilan oʻzaro farqlanadi:

3. Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jon-zot anglatadigan otlardir. Aniq otlar bevosita sanash va koʻrish mumkin boʻlgan otlar hisoblanadi. Masalan: *kitob*, *talaba*, *daraxt*, *qush*.

4. Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin boʻlgan otlardir. Ular ham koʻplik affikslari bilan qoʻllanmaydigan otlar boʻlib, ularga koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilganda turlicha maʼno boʻyogʻi yuzaga keladi. Masalan: *sevgi*, *sezgi*, *qaygʻu*, *alam*, *qadr*, *oriyat*.

5. Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o'zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: *kitob, gul, daraxt* kabi. Birlik shaklida bo'lib, bir xil turdagi narsaning to'dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir: *xalq, armiya, ko'pchilik, poda, jamoa, o'rmon kabilar*.

6. Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: *daraxt, kitob, qalam*. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og'irlik, suyug'lik o'lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: *tuproq, qum, havo, shakar, tuz, yog', guruch*, kabilar.

7. Bundan tashqari, tabiatan yakka bo'ladigan va juft holda uchraydigan otlar ham mavjud bo'lib, ular ham otning alohida ma'no turini tashkil qiladi. Masalan: *yurak, quyosh, oy, ko'z, qosh, oyoq* kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, otlar kim? so'rog'i asosida shaxs hamda nima? so'rog'i asosida narsa otlariga ham ajratiladi. Otlarning bunday tasniflanishi o'zbek tilining, shu jumladan, boshqa turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ayni paytda bu tasnif ularning turli grammatik jarayonda ishtirokida ham o'z aksini topadi. Xususan, shaxs otlari to'liq tuslovchi affikslarni qabul qilgan holda qo'llana oladi: *o'quvchiman, o'quvchisan, o'quvchimiz, o'quvchisiz*. Biroq, narsa otlari (majoziy ma'nosini e'tiborga olmaganda) faqat uchinchi shaxs ma'nosidagina ishlatilishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, atoqli va turdosh otlar o'zaro ma'no jihatdangina emas, balki ba'zi grammatik xususiyatlariga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, atoqli otlar faqat birlikda qo'llanadi. Ko'plikda qo'llanganda, ular grammatik ko'plik emas, boshqa ma'no bo'yoqlarga ega bo'ladi. Shuningdek, atoqli otlar turdosh otlarga va aksincha, turdosh otlar atoqli otlarga o'tib turadi. Masalan: *Lola*-atoqli ot, ayni paytda, *lola*-tog'da o'sadigan gul ma'nosida turdosh otdir. *dizel, amper, rentgen, bitner* kabi otlar esa atoqli ot asosida shakllangan turdosh otlardir. Atoqli otlarning turdosh otga aylanishida *-lik* qo'shimchasidan ham foydalaniladi: *kattaqo'rg'onlik, toshkentlik, andijonlik* kabi.

Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba'zan predmetga) taalluqli ekanligini ko'rsatuvchi umumiy ma'nolar va bu ma'nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga **egalik kategoriyasi** deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya'ni so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs) shaxsga taalluqliligini ifodalaydigan affikslar **egalik affikslari** deyiladi. Egalik

affikslari shaxs ma'nosi bilan birga uning sonini (birlik yoki ko'plik ma'nosini) ham ifodalaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-(i)m	-(i)miz
II shaxs	-(i)ng	-(i)ngiz
III shaxs	-i, -si	-i, -si

Jadvaldan ko'rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko'plik son uchun umumiy. Predmetning bir shaxsga yoki ko'p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog'lanib kelgan so'zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: *uning kitobi* – birlik, *ularning kitobi* – ko'plikdir.

Shuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo'llanadi.

Shaxs	Birlik		Ko'plik	
	unlidan so'ng	undoshdan so'ng	unlidan so'ng	undoshdan so'ng
I shaxs	<i>sovg'a+ -m</i>	<i>daftar+ -im</i>	<i>sovg'a+ -miz</i>	<i>daftar+ -imiz</i>
II shaxs	<i>sovg'a+ -ng</i>	<i>daftar+ -ing</i>	<i>sovg'a+ -ngiz</i>	<i>daftar+ -ingiz</i>
III shaxs	<i>sovg'a+ -si</i>	<i>daftar+ -i</i>	<i>sovg'a+ -si</i>	<i>daftar+ -i</i>

Egalik affikslari odatda, ko`plik affiksidan keyin qo`shiladi: *kitob+ -lar+ -im* kabi. Egalik affiksi qo`shilgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi (belgili va belgisiz shakldagi) boshqa ot, olmosh va otlashgan so`z bilan bog`lanadi: daraxtning bargi, ipak qurti, mening vazifam, yaxshining so`zi kabi. Bu bog`lanish egalik affiksini olgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigida kelgan so`zga qaramli ekanligini ko`rsatadi. Egalik affiksini olgan ot ba`zan chiqish kelishigidagi ot bilan ham bog`lanishi mumkin. Masalan: *talabalardan bir guruhi* kabi. Bunday bog`lanishda egalik affiksini olgan ot yuqoridagi kabi qarashlilik ma`nosini emas, balki aloqadorlik, mansublik ma`nosini ifodalaydi.

Demak, bu holda faqat grammatik egalik (aloqadorlik, mansublik) ma`nosi mavjud. Egalik affiksi I va II shaxsda predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniq ko`rsatadi. Chunki bu shaxslar har vaqt kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: *mening burchim, sening burching, bizning burchimiz, sizning burchingiz* kabi. III shaxsda esa egalik affiksini olgan ot qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan ham, ot va otlashgan so`zlar bilan ham bog`lana oladi: *uning burchi, farzandning baxti, ko`plarning orzusi* kabi.

Ba`zan uslub talabi nuqtai nazaridan shaxs va egalik affiksini olgan ot orasidagi munosabat o`zgacha bo`lishi mumkin, ya`ni II shaxs birlik sondagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning ko`pligi uchun qo`llanishi mumkin: senlarning maqsading kabi. Yoki, aksincha, otning II shaxs ko`plik shaklidagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning birligi uchun qo`llanishi mumkin: sizning opangiz kabi. Birinchi holda kamsitish, kesatq kabi ma`nolar, ikkinchi holda esa hurmat ma`nosi ifodalanadi. Ot ko`plik son shaklida kelib, ko`plik ma`nosini ifodalaganda, egalik affiksi *-lar* qo`shimchasidan keyin qo`shiladi: *opalarim* kabi. Lekin hurmat ma`nosi ifodalanganda, egalik affikslari *-lar* qo`shimchasidan oldin qo`shiladi: *opamlar, akamlar* kabi. Egalik affikslari otning gapdagi sintaktik vazifasini ko`rsatmaydi.

Ba`zi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida turli fonetik o`zgarishlar ro`y beradi. Bular quyidagilar: 1. **k, q** undoshi bilan tugagan ko`p bo`g`inli so`zlarga, shuningdek, bek kabi ayrim bir bo`g`inli so`zlarga egalik affikslari qo`shilganda, k undoshi g undoshiga, q undoshi g`undoshiga aylanadi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: *tilak – tilagi, yurak – yuragi, bek – begi, kubok – kubogi, qishloq – qishlog`i* kabi. Lekin ko`p bo`g`inli o`zlashma so`zlarga, bir bo`g`inli so`zlarga (ko`p hollarda) egalik affikslari qo`shilganda k, q undoshi asliga

mos holda aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherking, erk – erki; huquq - huquqim, zavq zavqi* kabi.

2. *O`rin, qorin, burun, o`g`il, bo`yin, ko`ngil, singil* kabi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, ikkinchi bo`g`indagi i, u unlilari talaffuzda aytilmaydi va yozilmaydi: *o`rin - o`rnim, qorin - qornim, burun – burning, o`g`il - o`g`lim, ko`ngil – ko`ngli, singil – singlim* kabi.

3. *Parvo, obro`, mavqe, avzo, mavzu* so`zlariga I va II shaxs egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida bir y tovushi qo`shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying, obro`yim, obro`ying* kabi; III shaxsda esa *parvo, obro`, mavqe, avzo* so`zlari *parvoyi, obro`yi, mavqeyi, avzoyi* kabi, *mavzu* so`zi esa *mavzusi* tarzida aytiladi va yoziladi.

Ot turkumining son kategoriyasi; otlarning nokategorial shakllari

Son kategoriyasining ta`rifi va xususiyatlari Otlardagi birlik va ko`plik ma`nolari, ularni ifodalovchi grammatik shakllar hamda ularga xos grammatik ko`rsatkichlar yig`indisi otlardagi son kategoriyasi deyiladi: Kitob – birlik ma`no → gr. shakl(kitob)→ - Ø(nol ko`rsatkich). Kitoblar – ko`plik ma`no → gr. shakl (kitoblar)→ - lar.

MANTIQUIY SON VA GRAMMATIK SON HAQIDA

Mantiqiy son:

Ahmad so`zi mantiqan bir necha odamning ismi bo`lishi mumkin. Kitob sozi mantiqan ko`plab o`quv qurollarining nomidir.

Grammatik son:

Ahmad so`zi grammatik jihatdan bitta shaxsni bildiradi. Kitob so`zi shu shaklda yakka o`quv qurolining nomidir.

SON KATEGORIYASINING IKKI SHAKLI:

Birlik shakli: (nol ko`rsatkichli shakl) Bu shakl bir jinsdagi tushunchalarning bittasini ifodalaydi: Daftar, odam

Ko`plik shakli: Bir jinsdagi tushunchalarning noaniq miqdorini ifodalaydi: Daftarlar, odamlar

TURDOSH OTLARDA SON:	
SHAXS OTLARIDA SON	NARSA OTLARIDA SON

Shaxs otlarida son **-lar** olmaydi:

1. Mavhum ma`noli otlar: g`azab, nafrat, muhabbat
2. Son bilan kelgan otlar: to`rt kishi, o`nta daftar.

3. Miqdor anglashilgan olmosh bilan kelgan ot: Har bir kishi, har qanaqa odam

4. Olmoshga ko`chgan bir so`zi bilan kelgan otlar: Bir boy yashagan ekan.

5. Izohlovchi ot: Temirchi Jo`ra, usta Karim

-lar oladi:

1. Qaralmishi bir, hamma bo`lgan otlar: Yigitlardan biri, talabalarning hammasi

2. ichida, orasida so`zlari bilan qo`llanga otlar: odamlar ichida, bolalar orasida

3. Sifatlovchisi hamma, bir qancha bo`lgan otlar: Hamma bolalar, bir qancha odamlar

Narsa otlarida son **-lar** olmaydi

1. Mavhum otlar: hukm o`qildi,

2. Son bilan ifodalangan sifatlovchisi bor otlar: Ikki so`z, beshta kitob

3. Hisob so`zlar bilan qo`llangan otlar: Bir piyola choy, ikki qop un.

-lar oladi:

1. Qaralmishi bir, hamma bo`lgan otlar: Yo`llardan biri, uylarning hammasi

2. ichida, orasida so`zlari bilan qo`llanga otlar: Daraxtlar ichida, uylar orasida

3. Sifatlovchisi ba`zi, ayrim bo`lgan otlar: Ba`zi vazifalar, ayrim ishlar

–lar QO`SHIMCHASINING BOSHQA MA`NOLARI :
1) narsalarning turini, navini xilini: Do`konga yohlar (guruchlar, suvlar...) keltirildi;
2) jamlikni: Ma'muraxonlar kelishdi;
3) hurmatni: Dadamlar ishlaydilar;
4) kinoyani: Janoblari kelibdilar-da;
5) kuchaytirishni: Boshlarim og`rib ketdi;
6) taxminni: Soat beshlarda keladi.

OTDAN BOSHQA TURKUMDA BOSHQA TURKUMLARDA SON OT O`RNIDA QO`LLANADIGAN SO`ZLAR:

Birlikda:

1. Harakat nomi: tushuntirish, Birlik va ko`plikda

1. Olmosh: kim, nimalar, hech kim, o`zi.

OTLASHGAN SO`ZLAR:

Birlik va ko`plikdaigi

1. Sifat: kattalar, kichik

2. Olmosh: bular, shuni

3. Son: sakkizga, o`nning...

4. Ravish: ko`plar...

5. Sifatdosh: kelganlar, o`qiganlar...

OTLARNING NOKATEGORIAL SHAKLLARI:
Hurmat shakli: dadamlar
Qarashlilik shakli: ukamniki
Chegara shakli: Ko`chagacha
O`xshatish shakli: shamolday
Juft va takroriy shakllar: Dasta-dasta Qovun-tarvuz

Otlarning yasalishi, tuzilish jihatdan turlari

Otlar yasaliş xususiyatlariga ko`ra boshqa turkumdagi so`zlarga nisbatan alohida ajralib turadi. Chunonchi, otlarda yasovchi qo`shimchalar ko`p bo`lib, ular ishtirokida ko`plab yangi so`zlar yasalganidek, so`z qisqarishi asosida yangi so`zlar yasalishi ham ot turkumiga xosdir. Shu boisdan ham otlar yangi so`zlar riisobiga tez boyib boruvchi turkumdur. Otlar sosan **morfologik** va **sin taktik** usullar bilan yasaladi. So`z o`zak negiziga maxsus so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan ot yasalishi morfologik usul bilan yasalişdir. Ot yasovchi qo`shimchalar yordamida ot, sifat, son, fe'l va boshqa turkumlardan so`z yasaladi. Masalan, **ishchi** (otdan),

terim (fe'ldan),
birlik (sondan),
yaxshilik (sifatdan).

Morfologik usul bilan quyidagi ma'nolarni bildiruvchi otlar yasaladi.

1. Shaxs otlari.
2. Narsa - qurol otlari.
3. O'rin- joy otlari.
4. Mavhum otlar.

Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar. Bu guruhdagi otlar katta miqdorni tashkil qilganidek, turli ma'nolarni ham ifodalaydi. Shaxs oti yasovchilar orasida eng faol va turli ma'nolardagi otlar yasovchi qo'shimcha - **chi** qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha barcha so'z turkumlari va boshqa tillardan kirgan so'zlarga ham qo'shib quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasaydi.

1. -chi qo'shimchasi:

a) ot va fe'l negizlariga qo'shib, negiz orqali ifodalangan narsa, predmet bilan shug'ullanuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi. **ishchi, suvchi, terimchi, o'quvchi, o'qituvchi** kabi.

b) Ot, sifat, son negizlarga qo'shib negiz anglatgan predmet, narsa-hodisaga mansub ekanlikni ifodalovchi otlar yasaydi: **Tursunoychi, musobaqachi, a'lochi, og'machi, o'n-mingchi.**

d) Fe'l va sifat negizlarga qo'shib negiz anglatgan belgi, xususiyatga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: **yozuvchi, sinovchi, qiziqchi, yolg'onchi** kabi.

1. **-chi** kasb-hunar yoki mutaxassislikni ifodalovchi so'zlarga qo'shib, fe'l negizi orqali anglashilgan kasb-korga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: **pichoqchi, suvoqchi, tilchi.**

2. **-dosh.** Bu qo'shimcha negiz anglatgan shakl yoki predmet bilan birgalik ma'nosidagi otlar yasaydi.

a) Yashash joyda fikrdabirgalikni ifodalovchi otlar yasaydi: **vatandosh, mahalladosh, fikrdosh, suhbatdosh.**

b) Qarindoshlik jihatdan birlikni bildiruvchi otlar yasaydi: **qarindosh, qondosh, jondosh.**

-dosh qo'shimchasi bilan o'rinda birlik: **sinf-dosh, vatandosh;** paytda birlik. **zamondosh, asrdosh;**

holatda birlik: **fikrdosh, suhbatdosh** kabi otlar yasalganidek, ayrim tilshunoslik atamalari ham hosil bo'lgan: **sifatdosh, ravishdosh** kabi.

3. **-kash.** Bu qo'shimcha tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, tojikchakashidan "tortmoq" so'zining o'zbek tilida affikslashgan shaklidir.-kash qo'shimchasi asl ma'nosiga mos holda "yurgizuvchi" ma'nosidagi otlar yasaganidek: **tuyakash, aravakash**, "biror ish bilan shug'ullanuvchi" ma'nosidagi otlar ham yasaydi: **mehnatkash, chizmakash**

4. **-bon.** Negiz orqali anglashilgan predmetni qo'riqllovchi, qarovchi ma'nosidagi otlar yasaydi: **darbozabon, bog'bon.**

5. **-dor.** Tojikcha "ushlamoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi otlar yasaydi; puldor, mulkdor, chorvador, aybdor.

6. **-boz.** Negiz orqali anglashilgan predmet bilan shug'ullanuvchima'nosidagi otlar yasaydi: nayrangboz, masxaraboz, dorboz, kaptarboz.

7. **-paz.** Tojikcha "pishirmoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali anglashilgan taomni pishiruvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: oshpaz, somsapaz, kabobpaz.

8. **-shunos.** Tojikcha "bilmoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali anglashilgan sohani egallaganlik ma'nosidagi otlar yasaydi: tilshunos, adabiyotshunos, o'lkashunos kabi.

9. **-parast.** Negiz orqali anglashilgan ishga berilganlikma'nosidagi otlar yasaydi: amalparast, mansabparast kabi.

10. **-furush.** Tojikcha "sotmoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali ifodalangan predmetni sotuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: nosfurush, qovunfurush.

11. **-parvar.** Tojikcha "saqlamoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negiz orqali ifodalangan predmetga sodiqlik ma'nosidagi otlar yasaydi: vatanparvar, xalqparvar, ma'rifatparvar kabi

12. **-xo'r.** Tojikcha "yemoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali ifodalangan taomni ko'p yeyuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: oshxo'r, somsaxo'r kabi. Shuningdek, ishyoqmaslik, dangasalikma'nosini ifodalovchi: nonxo'r, yuvindixo'r; yomonlik ma'nosidagi: odamxo'r, qonxo'r; mehribonlik ma'nosidagi: g'amxo'r kabi otlar yasaydi:

13. **-soz.** Tojikcha "yasamoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali ifodalangan narsani tuzatuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: soatsoz, aravasoz, mashinasoz.

14. **-do'z.** Tojikcha "tikmoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali anglashilgan narsani tikuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: do'ppido'z, mahsido'z, etikdo'z kabi.

15. **-xon.** Tojikcha "o'qimoq" so'zidan o'zlashgan bo'lib, negizorqali anglashilgan narsani o'qish bilan shug'ullanuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: gazetxon, kitobxon.

16. **-gar, -kor, -kar.** Negiz orqali anglashilgan predmet bilanqiziquvchi, u bilan shug'ullanuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: zargar, kimyogar, san'atkor, paxtakor, miskar. Narsa - **qurol oti yasovchi qo'shimchalar.** Narsa -qurol otlari asosan ot va fe'l negizlaridan yasaladi. Narsa-qurol otlarini yasashda fe'l negizlar ancha faoldir .

Quyidagi qo'shimchalar narsa-qurol otlari yasovchi qo'shimchalardir:

1. **-gich, -kich, (-g'ich, -qich).** Fe'l negizlariga qo'shib, narsaotini yasaydi. Bu qo'shimchalar turli negizlarga qo'shilishiga ko'raturli variantlidir: suzg'ich, o'tkazgich, ko'rsatkich, chizg'ich, ochqich, tutqich kabi.

2. **-ma.** Fe'l negizlarga qo'shib narsa otlari yasaydi, **qaynatma, joy** otini yasaydi: **bostirma.**

3. **-k, -ik, uk, -uq, iq, -oq, -ak.** Fe'l negizlarga qo'shib, quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasaydi.

a) mehnat qilish uchun ishlatiladigan predmetlar otini yasaydi: **kurak, elak, g'ildirak, o'roq;**

b) inson uchun zarur bo'lgan narsa otlarini yasaydi **taroq, to'shak, sochiq, pichoq;**

d) mavhum otlar yasaydi: **chaqiriq, hayqiriq, tilak.**

4. **-m, -im, -um.** Fe'l negizlarga qo'shib, narsa oti yasaydi: **kiyim:** harakat oti yasaydi: **terim, chiqim;** sifat negizga qo'shib mavhum ot yasaydi: **oqim** kabi.

5. **-gi, -ki, -qi, g'i.** Bu qo'shimchalar fe'l negizlarga qo'shib, narsa-qurol oti yasaydi: **supurgi, suzgi, chopqi, cholg'i** kabi.

6. **-indi.** Fe'l negizlarga qo'shib, narsa otini yasaydi: **yuvindi, chiqindi** kabi.

7. **-in (-un).** Fe'l negizlarga qo'shib, negizdan anglashilgan mehnat jarayonlari otini yasaydi: **ekin, yig'in.**

8. **-kin, gin.** Fe'l negizlarga qo'shib, narsa otini yasaydi: **toshqin, to'lqin, qirg'in.**

9. **-don.** Ot negizlarga qo'shib, negiz orqali anglashilgan predmetni saqlash uchun ishlatiladigan narsa otini yasaydi: **tuzdon, siyohdon.**

O'rin -joy otlari yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalar bilan negiz orqali anglashilgan predmet ko'p bo'lgan, shu predmet o'sadigan yoki saqlanadigan joy nomlari yasaladi.

1 .-zor. Ot negizlariga qo'shib, negiz orqali anglashilgan predmet o'sadigan joy nomlari yasaladi: **paxtazor, lolazor, o'rikzor, olmazor** kabi.

2. -loq. Ot negizlarga qo'shib, negiz orqali anglashilgan predmetko'p bo'ladigan joy nomlari yasaladi: **qumloq, toshloq, o'tloq.**

3.-iston. Ot negizlarga qo'shib, atoqli otlar yasaladi: **O'zbekiston, Guliston, Turkiston.**

4-goh. Ot negizlarga qo'shib, qisqa muddatda yashash, tunash, sayr qilish, o'ynash uchun zarar bo'ladigan joy nomlari yasaydi: **qarorgoh, xobgoh, sayrgoh, o'yingoh.**

Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar. Tubandagi ot yasovchi qo'shimchalar turli turkumdagi negizlarga qo'shib, mavhum ot yasaydi.

-lik(-liq). Bu qo'shimcha mavhum ot yasovchi eng faol qo'shimcha bo'lib, quyidagi negizlardan ot yasaydi:

1. sifatlarga qo'shib belgi, xususiyat ifodalovchi otlar yasaydi: **go'zallik, yaxshilik, soflik;**

2. otlarga qo'shib holat ifodalovchi mavhum ot yasaydi: **yigitlik, do'stlik, dushmanlik;**

3. shaxs otlariga qo'shib, o'zak orqali anglashilgan predmet, soha bilan shug'ullanuvchi ma'nosidagi mavhum ot yasaydi: **binokorlik, tuproqshunoslik, manbashunoslik, pichoqchilik, zargarlik;**

4. ravishga qo'shib, harakatning mavhum miqdorini: **tezlik, ko'plik,** songa qo'shib, uning mavhum miqdorini: **o'nlik, yuzlik** bildiruvchi otlar yasaydi.

5. **-liq** qo'shimchasi bor modal so'zga qo'shib mavjudlik ma'nosidagi ot yasaydi: **borliq.**

2.-chilik. Bu qo'shimcha murakkab qo'shimcha (chi+lik) tartiblaridan tuzilgan bo'lib, ot, sifat negizlarga qo'shib kasb-hunar bildiruvchi mavhum ot yasaydi: **to'qimachilik, paxtachilik, chorvachilik, dehqonchilik, pichoqchilik, suvoqchilik.**

3. **-garchilik.** Bu qo'shimcha ham murakkab (gar-chilik) tarkiblardan tashkil topgan bo'lib, holat bildiruvchi mavhum ot yasaydi: **yog'ingarchilik, loygarchilik.**

4. **-ch (inch).** Fe'l negizlarga qo'shib, kishidagi ruhiy holat bildiruvchi mavhum ot yasaydi: **sevinch, ishonch, quvonch.**

5-sh(-ish), Fe'l negizlarga qo'shib harakat oti yasaydi: **yig'ilish, tug'ilish.** Sintaktik usul bilan qo'shma va juft otlar yasaladi. Ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan birikishi

asosida vujudga kelgan otlar qo'shma otlar deyiladi. Qo'shma otlar tarkibi quyidagi so'zlardan tashkil topadi.

1.Ot+ otdan: **belbog', qo'Iqop, muzqaymoq, toshko'mir, Sirdaryo.**

2.Sifat+ otdan: **oqqush, oqsoqol, qizilo'ngach, sassiqpopushak.**

3.Son+otdan: **to'rtburchak, uchburchak, To'rtko'l, Beshbuloq.**

4.Ot+ fe'ldan: o'rinbosar, beshiktervatar, muzyorar, kungaboqarkabi.

Qo'shma otlar quyidagicha yoziladi:

1 .Ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topib, bir ma'no ifodalaydigan, bir urg'u bilan aytiladigan. otlar qo'shilib yoziladi. **kungaboqar,**

oshqozon, belbog', gultojixo'roz, Jarqo'rg'on kabi.

2.Ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topib, alohida urg'u bilan aytiladigan tarkibli qo'shma otlar ajratib yoziladi: **xalq xo'jaligi, Markaziy Osiyo, Qarshi cho'li kabi. Ikki** so'zning o'zaro grammatik jihatdan teng bog'lanishidan hosil bo'lib, bir umumiy ma'no anglatuvchi otlar juft otlar deyiladi: **ota-ona, aka-uka kabi.** Juft otlar tarkibi quyidagicha so'zlardan tashkil topadi.

1. O'zaro ma'nodosh bo'lgan so'zlardan: **mehr-shafqat, kuch-qudrat, shon-sharaf, baxt-saodat.**

2. Bir-biriga yaqin ma'noli, aralash tipdagi so'zlardan: **ota-ona, aka-uka, qozon-tovoq, uy-ro'zg'or.**

3. Tarkibidagi birinchi so'z mustaqil ma'no bildiradigan, ikkinchiso'z ma'no bildirmaydigan so'zlarning birikishidan: **bozor-o'chor, don-dun, kiyim-kechak** kabi.

Takror otlar ham tuzilishi jihatidan juft otlarga mansub. Biroq ular yasama ot sirasiga kirmaydi. Chunki, takror otlar tarkibidagi ikkinchi so'z fonetik jihatdan o'zgargan holda qo'llanilsa-da, birinchi so'z ifodalagan ma'nodan boshqa ma'noni bildirmaydi. Zero, birinchi so'z ifodalagan ma'no takror otlardagi asosiy ma'no bo'lib qoladi: **non-pon, tosh-posh, kitob-mitob** kabi.

Qisqartma otlar. Nutqda qisqalikka erishish maqsadida bir qator tarkibli otlar qisqartirilib qo'llaniladi. Bunday otlar qisqartma otlar deyiladi. *Masalan, BMT, DAN, MHD kabi.* So'zlarni bu tipda qisqartirib qo'llash faqat ot turkumiga xos. So'z qisqarishi ham yasalishning bir turi bo'lib, unga abbreviatura usuli deyiladi. Qisqartma otlar quyidagicha shakllardan iborat bo'ladi:

1. So'zlarning bosh harflari olingan holda so'z qisqartiriladi. Bunday qisqartmalar bosh harflar bilan yoziladi. **GES, BAA** (Birlashgan Arab Amirli).

2. Birinchi soʻzning birinchi boʻgʻini, keyingi soʻzlarning boshharflari olingan holda soʻzlar qisqartiriladi; **OʻzR**, **OʻzRFA**, **OʻzMU** kabi.





Sifat soʻz turkumi. Sifatning maʼno turlari

Predmetlarning belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, oʻrin yoki vaqtga munosabati)ni ifodalaydigan soʻzlar turkumi **sifat** deyiladi. Sifatlar ot yoki feʼlga bogʻlanib *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?*, *qachongi?* soʻroqlaridan biriga javob boʻladi: *yashil qalam, mitti yulduz, kunbotar tomon, kuzgi tufli, afsonaviy qush, tajang odam, yaxshi oʻqimoq, chiroyli yozmoq*.

Sifatlar gapda *aniqlovchi*, *kesim*, *hol* boʻlib keladi: Uning *moviy* koʻzlari onasi- Safurani eslatib turardi (F.Azimova). Non *aziz*, uning ushogʻi ham *aziz* (Maqol). *Chaqmoq* telpagini qiyshiq qoʻndirib olgan (Oʻ.Hoshimov).

Sifatlar otlashganda koʻplik, egalik, kelishik qoʻshimchalarini qabul qiladi va otning soʻroqlariga javob boʻladi, ot kabi sintaktik vazifalarni bajaradi.

Masalan, *ega: Egri* ozadi, *toʻgʻri* oʻzadi (Maqol); *toʻldiruvchi: Vafosizda* hayo yoʻq, *hayosizda* vafo yoʻq (Maqol); *qaratqich aniqlovchi: Yaxshining* soʻzi-- qaymoq, *yomonning* soʻzi-- toʻqmoq (Maqol).

1. Saxiyning ehsoniga baxilning boshi ogʻrir (Maqol).
2. Axir inson bolasi baliq emaski, zoʻravoni ojizini yutib, hayot kechirsa! (Shuhrat)
3. Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi koʻrinishga urinadigan odam eng xavfli odamdur (Oʻ.Hoshimov).
4. Odamlar «bozor munosabati»ni baliqdan oʻrgangan. Kattasi kichigini yeyaveradi (Oʻ.Hoshimov).
5. Hech kimga hasad qilma. Hasadgoʻy hech nimaga erisholmaydi (Oʻ.Hoshimov).
6. Baxilning bogʻi koʻkarmas (Maqol).
7. Yalqov bilan anqov – dushman uchun ov (Maqol).
8. Aqlli oʻz fikrini oʻzgartiradi, axmoq hech qachon (maqol).
9. Aqlli oʻzini ayblar, aqlsiz - doʻstini (Maqol).
10. Baxil baxilni koʻrganda saxiyligi tutadi (Maqol).

Asliy va nisbiy sifatlar

Sifatlar maʼno xususiyatiga koʻra ikki xil boʻladi:

- a) asliy sifatlar;
- b) nisbiy sifatlar.

Predmet belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab koʻrsata oladigan, **-roq** qoʻshimchasini erkin qabul qiladigan sifatlar **asliy sifatlar** deyiladi: *shirin qovun - shirinroq qovun - eng shirin qovun; katta baliq - kattaroq baliq - juda katta baliq*.

Predmet belgisini o‘rin yoki paytga nisbatlab, boshqa predmetga o‘xshatish orqali ifodalaydigan, -roq qo‘shimchasini qabul qilmaydigan sifatlar **nisbiy sifatlar** deyiladi: Nisbiy sifatlar **–li, –iy (-viy), –simon, –lik, –gi** **(–ki, qi),** **–dagi** qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: *mevali daraxt, tibbiy ma’lumotnoma, zamonaviy libos, sharsimon jism, marg‘ilonlik savdogar, yozgi yumush, qishki kiyim, tashqi hovli, uydagi gap.*

Nisbiy sifatlar belgini darajalab ko‘rsatmaydi. Faqat **–li** qo‘shimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlarda darajalab ko‘rsatish xususiyati mavjud: *kuchli - kuchliroq - juda kuchli, aqlli - aqlli roq - juda aqlli.*

Asliy sifatlarda belgining kuchaytirma va ozaytirma shakllari bor: *yashil – yam-yashil, sariq - sap-sariq, qizil - qizg‘ish, qora-qoramtir.* Nisbiy sifatlarda bunday xususiyat yo‘q.

Asliy sifatlarda modal ma‘no ifodalanadi: *yoshgina, ziyrakkina, do‘mboqqina.* Nisbiy sifatlarda bunday xususiyat yo‘q. Faqat **–li** qo‘shimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlardagina modal ma‘nolarni ifodalash imkoniyati mavjud: *aqlligina, chiroyligina* kabi.

Asliy sifatlar fe‘lga bog‘lana oladi: *Qiyshiq o‘tirsang* ham, *to‘g‘ri gapir* (Maqol). Nisbiy sifatlar fe‘lga birika olmaydi. Faqat **–iy** bilan hosil qilingan nisbiy sifatlar juda kam miqdordagi fe‘llar bilan (masalan: zamonaviy kiyinmoq) birikishi mumkin.

Sifat darajalari

Bir predmetdagi belgini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatlab farqlash hodisasi **sifat darajalari** deyiladi.

Sifatlarda uch xil daraja mavjud: *oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.*

Oddiy daraja sifatlari bir predmetgagina xos belgini ifodalaydi. Ular belgini boshqa belgiga qiyoslamagan holda anglatadi. Oddiy daraja sifatlarida hech qanday qo‘shimcha yoki yordamchi so‘z bo‘lmaydi. Masalan, *katta hovli, chaqqon qiz, yashil durracha, qirmizi olma.*

Qiyosiy darajada bir predmetning belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanadi.

Qiyosiy daraja **–roq** qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi. Bu qo‘shimcha belgining ortiq yoki kamligini ko‘rsatadi.

Masalan: Belgining ortiqqligi: Alining kitobi Valining kitobidan *qiziqroq*. Oltin kumushdan og‘irroq. Belgining kamligi: Bu xona avvalgisidan ham *kichikroq*. **Orttirma daraja** shakli yordamchi so‘zlar vositasida hosil qilinadi va belgining me‘yordan ortiqqligini ifodalaydi. Orttirma daraja ma‘nosini ifodalovchi yordamchi so‘zlarga

quyidagilar kiradi: *eng, juda, g'oyat, g'oyatda, bag'oyat, o'ta, benihoyat, nihoyat, nihoyatda* kabilar.

Sifatlarning yasalihi.

Sifatlar *morfologik* va *sintaktik* usulda yasaladi. **Morfologik usulda** so'z o'zak, negiziga maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali sifat yasaladi. O'zbek tilida sifatlar quyidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi:

--**li**. Ot, sifatdosh va ravishdoshlarga qo'shib, nisbiy sifat hosil qiladi: *aqlli* bola, *qiziqarli* kitob, *yeyishli* somsa.

--**siz**. Otlarga qo'shiladi va undan anglashilgan ma'noning mavjud emasligini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *tuzsiz* taom, *suvsiz* quduq.

--**chan**. Ot, harakat nomi va ravishdoshlarga qo'shib, negiz anglatgan ma'noning ortiqligini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *talabchan* rahbar, *ishchan* kayfiyat.

--**chil**. Otlarga qo'shib, belgining ortiqligini anglatuvchi sifatlar hosil qiladi: *izchil* g'oya, *dardchil* odam.

--**aki**. Ot va sifatlarga qo'shiladi hamda belgining soxtaligini ifodalaydi: *zo'rma-zo'raki* bajarish, *og'zaki* bayon qilish, *qalbaki* hujjat.

--**ag'on**. Fe'lga qo'shib, belgining ortiqligini ifodalaydigan sifatlar yasaydi: *bilag'on* bola, *tepag'on* ot.

--**ma**. Fe'lga qo'shib, harakat natijasini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *qovurma* lag'mon, *uydirma* gap.

--**k, -q, -ik, -uk, -uq, -oq, -ak**. Fe'lga qo'shib, harakat natijasini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *teshik, iliq, suzuk, yumuq, qo'rqoq, bo'lak*.

--**qoq, -g'oq**. Fe'lga qo'shib, belgining ortiqligini ifodalaydi: *botqoq, toyg'oq*.

--**choq, -chak, -chiq**. Fe'lga qo'shib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *maqtanchiq, kuyunchak, sirpanchiq*.

--**g'in, -g'un, -qin**. Fe'lga qo'shib, holat ma'nosini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *qizg'in, tuyg'un, jo'shqin*.

--**qir, -qur, -g'ir, -g'ur, -kir, -gir**. Fe'lga qo'shib belgining ortiqligini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *topqir, uchqur, olg'ir, bo'lmag'ur, o'tkir, sezgir*.

--**dek, -day**. Otga qo'shib, o'xshatish ma'nosini ifodalovchi sifat yasaydi: *kundek, oyday, tog'day*.

--**mand**.

Otga qo'shib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifat yasaydi:

davlatmand, ixlosmand.

--**simon**. Otga qo'shib, o'xshashlik ma'nosini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *tuxumsimon, odamsimon, sharsimon*.

Sifatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, o'zakdan oldin kelib, yangi ma'noli sifat hosil qiladigan qo'shimchalarga egaligidir. Ular quyidagilar:

ser-,be-,ba-,no-. ser-. Otga qo'shib, ortiqlik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *serunum, serfarzand*.

be-. Otga qo'shib, mavjud emaslik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: ***bexabar, besabr***.

ba-. Otga qo'shib, belgining ortiqligini ifodalovchi sifat yasaydi: *badavlat, basavlat*.

no-. Otga yoki sifatga qo'shib, negiz anglatgan belgiga ega emaslik ma'nosini ifodalovchi sifatlar hosil qiladi: *noinsof, notinch*.

Sintaktik usul bilan qo'shma, murakkab va juft sifatlar yasaladi. **Qo'shma sifatlar** birdan ortiq so'z yoki so'z shakllaridan tarkib topib, bir urg'u bilan aytiladi va bir belgini ifodalaydi. Qo'shma sifat qismlari yozuvda qo'shib yoziladi: *orombaxsh, rahmdil, tinchliksevar, tezoqar, ertapishar*.

Murakkab sifatlar bitta murakkab belgini ifodalaydigan, alohida urg'u bilan aytiladigan, birdan ortiq so'z yoki so'z shakllarining birikuvidan hosil bo'ladi. Murakkab sifat qismlari ajratib yoziladi: *qo'li ochiq, ko'zga yaqin, so'zga chechan*.

Ayrim murakkab sifat qismlari orasidagi munosabat o'ta zich bo'lmaganligi uchun, ularning o'rnini almashtirib qo'llash mumkin bo'ladi: *oq ko'ngil- ko'ngli oq, sochi uzun-uzun sochli, ko'ngli tor-tor ko'ngilli*.

Juft sifatlar bir umumiy belgi ifodalovchi ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: *ochiq-sochiq, qing'ir-qiyshiq, uzun-qisqa, yaxshi – yomon, kattayu kichik, sog'u salomat*.

Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari:

Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, murakkab, juft va takror holda qo'llanuvchi shakllarga ega.

Sodda sifatlar bir o'zak morfemadan tuzilgan bo'ladi: *go'zal, xunuk, sariq, yashil*. **Qo'shma sifatlar** bir urg'u bilan aytiladigan ikki so'z shaklining qo'shilishidan hosil bo'ladi: *ertapishar, sheryurak*.

Murakkab sifatlar alohida urg'u bilan aytiladigan, bitta murakkab belgini ifodalovchi ikki so'zning birikishidan hosil bo'ladi: *to'q qizil, o'tkir zehnli*.

Juft va takror sifatlar bir umumiy belgi ifodalovchi ikki sifatning teng bogʻlanishidan hosil boʻladi: *oq-qora, uzuq-yuluq, kattayu kichik, pastu baland; uzun-uzun, ogʻir-ogʻir, chuqur-chuqur.*

Sifatni tahlil qilish tartibi

1. Maʼno turi.
2. Darajasi: oddiy, qiyosiy, orttirma.
3. Tuzilishiga koʻra turi: sodda, qoʻshma, murakkab, juft, takror.
4. Yasama sifatning yasaliş usuli.
5. Qaysi soʻz bilan bogʻlanishi.
6. Gapdagi vazifasi.



Son soʻz turkumi. Sonning maʼno turlari

• *Predmetning miqdorini, sanogʻini, joylashish tartibini, baʼzan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil soʻz turkumi son deyiladi. Son necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi soʻroqlardan biriga javob beradi.*

• *Son otga bogʻlanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, baʼzan feʼlga bogʻlanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: toʻrtta daftar, ikki oy oʻqidi, birinchi keldi kabi.*

Sonlar koʻpincha raqamlar bilan yoziladi:

Sonlar koʻpincha raqamlar bilan yoziladi

1) arab raqamlari bilan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.

2) rim raqamlari bilan: **birliklar:** I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); **oʻnliklar:** X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90); **yuzliklar:** C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900); **mingliklar:** M (1000), MM (2000), MMM (3000)

Badiiy asarlarda sonlar soʻz bilan yoziladi: Toʻrt yil kutdi

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan **23** ta sodda son boʻlib, boshqa sonlar shularning qoʻshilishidan hosil boʻladi: *nol, bir, ikki, uch, toʻrt, besh, olti, yetti, sakkiz, toʻqqiz, oʻn, yigirma, oʻttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, toʻqson, yuz, ming, million, milliard*

Eski yozuv tilida *tuman (oʻn ming), lak (yuz ming)* kabi sonlar boʻlgan. Tarixiy asarlarda mana shu sonlar uchraydi

Sonning maʼno turlari

Son maʼno jihatdan va grammatik xususiyatlarga koʻra ikki guruhga boʻlinadi: **sanoq sonlar va tartib sonlar.**

Sanoq son maʼno xususiyatlariga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi

- 1) *miqdor son*;
- 2) *dona son*;
- 3) *chama son*;
- 4) *jamlovchi son*;
- 5) *taqsim son*.

Son tahlili namunasi

1. So`rog`i
2. Butun yoki kasrligi
3. Ma`no turi
4. Hisob so`zi bor-Yo`qligi
5. Otlashgan Yoki otlashmaganligi
6. Tuzilish tur
7. Gapdagi sintaktik vazifasi

Bir sonining o`ziga xos grammatik xususiyatlari

1. Ilgari tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelib, **gumon noaniqlik** ma`nosini ifodalaydi: Maqsud aka Oybek ikkovimizga kula-kula bir voqeani aytib bergan edi.

2. Bir soni fe`l, ot, sifat, ravish oldida kelib, kuchaytiruv ravishi (juda, g`oyat) va kuchaytiruv yuklamasi (hatto) kabi ma`noni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi (S.Ahmad)*

3. Bir soni sifatlovchi-sifatlanmish orasida kelganda ham ma`noni kuchaytiradi: *Gulnor uchun **ulug` bir baxt** shu uchrashuv bo`ldi (A.Q.)*
*Juvon **asabiy bir harakat** bilan ro`molini olib o`radi (A.Q.).*

4. **Ayiruv chegaralov yuklamalari** (-gina, faqat) vazifasini bajarib, ayirish, chegaralash kabi ma`nolarni ifodalaydi: *Kamtarlik ham bir xislat («Tafakkur gulshani»).* Mening ishonchim bir sensan. Bunda bir so`zi – gina, faqat vazifasini bajargan.

5. **Bog`lovchi vazifasida kelib**, uyushiq gap bo`laklarini Yoki qo`shma gap qismlarini bog`lashga xizmat qiladi: *Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning (Maqol).*

6. Bir soni o`zi bog`lanib kelgan so`z bilan **«hech kim»**, **«hech qanday»** olmoshlar ma`nosida keladi: *Kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.*

7. **Kesim vazifasini bajarib kelganda**, birdamlik, o`xshashlik, umumiylik ma`nosini ifodalaydi: *Kemaga tushganning joni bir (Maqol).*
Odamning tili bilan dili bir bo`lsin.

Sonlarning otlashishi.

Son bog`lanib kelgan ot qo`llanmaganda, otga qo`shilib kelgan so`z o`zgartiruvchi affikslar, ya`ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi

ko`plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o`zqarqan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, to`ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: Birov tosh, birov gul, o`z joyida ikkovi ham yaxshi (Shukrullo). Bilagi zo`r birni yiqar, bilimi zo`r mingni. (Amir Temur o`gitlari). O`nning yarmi besh.

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (Maqol, matal, aforizmlarda ko`p uchraydi) Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o`zgarmaydi (chama son – tacha, -lab, -lar kasr songa qo`shilmaydi).



Olmoshning xususiyatlari va turlari

OLMOSH — ot, sifat, son o`rnida qo`llanuvchi mustaqil so`z turkumi. Olmosh larning asosiy ma`nosi va qaysi so`z turkumi o`rnida qo`llanishi matnda oydinlashadi. Olmosh larning ma`nosi noaniq va umumiy bo`ladi. Ma`no va grammatik xususiyatlariga ko`ra, Olmosh umumlashgan predmet (O. – ot: men, sen, u, kim, nima, hech kim, hech nima), umumlashgan belgi (O. – sifat: bu, shu, o`sha, qaysi, allaqanday, hech qanday), umumlashgan miqdor (O. – son: qancha, necha, shuncha, o`shancha) bildi-ruvchi Olmosh larga bo`linadi. Olmoshlar noaniqligi, so`z yasaliishining yo`qligi bilan boshqa so`z turkumlaridan farklanadi. Olmoshlar ma`no va grammatik xususiyatlariga ko`ra, quyidagi turlarga bo`li-nadi: kishilik Olmosh lari — men, sen, u, biz, ular bo`lib, shaxslar o`rnida ishlatiladi, o`zlik Olmosh — o`z so`zidan iborat bo`lib, predmet ma`nosini kuchaytirib, ta`kidlab ko`rsatadi; ko`rsatish Olmosh — bu, shu, o`sha, u, ana, mana kabilar predmet va uning belgilarini ko`rsatadi; so`roq O. — kim? nima? qancha? qanday kabilar predmet, belgi va miqdor haqida so`roqni bil-diradi; belgilash-jamlash Olmosh — hamma, bari, ba`zan, har nima, har qanday kabilar predmet va uning belgisini umumlashtirib, jamlab ko`rsatadi; bo`lishsizlik Olmosh — hech kim, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi kabilar inkor ma`nosini bildiradi; gumon Olmosh — allakim, allanima, nimadir, kimdir kabilar predmet va uning belgisi, miqdorini taxminiy bildiradi

Olmosh turlari

Olmosh ma`no va grammatik xususiyatlariga ko`ra yetti turga bo`linadi:

1. *Kishilik olmoshlari*: men, sen, u, biz, siz, ular. Kishilik olmoshlari egalik affiksini olmaydi. Ba'zan III shaxs kishilik olmoshi otlashib, egalik affiksini olishi mumkin: *Unisi 10 ga kirdi*.

2. *O'zlik olmoshi*: o'zlik olmoshi egalik affiksini olib, har uchala shaxs kishilik olmoshini ko'rsata oladi. O'zlik olmoshi kelishiklar bilan turlanishi uchun avval egalik affiksini qabul qiladi: O'zimning o'zingni, o'zining. O'zlik olmoshi aniqllovchi, kesim, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

3. *Ko'rsatish olmoshlari*: bu, shu, o'sha, mana shu, mana bu, ana shu, ushbu, ana u. Ko'rsatish olmoshlari shaxs, narsa buyum yoki ularning belgisini ko'rsatish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Ko'rsatish olmoshi asosan, aniqllovchi, kesim vazifasida keladi.

4. *So'roq olmoshlari*: kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, qachon?, qaysi?, qancha?, necha?, qaer?, nega?, qalay?. So'roq olmoshlari shaxsga (kim?), narsa buyumga (nima?), belgiga (qanday?, qanaqa?, qaysi?), miqdorga (necha?, qancha?), vaqtga (qachon?), maqsad va sababga (nega?, nimaga?), o'ringa (qani?) munosabat bildiradi.

Badiiy asarlarda *nechuk, ne, na* so'roq olmoshlari ishlatiladi.

So'roq olmoshlari kelishik, egalik affikslari bilan turlana oladi.

5. *Belgilash-jamlash olmoshlari*: har kim, har, har nima, har qanday, har qaysi, har bir; hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi. Belgilash olmoshlari gapda ega, to'ldiruvchi, aniqllovchi va hol bo'lib keladi.

6. *Bo'lishsizlik olmoshlari*: hech kim, hech qanday, hech nima, hech qaysi. Bu olmoshlar ot, sifat, son kabi so'z turkumlari anglatgan ma'no haqidagi inkorni bildiradi. Ma'no jihatdan belgilash olmoshlariga zid. Bo'lishsizlik olmoshi ot vazifasida keladi.

7. *Gumon olmoshlari*: allakim, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir, allanima, allaqachon, allaqanaqa. Gumon olmoshlari predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiy va taxminli ishora qiladi. Gumon olmoshlari ot, sifat xarakterida bo'ladi.

Belgilash, bo'lishsizlik, gumon olmoshlari sodda yoki qo'shma holda bo'ladi.

 **Fe'l so'z turkumi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar**

Fe'l — harakat bildiruvchi so'zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so'z. Grammatikada "harakat" so'zi keng tushunchali bo'lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, mas: yugurmoq,

sakramoq, yig‘lamoq, uxlamoq, o‘ylamoq, sevmοq, tinchimoq, qurimoq, ko‘paymoq va boshqa

Fe‘llar lug‘aviy ma’noga ega yoki ega emasligiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi: mustaqil Fe‘llar, yordamchi Fe‘llar. Mustaqil Fe‘llar, xuddi boshqa mustaqil so‘z turkumlariga oid so‘zlar kabi, lug‘aviy ma’noga ega bo‘ladi, gapning mustaqil bo‘lagi vazifasida kela oladi va h.k. (qarang So‘z turkumlari). Yordamchi Fe‘llar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmaydi. Ular turli yordamchi vazifalarda kelib, turli qo‘shimcha ma’nolar ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi Fe‘llar o‘z vazifasiga ko‘ra 3 asosiy turga bo‘linadi: 1) fe‘l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi Fe‘llar: qil, et, ayla, bo‘l (qabul qilmoq, taklif etmoq, tamom bo‘lmoq kabi); 2) Fe‘lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi Fe‘llar (bular, odatda, "ko‘makchi Fe‘llar" deb yuritiladi). Fe‘lning bunday shakllari turli grammatik, modal va boshqa ma’nolarni ifodalaydi: o‘qib bo‘ldi, ko‘rib qoldi, qo‘rqib ketdi va boshqa; 3) bog‘lama vazifasini bajaruvchi yordamchi Fe‘llar. Masalan, qil, bo‘l: sportchi bo‘lmoq, o‘qituvchi bo‘lmoq.

Hozirgi o‘zbek tilida yordamchi Fe‘llardan farklanuvchi "to‘liqsiz Fe‘l" (lug‘aviy ma’nosini tamomila yo‘qotgan, hozirgi o‘zbek tilida ma’lum bir grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanuvchi Fe‘l)ning edi, ekan, emish, esa shakllari ham qo‘llanadi.

Fe‘ldan anglashilgan harakatning tushum kelishigi formasidagi ot bilan (yoki otlashgan so‘z bilan) ifodalangan predmetga o‘tganligini bildiradigan fe‘llar o‘timli fe‘l deyiladi, masalan: so‘radi (qiyoslang: kitobni so‘radi, onasini so‘radi); uxlatdi (qiyoslang: bolasini uxlatdi.).

Biron predmetga bevosita o‘tmaydigan harakatni anglatadigan fe‘llar o‘timsiz fe‘l sanaladi. Masalan: Otlar jon-jahdi bilan yugura ketdi

O‘timli fe‘l ba‘zan chiqi shva jo‘nalish kelishigi formasida qo‘llagan otlar bilan bog‘lanib keladi, qiyoslang: oling (nonni oling, nondan oling); minmoq otni minmoq, otga minmoq).

Fe‘dagi o‘timli – o‘timsizlik 2 usul bilan ifodalanadi:

1. leksik-semantik;
2. morfologik (affiksasiya) usullari.

Birinchi usulda fe‘llar hech qanday shakl o‘zgarishsiz (o‘zak- negiz holatida) o‘z leksik ma’nosiga ko‘ra yo o‘timli (m: och, ich, qo‘y, so‘ramoq, bo‘yadi kabi), yo o‘timsiz (m: uxla, semirmoq, og‘ridi kabi) sanaladi.

Ikkinchi usulga ko‘ra fe‘l o‘zak-negiziga qo‘shilgan ayrim qo‘shimchalar (o‘zlik majhullik. Orttirma nisbat qo‘shimchalari) fe‘lning

o'timli yoki o'timsiz ekanini belgilab beradi. Qiyoslang: yur – o'timsiz fe'l, yurgiz– o'timli fe'l (uning tarkibida orttirma nisbat qo'shimchasi -giz qo'llangan); aksincha, yech – o'timli fe'l, ammo undan hosil qilingan yechin, yechildi kabilar o'timsiz fe'llar bo'lib, fe'l tarkibidagi –in (o'zlik nisbati qo'shimchasi) –il (majhullik nisbati qo'shimchasi) o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantirgan.

Agar bir fe'l o'zak-negizga ikki va undan ortiq nisbat ketma-ket qo'shilgan bo'lsa, bunday fe'ning o'timli yoki o'timsizligi eng keyin qo'shilgan nisbat qo'shimchasi orqali belgilanadi, masalan: yech – o'timli, yechin – o'timsiz, yechintir – o'timli, yechintirildi - o'timsiz fe'l.

O'timli va o'timsiz fe'llarni shakllantiruvchi qo'shimchalar qatoriga kiritiladi.

Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkor tushunchasi fe'ldagi bo'lishli va bo'lishsizlik ma'nosini anglatadi. Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiqni anglatuvchi fe'llar bo'lishli fe'l deyiladi. Fe'ldagi bo'lishlilik ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkich yo`q: o`qi, eslat, qolgan, borsa, aytib bergan, o`qib chiqdi, hurmat qil kabi. Masalan: *Ona so`zining o`zi har yurakka jarangli sado beradi (Hikmatlar guldastasi). O`z burchini bajarishdan mamnun odamligina erkin yashaydi (Tafakkur gulshani).* Ish-harakatning bajarilishi haqidagi inkorni anglatuvchi fe'llar bo'lishsiz fe'l deyiladi. Bo'lishli fe'l bo'lishsiz fe'lni hosil qilish uchun asos bo'ladi. Fe'ning bo'lishsiz shakli quyidagicha yasaladi:

1. Fe'l negiziga –ma (bu affiks urg`u olmaydi), -may, -mas, -masdan, -maslik affikslarini qo'shish: ko`rmadi, kelmagach, bajarmadi, yoqmas, avaylamasdan, o`smaslik kabi.

Ko`rinadiki –ma elementi –may, -mas, -masdan, maslik affikslarining tarkibida uchraydi. Bu affikslar sof fe'lga va fe'l shakllariga (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) qo'shilib inkor ma'nosini ifodalashda asosiy morfologik ko'rsatkich sanaladi. Masalan: *G`ulomjon darpardasi yonidan qalin qorni g`irchillatib o`tgan dupurni ham eshitmadi. (M.Ismoiliy). Tog` arqon bilan eshilmaydi (M.Qoshg`ariy). Mehnat qilmagan rohat ko`rmas (O`zbek xalq maqoli). Uydagilarga aytmasdan do`sti bilan Quadratnikiga ketibdi. Kasal tabib kasalni davolay olmas (Abu Ali ibn Sino). Bu voqeani ko`rmaslik uchun bolalar ko`zlarini chirt yumdilar.*

-ma, -may affikslari qo'shma fe'llarga quyidagicha qo'shiladi:
a) asosiy qismga yetakchi fe'lga qo'shiladi: *eshitmay qoldi, uxlamay chiqdi, ko'rmay qoldi* kabi;
b) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *sotib olmadi, javob bermadi, o'qib chiqmadi* kabi;
d) qo'shma fe'lning har ikala qismiga qo'shiladi: *aytmay qo'ymaydi, bormay qolmaydi*. Bunday holda bo'lishsiz shakl orqali bo'lishlilik ma'nosi anglashiladi, ya'ni *aytadi, boradi* kabi.

Masalan: *Buvijonimning aytishicha, astoydil yaxshi niyat qilgan odam murodi maqsadiga etmasdan qolmas ekan* (X.To'xtaboev).

Eslatma: ravishdoshning -gani (-kani, -qani) affikslari bilan yasalgan shakliga bo'lishsizlik ifodalovchi affikslar qo'shilmaydi.

2. Fe'lning ayrim sifatosh, ravishdosh, harakat nomi shakllaridan so'ng emas, yo'q so'zlarini kiritish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinadi: *hayratlangan emas, boradigan emas, egib emas, tinchigani yo'q, ishonish emas* kabi. Masalan: *Lekin ularning nima o'qiganini ko'rgan ham, qanday o'qiganini eshitgan ham emas* (P.Tursun).

3. **Na** inkor yuklamasini uyushiq bo'lak sifatida qo'llangan bo'lishi fe'ldan oldin keltirish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinadi. Masalan: *Keksa cholning kesatiq gapidan u dong qotib qoldi: na o'tirdi, na ketdi* (A.Qodiriy).

4. Ba'zan ohang va fe'lga yuklamani (-mi, -a, -ya) qo'shish hamda fe'lni takrorlash orqali bo'lishsizlik ma'nosi ifodalanadi: *oladi-ya oladi (olmaydi); aytasan-a, aytasan (aytmaysan)*.

Masalan: *Bolasi tushmagur-ey, chumchuqning uyasini buzib rohat toparmidi?* (G'ayratiy). «Katta bo'lsam, akamga o'xshab, albatta komandir bo'laman», - dedi Sobir. *Bo'lasan-a, bo'lasan. Komandir bo'lishga yurak kerak...* (H.Nazir).



Fe'llardagi nisbat kategoriyasi

Fe'l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) yoki bir necha bajaruvchi (sub'ektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo'ladi. Ma'lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: *Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi* (P.Qodirov).

Boshqa bir shaklda harakatning sub'ekti (ega) ham, ob'ekti ham bir shaxsning (predmetning) o'zi bo'ladi. Masalan: *Feruzaga hovliga tushib, shabnamda qiyg'os ochilgan atirgullar ustiga egildi. (H.G'ulom).*

Yana bir ko'rinishda harakatning bajaruvchisi sub'ekt emas, ob'ekt sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. Masalan: *Tashqarida so'riga gilam to'shaldi, ko'rpacha solindi. Dasturxon yoyildi, choy damlandi (Tog'ay Murod).*

Shuningdek, harakat bir necha sub'ekt tomonidan birgalikda bajarilishi mumkin. Masalan: *Ichkaridan birin-ketin bolalar chiqib kelishdi (Tog'ay Murod).*

Yana bir nisbat shaklida esa harakat grammatik sub'ekt (ega)ning boshqa bir sub'ekt va ob'ekt ta'siri bilan bajariladi. Masalan: *Mo'minning ovozidan qat'iyat, buyruq Laylini bo'shashtirdi (S.Z.).*

Shunga ko'ra fe'llarda besh xil nisbat ko'rinishi mavjud:

1. Aniq nisbat.
2. O'zlik nisbat.
3. Majhullik nisbati.
4. Birgalik nisbati.
5. Orttirma nisbat.

Fe'l nisbati maxsus shakl yasovchi qo'shimchalar yordami bilan yasaladi. Bu qo'shimchalar fe'ling leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, balki unga qo'shimcha ma'no qo'shadi. Ya'ni bu qo'shimchalar harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) ni ko'rsatib, gap qurilishining qanday bo'lishini bildirib turadi. Masalan: yozdi – sub'ekt (ega)ning o'zi bajaradigan harakat, yozildi – predmet (ob'ekt) tomonidan bajarilib, sub'ekti noma'lum harakat, yozishdi – bir necha sub'ektlar bajaradigan harakat, yozdirdi – sub'ektning ob'ektga ta'siri bilan bajariladigan harakat.

Aniq nisbat

Bu shakldagi fe'lda harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs yoki predmet bo'ladi. To'ldiruvchi esa harakatning ob'ekti bo'ladi. Gapning bunday qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruktsiya (faol qurilma) deb yuritiladi. Masalan: *Navoiy shiringina yasog'liq uyda tanho ishlar edi (O.).* Ushbu gapda ishlar edi harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) Navoiy bo'lib, u ega orqali ifodalangan. Harakatning ob'ekti esa uyda vositali to'ldiruvchi orqali ifodalangan.

Bunday shaklida maxsus nisbat ko'rsatkichi yo'q. Bu nisbat ma'nosi fe'l negizi orqali ifodalanadi, shuning uchun ham u boshqa nisbat

shakllarini hosil qilishi uchun asos bo`la oladi (qiyoslang: o`qidi, o`qildi, o`qishdi, o`qitdi kabi).

O`zlik nisbat

Bu nisbatdagi fe`lda harakatning sub`ekti bilan ob`ekti bir shaxsning o`zi bo`ladi. Masalan: *Men har tong Toshkentning go`zilligi, fayzi bilan zavqlanaman (U.Mahkamov)* gapida zavqlanaman fe`li tarkibida kelgan – lan qo`shimchasi harakatning sub`ekti bilan ob`ekti men shaxsi ekanligini ko`rsatib turibdi.

O`zlik nisbati quyidagi affikslar bilan yasaladi:

a) fe`l negiziga unlidan so`ng –n, undoshdan so`ng –in qo`shish bilan: maqta-n, o`ra-n, yuv-in, kiy-in kabi;

b) fe`l negiziga unlidan so`ng –l, undoshdan so`ng –il qo`shish bilan: surka-l, shosh-il kabi;

v) –lan (-la+-n dan tuzilgan qo`shma affiks) affiksini qo`shish bilan: zavq-lan, tinch-lan, shod-lan kabi;

g) –ish qo`shimchasini qo`shish bilan: ker-ish kabi.

Barcha fe`l negizlaridan (o`timli, ba`zi bir o`timsiz) o`zlik nisbati yasalmaydi: so`ra, bor, yugur kabi. Ba`zi fe`l negizlarining, aksincha, aniq nisbati yo`q: quvon, seskan kabi.

Majhullik nisbati

Bu shakldagi fe`lda harakat bajaruvchisi sub`ekt (ega) emas, ob`ekt (to`ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma`lum bo`ladi.

Masalan: *Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi (H.G`.)* gapida olib kirildi harakatining bajaruvchi sub`ekti noma`lum, ot-aravalar so`zi ega vazifasida kelsa-da, ob`ekt vazifasini bajargan.

Kesimi majhullik nisbatidagi fe`l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda passiv konstruktsiya deb yuritiladi.

Majhullik nisbati quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi:

a) fe`l negiziga unlidan so`ng –l, undoshdan so`ng –il affiksini qo`shish bilan: yasa-l(-di), ata-l(-di), yut-il(-di), sot-il(-di) kabi;

b) fe`l negiziga unlidan so`ng –n, undoshdan so`ng –in affiksini qo`shish bilan: bastala-n(-di), ol-in(-di) kabi.

Majhullik nisbatdagi fe`lni hosil qilishda –l (-il) affiksi ko`proq qo`llaniladi. Ba`zan ayni bir fe`l negizidan –l (-il), –n (-in) affikslari bilan ham o`zlik, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe`l negizining o`zlik yoki majhullik nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: Zulfiya darsga tayyorlandi. Operatsiyaga meditsina uskunalari tayyorlandi.

Birgalik nisbat

Bu nisbatdagi fe'lda ish-harakat bir necha sub'ekt tomonidan birgalikda bajariladi.

Masalan: Ayollar chaqaloqqa ko'z tegmasligi uchun qilinadigan irim-sirimlarini bitirishgach, bolani beshikka belashdi (O'.Hoshimov) gapida bitirishgach, belashdi fe'llari anglatgan harakatning bir necha sub'ekt, ya'ni ayollar tomonidan birgalikda bajarilganini anglatadi.

Birgalik nisbatdagi fe'l quyidagicha yasaladi:

a) fe'l negiziga unlidan so'ng –sh, undoshdan so'ng –ish affiksini qo'shish bilan: sana-sh(di), yugur-ish(di) kabi;

b) so'z o'zagiga –lash (-la+-sh qo'shma affiksi) affiksini qo'shish bilan: yordam-lash(di), bahs-lash(di) kabi.

Orttirma nisbat

Bu nisbat shaklida harakat grammatik sub'ekt (ega)ning boshqa bir sub'ekt yoki ob'ektga ta'siri, tazyiqi bilan bajariladi.

Masalan: *Biz Hamid Olimjon bilan bunday oydin, musaffo kechalarni ko'p o'tkazganmiz (G'.G'.)* gapida ikkita sub'ekt mavjud bo'lib, asosiy sub'ekt vositali to'ldiruvchi (Hamid Olimjon bilan), ikkinchi darajali sub'ekt esa ega (Biz) vazifasida qo'llangan bo'lib, o'tkazganmiz harakati sub'ektning sub'ektga ta'siri natijasida bajarilgan.

SHuningdek, orttirma nisbatdagi fe'lda faqat bir sub'ekt mavjud bo'ladi. Bunday holda harakat ob'ektga (to'ldiruvchiga) o'tadi. Masalan: *U kitob keltirdi* kabi.

Orttirma nisbat fe'l negiziga quyidagi affikslarni qo'shish bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga –t affiksini qo'shish bilan: qisqart, boyit kabi;

b) fe'l negiziga –tir (-dir) affikslarini qo'shish bilan: keltir, chaqirtir, kuldir, buzdir kabi;

v) sh, ch, t, undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga –ir affiksini qo'shish bilan: shoshir, ichir, botir kabi;

g) oxiri undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'l negizlariga –ar affiksini qo'shish bilan: chiqar, qaytar kabi;

d) oxiri undosh bilan tugagan fe'l negizlariga -g'iz, -giz, -qaz, -g'az, -kaz, -qiz, -kiz affikslarini qo'shish bilan: turg'iz, egiz, o'tkaz, qutqaz, yutqiz, etkiz kabi;

e) oxiri m, q undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga –iz affiksini qo'shish bilan: tomiz, oqiz, boqiz kabi;

f) fe'l negiziga –sat (-sa+-t qo'shma affiksi) affiksini qo'shish bilan: ko'rsat (faqat ko'r fe'l negiziga qo'shiladi) kabi.

Fe'ning vazifadosh shakllari: sof fe'l, ravishdosh

Fe'ning gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini bajarishga mos bo'lgan shakli uning funktsional¹ formasi deyiladi. Fe'ning funktsional formalari gapda kesim, hol, aniqllovchi, ega va to'ldiruvchi vazifalarida keladi.

O'zbek tilida fe'ning funktsional formalariga

- 1) sof fe'l,
- 2) ravishdosh,
- 3) sifatdosh, 4) harakat nomi kiradi.

Sof fe'l. Fe'ning tushilgan formada qo'llanib, kesim vazifasini bajarishga mos fe'l shakliga sof fe'l deyiladi. Sof fe'l har uch zamon shaklida qo'llangan aniqlik, buyruq-istak, shart mayli formasidagi fe'llarni o'z ichiga oladi. Masalan: To'g'ri so'z odam butun hayoti davomida mehr, sadoqat nurlarini tarqatadi (U.Mahkamov). Kimki oz bilsa, ozga o'rgatadi.

(Tafakkur gulshani). Aqlni beaqlardan o'rgan (Maqol). Ravishdosh. Harakatning belgisini (harakat tarzidagi belgi) anglatadigan, gapda ko'pincha hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli ravishdosh shakli deyiladi. Masalan: Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar (Pedagogika tarixi). CHoyga fотиha o'qilgach, hamma o'rnidan turdi (S.Ahmad). Bu misollarning birinchisida borib ravishdoshi hol vazifasini, ikkinchi misoldagi o'qilgach ravishdoshi ergash gapning kesimi vazifasini bajargan.

Ravishdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l o'zak-negiziga unlidan so'ng -b, undoshdan so'ng -ib affiksini qo'shish bilan: o'qib, borib;

2) fe'l o'zak-negiziga unlidan so'ng -y, undashdan so'ng -a affiksini qo'shish bilan: o'qiy-o'qiy, bora-bora.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda, asosan, takroriy holda qo'llanadi;

-b (-ib), -a, -y affikslari bilan yasalgan ravishdosh qo'shma fe'l (sof fe'l) tarkibida etakchi qism vazifasida ham keladi: yoza boshladi, o'qib chiqdi kabi.

3) -gani (-kani, -qani) affikslari bilan: o'qigani, aytgani kabi;

4) -gach (-kach, -qach) affikslari bilan: o'qigach, borgach kabi;

5) -guncha (-kuncha, -quncha) affikslari bilan: o'qiguncha, borguncha kabi.

Fe'l o'zak-negizi k yoki g undoshi bilan tugasa, -kani, -kach, -kuncha tarzida, q yoki g undoshi bilan tugasa, -qani, -qach, -quncha tarzida

qo`shiladi: ekkani, ekkach, ekkani, ekkuncha; chiqqani, chiqqach, chiqquncha kabi.

Fe'ning ravishdosh shakli fe'l singari harakat tushunchasini anglatib, fe'lga xos quyidagi morfologik belgilarga ega, ya'ni:

a) o`timli-o`timsizlik ma'nosini ifodalaydi: eslab - o`timli, kulib - o`timsiz ravishdosh;

b) bo`lishli-bo`lishsizlik ma'nosiga ega: ko`rib – bo`lishli, ko`rmasdan – bo`lishsiz ravishdosh; kelguncha – bo`lishli, kelmaguncha – bo`lishsiz ravishdosh; o`tgach – bo`lishli, o`tmagach – bo`lishsiz ravishdosh.

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdoshning bo`lishsizlik shakli yo`q (-ma bo`lishsizlik qo`shimchasini olmaydi).

v) nisbat ma'nosini anglatadi: yasab - aniq nisbat, yasanib - o`zlik nisbat, yasalib - majhullik nisbati, yasashib – birgalik nisbat, yasatib – orttirma nisbat;

g) ravishdoshlar tuslovchi qo`shimchalarni olish-olmaslik xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: tuslanadigan ravishdoshlar va tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga fe'l negiziga –b (-ib), -a, -y affikslarni qo`shish bilan shakllangan ravishdoshlar kiradi.

Bu guruhdagi ravishdoshlar tuslangan holda sof fe'lga aylanadi. Masalan: Kechaning tili qorasida yulduzlar yorqin yonadi (O).

Oyoq ostimizda munchoq - munchoq oq, sariq gular sochilib yotibdi (B.Jahongirov).

Tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda ham qo`llana oladi. Masalan: *Vohid ho`l sochlarini taray-taray boqqa sho`ng`idi (O.YOqubov). Mashina silkinib oldinga intildi (S.Ahmad).*

Ravishdoshlarning –gach (-kach, -qach), -gani (-kani, -qani), guncha (-kuncha, -quncha) affikslari yordamida hosil qilingan shakllari tuslanmaydigan ravishdoshlar sanaladi: etgach, ekkach, chiqqach; etgani, ekkani, chiqqani; etguncha, ekkuncha, chiqquncha kabi. Masalan: *Sultonali tong otguncha ikki go`dakning qo`ynini puch yong`oqqa to`ldirib chiqqan (A.Qodiriy). Uzun, qorong`i yo`lakka chiqqach, Unsin to`xtadi (O). Siz bilan maslahatlashgani keldim (B.Rahmonov).*

d) zamon ma'nosini ifodalaydi. Ravishdoshning zamon ma'nosini ifodalashi nisbiy zamon sanaladi. Chunki ravishdoshning zamoni shu gapdagi tuslangan fe'ning zamoniga nisbatan belgilanadi.

Ravishdoshlar zamon ma'nosiga ko'ra uchga bo'linadi: o'tgan zamon ravishdoshi, hozirgi zamon ravishdoshi, kelasi zamon ravishdoshi.

O'tgan zamon ravishdoshlari fe'l o'zak-negiziga –b (-ib), -gach (-kach, -qach) affikslarini qo'shish bilan hosil qilinadi: qolib, o'qib, qolgach, o'qigach kabi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakatdan ilgari bo'lgan harakatni yoki asosiy harakatdan oldin boshlangandek ko'rinsa ham ammo u bilan bir vaqtda yuz bergan harakatni anglatadi. Masalan: Zulfiya javob so'rab keldi gapida javob so'rab ravishdoshi asosiy harakatdan (keldi harakatidan) oldin ro'y bergan harakatni bildirsa, u kulib gapirmoqda gapida esa kulib ravishdoshi asosiy harakat (gapirmoqda harakati) bilan bir vaqtda yuz beradigan harakatni anglatadi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslanganda, o'tgan zamon hikoya fe'lini hosil qiladi.

Fe'l negiziga –gach (-kach, -qach) affiksini qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslanmaydigan ravishdosh bo'lib, u tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan ilgari uning bajarilishi (yoki bajarilmaslik) sababi yoki paytini ko'rsatadigan harakatni anglatadi. Masalan: *Uch-to'rt kun mehmondorchilikda yurishgach, maktabdan qaytdilar (P.Tursun). Zorlanishdan, ichni eyishdan boshqa hech nima qo'lidan kelmagach, nima qilsin (M. Ismoilov).*

Hozirgi zamon ravishdoshi fe'l o'zak-negiziga –a, -y affikslarini qo'shish bilan hosil qilinadi: bora-bora, ishlay-ishlay kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan asosiy harakat bilan bir vaqtda ro'y beradigan harakatni anglatib, uning bajarilish holati, paytini ko'rsatadi. Masalan: *Toma-toma ko'l bo'lur, hech tommasa cho'l bo'lur (Maqol). Tog' oralig'idagi qalin qor eriy-eriy odam bemalol kira oladigan g'or bo'lib qolibdi (S.Anorboev).*

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda odatda, takroriy so'z shaklida qo'llanadi. YAkka holda ishlatilganda, ravishdosh anglatgan harakatdan tuslangan fe'l anglatgan harakatga tezlik bilan o'tilganlik ma'nosi hosil bo'ladi. Masalan: *Sultonmurod kela o'qishga kirishdi.*

Hozirgi zamon ravishdoshi tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'lini hosil qiladi. Masalan: *Sada tagidagi hovuzning suvida yaproqlar suzadi (S.Z.).*

Kelasi zamon ravishdoshlari fe'l negiziga –gani (-kani, -qani), -guncha (-kuncha, -quncha) affikslarini qo'shish bilan yasaladi: o'qigani, tinchiguncha kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar tuslanmaydi. Fe'l negiziga –gani (-kani, -qani) qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatadi. Masalan: *Men bugun yuragimni ochib gapirgani keldim (U.)*.

Fe'l negiziga –guncha (-kuncha, -quncha) affiksini qo'shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatning davom qilish vaqtining o'lchovi sifatidagi harakatni ifodalaydi. Masalan: *Yo'lchi so'zlaguncha, Tantiboyvachcha qorong'ida yo'qoldi (O.)*.

Shu bilan birga ravishdosh o'ziga xos sintaktik belgilarga ham ega, ya'ni:

a) gap tarkibida boshqa so'zlarni boshqarib kela oladi;

b) tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda hol va –b (-ib) affiksi bilan yasalgan ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Gulnorning egnida kaltagina qora (lapis) kamzul yuvila-yuvila yupqalashgan (O.)*. *Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi (M.Osim)*. *Kursi ustiga dasturxon yozilib, meva-cheva to'la patnis qo'yildi (O.)*.

Shuningdek, tuslanadigan ravishdoshlar o'zlariga tobe bo'lgan so'zlar bilan sostavli hol sifatida, ravishdosh o'ram tarzida ajratilgan hol vazifasini ham bajaradi: *Bozor darvozasi yoniga kelishganida bir to'da odamni ko'rib to'xtab qolishdi (O'.Hoshimov)*. *April oqshomlaridan birida Farida ikkovlari shahar aylanib yurib stadiongga kirib qolishdi (O'.Hoshimov)*. *Keng, baland, serhasham chodirda oltin shamdonlarni qo'yib, Navoiy yaqin beklari bilan suhbatlashib o'tirardi (O.)*.

v) tuslanmaydigan ravishdoshlar gapda hol, ajratilgan ikkinchi darajali bo'lak va ergash gapning kesimi vazifasini bajarib keladi: Oradan uch oy o'tib hash-pash deguncha issiq kunlar etib keldi (S.A.). U oltinsoyliklarni kanal va buloq qazigani boshlab ketdi (SH.R.). SHartning nozik va qaltisligi ko'z oldiga kelgach, yuragi orqasiga tortib ketdi (H.N.). Asalxon karvon o'tib ketguncha, yo'l yoqasida qo'l siltab turdi (H.G').

–gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdosh gapda faqat hol vazifasini bajaradi.

Sifatdosh va harakat nomi, ularning grammatik ma'nosi, yasalishi

Sifatdosh. Predmetning harakat va holat belgisini bildiradigan, gapda sifatlovchi vazifasini bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli sifatdosh deyiladi: *So'zlayotgan kishining o'ziga emas, so'ziga e'tibor qil («Tafakkur gulshani»)*. *Ko'chaning ikki chetidagi turli mollar bilan savdo qiluvchi do'konlar joylashgan*

(M.Qoriev) gaplaridagi soʻzlayotgan, savdo qiluvchi sifatdoshlari kishi, doʻkonlar otlariga bogʻlanib, uning harakat belgisini bildirib, sifatlovchi (aniqllovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) feʼl oʻzak-negiziga –gan (-kan, -qan) affikslarni qoʻshish bilan: yuklagan, kechikkan, qiziqqan (feʼl negizi k yoki g bilan tugasa, -kan; q yoki gʻ bilan tugasa, -qan tarzida).

Bu affiks sifatdosh yasashda eng mahsuldor, unumli affiks sanaladi.

Eski oʻzbek adabiy tilida –gan affiksining ekvivalenti –mish, -dik affikslari bilan ham yasalgan (bu affikslar hozir ham uchraydi).

2) feʼlning –a, -y affiksi bilan tugagan ravishdosh negiziga –digan, -yotgan affikslarini qoʻshish bilan: kelayotgan, oʻqiyotgan, boradigan, ishlaydigan kabi;

3) feʼl oʻzak-negiziga –r (-ar) qoʻshilishi bilan (unlidan soʻng –r, undoshdan soʻng –ar): sanar, koʻkar kabi;

4) feʼl oʻzak-negiziga –vchi (-uvchi) qoʻshilishi bilan (unlidan soʻng –vchi, undoshdan soʻng –uvchi): boshlovchi, kutuvchi kabi;

Eski adabiy tilda sifatdoshning bu turi –guchi, -gʻuchi shaklida ham ishlatilgan aytguchi, kelguchi. Bu shakl hozir ham poeziyada uchraydi: *Kulimsirab turgʻuchi toleing porloq (Gʻ.Gʻ).*

Bu affiks bilan yasalgan sifatdoshning ot soʻz turkumiga koʻchish holati ham uchraydi: oʻquvchi, toʻquvchi, yozuvchi kabi.

5) feʼl negiziga –ajak qoʻshilishi bilan: kelajak, boʻljak kabi;

6) feʼl negiziga –gusi, -gʻusi qoʻshilishi bilan: kelgusi, boʻlgʻusi kabi.

Sifatdosh leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHunga koʻra sifatdosh feʼl sanaladi va feʼlga xos boʻlgan grammatik xususiyatlarga egadir, yaʼni:

1) oʻtimli-oʻtimsizlik maʼnosini ifodalaydi: oʻqigan, yozdirgan - oʻtimli; qolgan, qiziqtirgan - oʻtimsiz sifatdosh;

2) boʻlishli-boʻlishsizlik maʼnosini ifodalaydi: oʻqigan – boʻlishli, oʻqimagan – boʻlishsiz; aytar – boʻlishli, aytmas – boʻlishsiz sifatdosh;

3) nisbat maʼnosini anglatadi: yuvgan - aniq nisbat, yuvingan - oʻzlik nisbat, yuvilgan - majhullik nisbat, yuvishgan – birgalik nisbat, yuvdirgan – orttirma nisbat;

4) sifatdoshlarni tuslanganda aniqlik maylining biror zamoniga xos boʻlgan feʼlni hosil qiladi (sof feʼlga aylanadi) va kesim vazifasini bajaradi: *Bu hofiz butun olamga tanilgan (O.).*

Sifatdoshning deyarli barcha shakllari tuslanish xususiyatiga (-yotgan shaklidan tashqari) ega. –r (-ar) bilan yasalgan sifatdosh shakli esa

hozirgi tilda ko`proq tuslangan shaklda ishlatiladi: o`qirman, o`qirsan, o`qir; o`qirmiz, o`qirsiz, o`qir(lar) kabi;

5) sifatdosh zamon ma'nosini ifodalaydi. Atributiv (sifatlovchi) holatida kelgan sifatdoshning zamon ma'nosi nisbiy sanaladi, chunki sifatdoshning zamoni nutq momentiga nisbatan emas, balki fe'l-kesimning zamoniga nisbatan belgilanadi: *Ko`nglini kichik tutgan, kamtarlik yo`lidan yurgan kishi ulug`likka etadi (YUsuf Xos Xojib)* gapida tuslangan fe'l etadi hozirgi-kelasi zamonni ifodalasa, ko`nglini kichik tutgan, kamtarlik yo`lidan yurgan sifatdoshlari o`tgan zamonni ifodalaydi.

Sifatdoshlar zamon ma'nosiga ko`ra uch guruhga bo`linadi: o`tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi. Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik ko`rsatkichlar sifatdoshning nisbiy zamon ko`rsatkichi ham sanaladi. O`tgan zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlanib turgan vaqtdan ilgari bo`lgan harakat belgisini anglatadi. –gan (-kan, -qan) grammatik ko`rsatkichlari bilan yasalgan sifatdosh o`tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: *Murabbiysi bo`lmagan odamni hayot o`zi tarbiyalab qo`yadi («Otalar so`zi»).*

Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlashib turgan vaqtda davom etayotgan harakat belgisini anglatadi.

Hozirgi zamon sifatdoshi –yotgan, -vchi (-uvchi) affikslarini qo`shish bilan hosil bo`ladi: *Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezonini bo`lmog`i darkor (I.A.Karimov). Elmurod bu erga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi (P.Tursun).*

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so`zlanib turgan vaqtdan keyin bajariladigan harakat tarzidagi belgisini anglatadi. Kelasi zamon sifatdoshi –r (-ar), -digan, -ajak affikslari bilan yasaladi: *Aytar so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt (Maqol). Dehqon kelasi kuzda oladigan hosilining g`amini shu kuzdan ko`radi (M.Ismoilij).*

Sifatdosh fe'l shaklining «sifatdosh» deb atalishi, uning sifat singari predmetning belgisini bildirishiga ko`radir. Sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati kabilarni bildirsa, sifatdosh predmetning harakat va holat belgisini anglatadi.

Demak, sifatdosh sifatga xos bo`lgan grammatik xususiyatlarga ham egadir, ya'ni:

1) sifatdosh morfologik jihatdan o`zgarmaydi (egalik, kelishik, ko`plik affikslarini olmaydi);

2) sifatdosh otga bog`lanib kelib, predmetning harakat belgisini bildiradi va gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi: Ko`klam quyoshidan ko`kargan qirlar, ko`m-ko`k (H.Olimjon). Xadichabegim yurt uchun qayg`uradigan bir malika ekanini ko`rsatishni sevardi (Oybek).

3) sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bog`lanib kelgan ot qo`llanmaydi va sifatdosh ot kabi so`z o`zgartiruvchi (egalik, kelishik, ko`plik affikslarini) affikslarni oladi, ot singari sintaktik vazifalarni (ega, to`ldiruvchi, qaratuvchi) bajaradi: Yo`lni bilgan qoqilmaydi (Maqol). Qishloq xo`jaligida bevosita ishlab chiqaruvchining o`zi xo`jayin bo`lishi shart (I.Karimov). Ko`p yurgandan so`rama, ko`p ko`rgandan so`ra (Maqol). Dushmanga nafrati bo`lmaganning Vatanga muhabbati bo`lmas (Maqol). Ish-harakatning atamasi bo`lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo`lgan fe`l shakli harakat nomi deyiladi: Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma`naviy harakatlaridandir. CHavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishini ham, aytmaslikni ham bilmay turgandi (O.YOqubov). Mustaqilligimiz tufayli xalq va Vatan tarixi, boy ilmiy va adabiy merosga xolisona yondashishning guvohi va shohidi bo`lmoqdamiz (Rahim Vohidov) gaplaridagi intilish, aytishni, aytmaslikni, yondashishning fe`l shakllari harakatning atamasi (nomi) bo`lib, gapda otga xos ega, to`ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajargan

Harakat nomi quyidagi shakl yasovchi affikslar bilan yasaladi:

1) fe`l negiziga –sh (-ish) qo`shish bilan (unlidan so`ng –sh, undoshdan so`ng –ish): o`qish, yozish, ishlash, chiqish kabi;

Harakat nomining –sh (-ish) affiksi bilan yasalgan shakli otga yaqin turadi, shuning uchun ham bu shaklda harakat nomi otga ko`chishga moyil bo`ladi.

2) fe`l negiziga –v (-uv) qo`shish bilan (unlidan so`ng –v, undoshdan so`ng –uv): ishlov, bag`ishlov, boruv, keluv kabi;

Bu affiks bilan yasalgan harakat nomi hozirgi o`zbek tilida kam ishlatiladi;

3) fe`l negiziga -moq qo`shish bilan: o`smoq, ulg`aymoq, o`rganmoq kabi.

Harakat nomining -moq affiksi bilan yasalgan shakli fe`lga juda yaqin turadi, chunki har qanday fe`lning bosh shakli yo buyruq-istak mayli shaklida esla, shosh kabi; yoki eslamoq, shoshmoq kabi harakat nomi shaklida olinadi.

Harakat nomi leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan harakat nomi fe'lga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) o'timli-o'timsizlik ma'nosini ifodalaydi: o'rganish, ko'rmoq - o'timli harakat nomi; yugurish, ishonmoq - o'timsiz harakat nomi;

2) nisbat ma'nosiga ega: yutmoq - aniq nisbat, yasanmoq - o'zlik nisbat, baholanmoq - majhullik nisbati, qiziqtirmoq - orttirma nisbat;

3) harakat nomining bo'lishsiz shakli faqat –maslik affiksi bilan yasaladi: aytish – bo'lishli harakat nomi, aytmaslik – bo'lishsiz harakat nomi.

4) harakat nomi zamon ma'nosiga ega emas. Lekin ma'lum bir qulay sharoitda unda hozirgi-kelasi zamon ma'nosi aks etadi: Oilada farzand tarbiyasiga har tomonlama e'tibor bermoq lozim (O.Karimova).



Fe'l mayllari. To'liqsiz fe'llar

Ish-harakatning voqelikka munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriyaga fe'l mayli deyiladi. Mayl kategoriyasi grammatik zamon (o'tgan, hozirgi, kelasi) va grammatik shaxs (bajaruvchi) bilan uzviy bog'langan bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish tizimiga kiradi. Fe'l mayllarida voqelik bilan bog'liq ravishda ish-harakatning bajarilish xususiyatlari turlicha bo'ladi. Masalan:

1) *Havo sovuq, osmonda zahardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi (O'.Hoshimov).*

2) *YOshlikda zaxmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan. (Koshifiy).*

3) *So'zlayotgan kishining o'ziga emas, so'ziga e'tibor qil (Monteske. Tafakkur gulshani).* Bu misollarning birinchisida kezadi fe'li ish-harakatning aniq bajarilishini, ikkinchisida o'rgansang, egallasang fe'llari ish-harakatning bajarilishi uchun shart qilib olingan harakat ma'nosini, uchinchi misolda esa e'tibor qil fe'li ish-harakatning bajarilishi haqidagi buyruq, maslahat ma'nosini anglatgan. Demak, fe'l anglatgan ish-harakat voqelikka munosabatiga ko'ra aniqlik, shart (istak), buyruq (istak) kabi qo'shimcha modal ma'nolarni ifodalaydi.

Shunga ko'ra fe'llar, asosan, 3 fe'l mayli ko'rinishiga ega:

1) aniqlik mayli,

2) shart mayli,

3) buyruq-istak mayli.

Aniqlik mayl

Bu mayldagi fe'l ish-harakatning uch zamondan birida aniq (real) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi, ya'ni aniqlik maylidagi fe'l o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon fe'llarining barcha ma'no ko'rinishlarini o'z ichiga qamrab oladi: *o`qidim*, *o`qimadim* - yaqin o'tgan zamon fe'li; *o`qiyapman* - hozirgi zamon davom fe'li; *o`qimoqchiman*, *o`qimoqchi emasman* – kelasi zamon maqsad fe'li kabi. Masalan: *Men unga mustaqil odam ekanligimni ko`rsatib qo`ymoqchiman (P.Q.)* gapida ko`rsatib qo`ymoqchiman fe'li ish-harakatning kelasi zamonda (kelasi zamon maqsad fe'li) I shaxs tomonidan (-man shaxs-son affiksi) aniq bajarilishini anglatadi.

Aniqlik maylidagi fe'llar I-II guruh tuslovchi affikslar bilan tuslanadi.

2. Buyruq-istak mayli

Bu mayldagi fe'l kelasi zamonga oid bo'lib ish-harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqida buyurish, so'rash, istash, iltimos, maslahat, undash-chaqirish kabi ma'nolarni anglatadi va III guruh tuslovchi affikslar bilan o'zgaradi: *o`qiy* (*o`qiyin*), *o`qigin* (*o`qi*), *o`qisin*; *o`qiylik*, *o`qingiz*, *o`qisinlar* kabi.

Buyruq-istak maylining I shaxsi istak iltimos, undash-chaqirish ma'nolarini (I shaxsda buyurish, iltimos ma'nolari ifodalanmaydi); II-III shaxsi buyruq, iltimos, maslahat o'rni bilan do`q kabi ma'nolarni ifodalaydi va ma'nolarning har biri o'ziga xos intonatsiya bilan ajralib turadi. Masalan: 1. *O`z shaxsiy foydangni izlama, xalqning foydasini izla, xalqqa mashaqqat yukki tushirib, uni qiynama, o`zing yuk ko`taruvchi bo`l (YUsuf Xos Xojib)*. 2. *Naqadar buyuk zamonda yashayotganligimizni unutmaylik (I.Karimov)* birinchi misolidagi *izlama, izla, qiynama, bo`l* fe'llari II shaxs (nol ko`rsatkichli shaklda)da kelib maslahat, iltimos kabi ma'nolarni, ikkinchi misoldagi *unutmaylik* fe'li I shaxs ko`plikda kelib, shu harakatni bajarishga undash, shu bilan birga istak, xohish kabi ma'nolar bildiriladi.

3. Shart (istak) mayli

Bu mayldagi fe'l birinchidan, ma'lum ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda shart maylidagi fe'l ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Masalan: *Bolalaring senga qanday munosabatda bo`lishini istasang, ota-onangga ham shunday munosabatda bo`l (Tafakkur gulshani)*. Ikkinchidan, bu shakldagi fe'lning o'zi orzu-istak, xohish, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydi va sodda gapning yoki qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida qo'llanadi: *Qani endi*

inqilob bo'lsa-yu, mehnatkash xalq xonni ag'darib mamlakatni o'zi idora qilsa, hamma erkin nafas olsa (N.SHaripov). Qani endi bu qirlarga ko'klamda chiqsang. Onajon, shu suratni menga bersangiz (A.Q.)

Ko'rinadiki, shart maylidagi fe'l kelasi zamon tushunchasini anglatib, shart-istak ma'nosi fe'lning buyruq-istak maylidan bosh shaklga –sa qo'shimchasini qo'shish va tushlash orqali shakllanadi: o'qisam, o'qisang, o'qisa; o'qisak, o'qisangiz, o'qisalar kabi.

Shart mayli formasidagi fe'l edi, ekan to'liqsiz fe'llar bilan; kerak, bo'lmoq, ehtimol kabi modal ma'noli so'zlar bilan birga qo'llanishi mumkin: o'qisa edi, o'qisa ekan; o'qisa kerak, o'qisa bo'ladi kabi. Bunday shaklda kelgan fe'llar tilak, orzu, gumon, noaniqlik kabi ma'nolarni bildiradi: *Nahotki Muqaddas shu yotoqxonada tursa? (O.Y.). bu erda sho'r imoratning ofati bo'lsa kerak (A.Q.). Xo'sh, endi sizlarga nima sovg'a bersam ekan (O.).*

Shuningdek, shart maylidagi fe'l qo'shma gapning bir necha turlarida ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi: *Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq... (O.). To'tiqiz... dugonasini o'ylasa, xolasi o'z ko'ksida panoh topgandek bag'riga kirib olgan jiyanini o'ylar edi (M. Ismoilij).*

To'liqsiz fe'llar

Mustaqil holda ish-harakat ma'nosini ifodalamay, turli fe'l shakllaridan so'ng (keng ma'noda ot bilan) qo'llanib, faqat grammatik modal ma'no ifodalaydigan fe'llar to'liqsiz fe'llar deyiladi. To'liqsiz fe'llarga *edi (-di)*, *ekan (-kan)*, *emish (-mish)* kabi fe'l shakllari kiradi. *Yozar edi – yozardi, yozar ekan – yozarkan, yozar emish – yozarmish* kabi. Bu fe'llar aslida bir **e** (arxaik **er**) fe'l negizining turli shakllari bo'lib, ular hozir ayrim-ayrim so'z sifatida tushuniladi.

To'liqsiz fe'l sifatdash, ravishdash va harakat nomi bilan birikib, fe'l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. To'liqsiz fe'llar *edi*, *ekan*, *emish* turlicha modal ma'nolar ifodalaydi:

1) *edi* to'liqsiz fe'li qatnashgan fe'l shaklida ta'kidlash, eslatish, hikoya, davomiylik, takror kabi ma'nolarni bildiradi: *Bo'shagan erlarning bag'rini pluglarning o'tkir tig'lari tilka-tilka qilmoqda edi (H.N.). Shu kuni endi ko'chaga chiqib edi... (M.Ismoilij).* Ular bir partada o'tirishar, birga dars tayyorlashar, maktabni bitirgandan keyin qayerga o'qishga borish haqida maslahatlashar, xayol surishar *edi (S.Zunnunova).*

2) *ekan* to'liqsiz fe'l qatnashgan shakllarda o'tmishda yuz bergan voqea-hodisaning so'zlovchiga keyinchalik ma'lum bo'lganligi va uning

davomi ekanligi anglashiladi: *Aytishingizdan, oradan hech gap o`tmagan ekan* (A.Qahhor).

3) emish to`liqsiz fe'li esa noaniqlik, gumon, eshitilganlik ma'nolarini bildiradi: *O`zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo`yi juda uzun bo`lib ketgan emish* (S.Ahmad).

To`liqsiz fe'llar boshqa so`z turkumlari bilan ham birikib keladi. Bu holda ot kesim tarkibida kelib, bog`lama vazifasini bajarib, tuslovchi affikslarni oladi: *Uy kichkina, lekin yorug` va toza edi* (O.)

Fe'llarda modal ma'no fe'lning juft va takrorik shakli bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl orqali harakatning davomliligi, takrorlanib turishi, tugallanganlik, harakatning voqe bo`lishiga turlicha munosabat (befarqlik) kabi modal ma'nolar anglashiladi: *ayta-ayta, borib-borib, aytsa-aytar, uchadi-ketadi, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlasin* kabi.



Fe'l zamonlari, ularning turlari (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'llari)

Ish-harakatning voqe bo'lishi (yoki bo'lmasligi) mantiqan zamon bilan bog'liq bo'ladi. Fe'llardagi zamon nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi, ya'ni ish-harakat nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, nutq so'zlanib turgan paytda, nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin.

Shunga ko'ra, fe'l uch zamon ko'rinishiga ega:

1. O'tgan zamon.
2. Hozirgi zamon.
3. Kelasi zamon.

Fe'llarda zamon ma'nosi fe'l tarkibida qo'llangan grammatik ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. Masalan: 1. *Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o'tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi.* (R.Shog'ulomov). 2. *Ko'nglini kichik tutgan, kamtarlik yo'lidan yurgan kishi ulug'likka yetadi* (Yusuf Xos Hojib). 3. *Ilm ko'pga yetkazar, hunar esa ko'kka* (Maqol). Keltirilgan misollarning birinchisida *bunyod etdi, nom qoldirdi* fe'llari tarkibidagi –*di* o'tgan zamonni, ikkinchisida *yetadi* fe'li tarkibidagi –*a* ko'rsatkichi hozirgi zamonni, uchinchisida *yetkazar* fe'lidagi –*ar* ko'rsatkichi esa kelasi zamon ma'nosini ifodalagan.

Har bir zamon o'z navbatida yana bir necha turga bo'linadi. Chunki har bir zamon vaqtning katta qismini ko'rsatish bilan birga o'zining ichki xususiy modal ma'nolariga (qo'shimcha ma'nolarga) ham ega. Masalan: *o'qimoqchiman, o'qiydiganman* fe'llari nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajariladigan harakatni ifodalab, vaqtning katta qismini ko'rsatish bilan birga, bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatishi kabi o'ziga xos modal ma'noga ham ega.

O'tgan zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

O'tgan zamon fe'li xususiy modal ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) yaqin o'tgan zamon fe'li; 2) uzoq o'tgan zamon fe'li; 3) o'tgan zamon hikoya fe'li; 4) o'tgan zamon davom fe'li; 5) o'tgan zamon maqsad fe'li.

Yaqin o'tgan zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so'zlovchining ko'z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: *Go'zal vodiydagi Gullar bog'i ko'klam libosi bilan bezandi* (SH.R.).

Yaqin o'tgan zamon fe'li sof fe'l negiziga –di qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan (I guruh tuslovchi) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shim-chasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shim-chasi
I	o'qidi m	-di	-m	o'qidik	-di	-k
II	o'qidi ng	-di	-ng	o'qidingiz	-di	-ngiz
III	o'qidi	-di	-	o'qidilar	-di	(-lar)

Uzoq o'tgan zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan, ammo bu haqda nutq so'zlanib turgan paytda xabar qilingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: SHoyi, atlas, chit, las ko'ylak; nimcha, durra, peshonabog', xullas bor boricha yo'q holicha yasalgan (N. Safarov).

Uzoq o'tgan zamon fe'li negiziga –gan sifat-dosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan (II guruh «B» ko'rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi
I	o'qiganman	-gan	-man	o'qiganmiz	-gan	-miz
II	o'qigansan	-gan	-san	o'qigansiz	-gan	-siz

III	o`qigan	-gan	-	o`qiganlar	-gan	(-lar)
-----	---------	------	---	------------	------	--------

Uzoq o`tgan zamon fe'li nutqda aniq eslash (yoki eslatish), kutilmaganda eslash, eshitilganlik kabi qo'shimcha modal ma'nolarga ham ega bo'ladi. Uzoq o`tgan zamonning bo`lib o`tgan ish-harakatni aniq eslash ma'nosi –gan sifatdoshiga edi (qisqa shaklida) to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash orqali: o`qigan edim, o`qigan eding, o`qigan edi; o`qigan edik, o`qigan edingiz, o`qigan edilar kabi; kutilmaganda eslash ma'nosi –gan sifatdoshiga ekan (qisqa shakli –kan) to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash bilan: o`qigan ekanman, o`qigan ekansan, o`qigan ekan; o`qigan ekanmiz, o`qigan ekansiz, o`qigan ekanlar kabi; bo`lib o`tgan ish-harakatning so`zlovchining boshqa shaxsdan eshitganligi –gan sifatdoshiga emish (qisqa shakli –mish) to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash orqali: o`qigan emishman, o`qigan emishsan, o`qigan emish; o`qigan emishmiz, o`qigan emishsiz, o`qigan emishlar kabi shakllanadi. Masalan: *Nasibaning yuzidagi bo`g`riqish yo`qolib, uning o`rnida nafislik paydo bo`lgan edi (X.No`mon). Mirza Bahrom unday ma'no chiqishini sira ko`zda tutmagan ekan, o`sal bo`ldi (A.Qahhor).*

**O`tgan zamon hikoya fe'li** kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq so`zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash yo`li bilan ifodalaydi. Masalan: *Halol rizq istab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani ma`rifat qilingan holda o`tkazibdi (Hadisdan).*

O`tgan zamon hikoya fe'li fe'l negiziga –b (-ib) o`tgan zamon ravishdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan (II guruh «A» ko`rinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`shimchasi	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`shimchasi
I	o`qibman	-b	-man	o`qibmiz	-b	-miz
II	o`qibsan	-b	-san	o`qibsiz	-b	-siz
III	o`qibdi	-b	-di	o`qibdilar	-b	-di(-lar)

O`tgan zamon hikoya fe'lining eslay (eslatish) ma'no ko`rinishi ham bor. Bu shakl o`tgan zamon –b (-ib) ravishdoshiga edi to'liqsiz fe'lini

biriktirib tushlash orqali hosil bo'ladi: o`qib edim, o`qib eding, o`qib edi; o`qib edik, o`qib edingiz, o`qib edilar kabi. Masalan: *Urush tugasa, biznikiga mehmongan borasiz, o`shanda ayamning qanaqaligini ko`rasiz deb edi* (S.Zunnunova).

**O`tgan zamon davom** fe'li nutq so`zlanib turgan paytdan ilgari ma'lum bir muddat davomli bo'lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni eslash ma'no ottenkasi bilan ifodalaydi. Masalan:

1. *Bu yerda Boburning doim o`z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi* (P.Qodirov).

2. *Daryolardan kuylab o`tardim, Ertaklarga quloq tutardim, Hammasini tinglardim, ammo O`xshashini topmasdim aslo* (H.O.).

Bu misollarning birinchisida saqlanar edi fe'li o`tmishda ma'lum bir muddat davomli bo'lgach ish-harakatni ifodalasa, ikkinchisida kuylab o`tardim, quloq tutardim, tinglardim vaqti-vaqti bilan takrorlanib ish-harakatni anglatadi. O`tgan zamon davom fe'li -r(-ar), -yotgan sifatdash fe'l negiziga hamda -moqda qo`shimchasini olgan sof fe'l negiziga edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash (I guruh tuslovchilari bilan) orqali hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsatkichi	Shaxs-son qo`sh.	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`sh.
	o`qir edim, o`qiyotgan edim, o`qimoqda edim	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	m	o`qir edik, o`qiyotgan edik, o`qimoqda edik	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-k
I	o`qir eding, o`qiyotgan eding, o`qimoqda eding	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	ng	o`qir edingiz, o`qiyotgan edingiz, o`qimoqda edingiz	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-ngiz
II	o`qir edi, o`qiyotgan edi, o`qimoqda edi	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi		o`qir edilar, o`qiyotgan edilar, o`qimoqda edilar	-r+edi, -otgan+edi, -moqda+edi	(-lar)

O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: U bugun Malika bilan xoli gaplashib, ko'nglidagi hamma sir-asrorini to'kib solmoqchi edi (E.Usmonov). Ertasiga qishloqqa chiqadigan edi.

O'tgan zamon maqsad fe'li -moqchi, -digan qo'shimchalarini olgan fe'l negiziga edi to'liqsiz fe'lini biriktirib (I guruh tuslovchilar bilan) tushlash bilan shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	qo'shimcha	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	qo'shimcha
I	o'qimoqchi edim, o'qiydigan edim,	-oqchi+edi, -digan+edi	-m	o'qimoqchi edik, o'qiydigan edik,	-moqchi+edi, -digan+edi	-k
II	o'qimoqchi eding, o'qiydigan eding,	-moqchi+edi, -digan+edi	-ng	o'qimoqchi edingiz, o'qiydigan edingiz,	-moqchi+edi, -digan+edi	-ngiz
III	o'qimoqchi edi, o'qiydigan edi,	-moqchi+edi, -digan+edi	-	o'qimoqchi edilar, o'qiydigan edilar,	-moqchi+edi, -digan+edi	(-lar)

2. Hozirgi zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe'li qo'shimcha modal ma'nolariga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1) hozirgi-kelasi zamon fe'li, 2) hozirgi zamon davom fe'li.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda va undan keyin ro'y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Masalan: Bobur bu chigal tugunlarni o'zi echilmasligini sezadi

(P.Qodirov). YOshlikda zahmat chekib, ilm o`rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan (Koshifiy).

Hozirgi-kelasi zamon fe'li sof fe'l negiziga –a, -y ravishdosh qo`shimchasini qo`shish va tushlash bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	Shaxs-son qo`shim-chasi	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	SHaxs-son qo`shim-chasi
I shaxs	o`qiyman, boraman	-y, -a	- man	o`qiymiz, boramiz	-y, -a	-k
II shaxs	o`qiysan, borasan	-y, -a	-san	o`qiysiz, borasiz	-y, -a	-ngiz
III shaxs	o`qiydi, boradi	-y, -a	-di	o`qiydilar, boradilar	-y, -a	-di(-lar)

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning nutq so`zlanib turgan paytda aniq davom etayotganini bildiradi: Mustaqillikka erishganimizdan so`ng xalqimizning o`z yurti, dili, tarixini bilishga qiziqish ortib bormoqda (I.Karimov).

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	qo`shim cha	Misol	Zamon ko`rsat-kichi	qo`shim cha
I	o`qiyapman, o`qimoqdaman, o`qiyotibman	-yap, -moqda, -yotib	- man	o`qiyapmi z, o`qimoqdamiz, o`qiyotibmiz	-yap, -moqda, -yotib	-miz
II	o`qiyapsan, o`qimoqdasan, o`qiyotibsan	-yap, -moqda, -yotib	- san	o`qiyapsiz, o`qimoqdasiz, o`qiyotibsiz	-yap, -moqda, -yotib	-siz
III	o`qiyapti, o`qimoqda, o`qiyotibdi	-yap, -di	-ti -di	o`qiyaptilar, o`qimoqdalar, o`qiyotibdilar	-yap, -di	-ti(-lar) -di(-lar)

		- moqda , -yotib			- moqda , -yotib	
--	--	---------------------------	--	--	---------------------------	--

SHuningdek, murakkab fe'l tarkibida qo'llangan yot, yur, tur, o'tir ko'makchi fe'llarni tushlash bilan ham hozirgi zamon davom fe'li hosil qilinadi: o'qib yotibman, o'qib yuribman, o'qib turibman, o'qib o'tiribman kabi.

3. Kelasi zamon

Bu zamondagi fe'llar ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Kelasi zamon fe'li qo'shimcha modal ma'nolariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) kelasi zamon gumon fe'li; 2) kelasi zamon maqsad fe'li.

Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilish-bajarilmasligi mo'ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi. Masalan: *Bugun havo ochiq bo'lar* (A.Q.)

Kelasi zamon gumon fe'li ba'zan hozirgi-kelasi zamon ma'nosida kelib, aniqlik, qat'iylik ma'nolarini ham ifodalaydi: *Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar* (Maqol).

Kelasi zamon gumon fe'li sof fe'l negiziga -r(-ar) sifatdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi
I	o'qirman, borarman	-r, -ar	-man	o'qirmiz, borarmiz	-r, -ar	-miz
II	o'qirsan, borarsan	-r, -ar	-san	o'qirsiz, borarsiz	-r, -ar	-siz
III	o'qir, borar	-r, -ar	-	o'qirlar, borarlar	-r, -ar	(-lar)

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: Men kuzdan boshlab o'qishni davom ettirmoqchiman, so'ngra qishloq xo'jalik

institutiga kirmoqchiman (SH.R.). Oho qora ko`z deganda, u devordan oshadigan (O.).

Kelasi zamon maqsad fe'li sof fe'l negiziga -moqchi hamda fe'lning ravishdosh (-a, -y bilan shakllangan) shakliga –digan qo`shimchasini qo`shish bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko`plik		
	Misol	Zamon ko`rsatkichi	qo`shimcha	Misol	Zamon ko`rsatkichi	qo`shimcha
I	o`qimoqchiman, o`qiydiganman	-moqchi, -digan	-man	o`qimoqchimiz, o`qiydiganmiz	-moqchi, -digan	-miz
II	o`qimoqchisan, o`qiydigansan	-moqchi, -digan	-san	o`qimoqchisiz, o`qiydigansiz	-moqchi, -digan	-siz
III	o`qimoqchi, o`qiydigan	-moqchi, -digan	-	o`qimoqchilar, o`qiydiganlar	-moqchi, -digan	(-lar)

Fe'llarning tuslanishi

Ish-harakat ma'lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so`zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o`zga (III shaxs yoki predmet) bo`lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki ko`plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe'llardagi bunday grammatik shaxs va son ma'nosi ma'lum bir grammatik ko`rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: o`qidim, o`qisam, o`qisang, o`qiyapman, o`qibman, o`qiy fe'llari tarkibidagi –m, -man, -y qo`shimchalari ish-harakatning I shaxs so`zlovchi, ya'ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini ko`rsatsa; o`qidik, o`qisak, o`qiyapmiz, o`qibmiz, o`qiylik fe'llari tarkibidagi –k, -miz, -ylik affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin ko`p so`zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o`z ichiga oladi. Shuning uchun ham bunday affikslar **shaxs-son affikslari** deb yuritiladi. Fe'llarning

shaxs-son affikslari bilan o'zgarishi esa tuslanish deyiladi. Shaxs-son affikslari tilshunoslikda **tuslovchi affikslar** deb ham yuritiladi.

O'zbek tilida tuslovchi affikslar fe'l shakllariga turlicha ko'rinishda qo'shiladi. Shu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo'linadi.

1. Birinchi guruh tuslovchilar

Bu guruhga mansub tuslovchilar aniqlik va shart-istak maylidagi –di, –sa qo'shimchalarini olgan sof fe'l negizidan so'ng va edi to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: keldi-m, keldi-ng, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar) kabi.

Fe'llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

Sh axs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	<i>yozdim, yozsam, yozgan edim</i>	<i>yozdik, yozsak, yozgan edik</i>
II	<i>yozding, yozsang, yozgan eding</i>	<i>yozdingiz, yozsangiz, yozgan edingiz</i>
III	<i>yozdi, yozsa, yozgan edi</i>	<i>yozdi(-lar), yozsa(-lar), yozgan edi(-lar)</i>

2. Ikkinchi guruh tuslovchilar

Bu affikslar –b(-ib), –a(-y) qo'shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan (*-yotgan* qo'shimchasidan tashqari), shuningdek, –yap, –moqda, –yotib, –moqchi bilan shakllangan fe'l negizidan so'ng qo'shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni birinchi xil ko'rinishda –b(-ib), –a(-y) qo'shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda –yap, –yotib bilan shakllangan fe'llar III shaxs birlikda –di (-ti), ko'plikda –di(lar), –ti(lar) shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinchi xil ko'rinishda esa fe'lning sifatdosh shakllariga (*-gan, -r(-ar), -digan, -vchi(-uvchi* bilan hosil qilingan shakllariga), –moqda, –moqchi, –yotir bilan shakllangan fe'l negizlari, shuningdek, fe'llar ekan, emish to'liqsiz fe'llari bilan birga qo'llansa, III shaxsda shaxs ko'rsatkichi shakllanmaydi (nol ko'rsatkichli shaklda keladi).

Fe'llarning ikkinchi guruh (A.B ko'rinishi) tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha: «A» ko'rinishi

Sha xs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	<i>yozib-man, yozayotib-man, yoza-man yozyap-man</i>	<i>yozib-miz, yozayotib-miz, yoza-miz, yozyap –miz</i>

II	<i>yozib-san, yozayotib-san, yoza-san, yozyap -san</i>	<i>yozib-siz, yozayotib-siz, yoza-siz, yozyap –siz</i>
III	<i>yozib-di, yozayotib-di, yoza-di, yozyap -ti</i>	<i>yozibdilar, zayotibdilar, yozadilar, yozyaptilar</i>

«B» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	<i>yozgan-man, yozar-man, yozadigan-man, yozmoqda-man, yozmoqchi-man</i>	<i>yozgan-miz, yozar-miz, yozadigan-miz, yozmoqda-miz, yozmoqchi-miz</i>
II	<i>yozgan-san, yozar-san, yozadigan-san, yozmoqda-san, yozmoqchi-san</i>	<i>yozgan-siz, yozar-siz, yozadigan-siz, yozmoqda-siz, yozmoqchi-siz</i>
III	<i>yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi</i>	<i>yozgan-lar, yozar-lar, yozadigan-lar, yozmoqda-lar, yozmoqchi-lar</i>

3. Uchinchi guruh tuslovchilar

Bular buyruq maylidagi sof fe'l negizidan so`ng qo`shiladi.

Fe'llarning uchinchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

SHa XS	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	<i>yozay, yozayin, o`qiy, o`qiyin</i>	<i>yozaylik, o`qiylik</i>
II	<i>yoz, yozgin, o`qi, o`qigin</i>	<i>yozingiz, o`qingiz,</i>
III	<i>yozsin, o`qisin</i>	<i>yozsinlar, o`qisinlar,</i>

Fe'llarning yasalishi, modal shakllari, tuzilish jihatdan turlari

O`zbek tilida fe'llar so`z yaslash xususiyatiga ega. Fe'llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usuli va sintaktik (kompozitsiya) usuli.

**1. Morfologik usulga ko`ra,** maxsus fe'l yasovchi affikslar yordamida boshqa so`z turkumlaridan (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so`zlardan) fe'l yasaladi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi so'z yasovchi affikslar qo'llanadi:

-la affiksi: *kuyla, bahola; tozala, oqla; sizla; tezla, sekinla; ufla, dodla; shitirla, shivirla* kabi. Bu affiks unumdor fe'l yasovchi affiks sanalib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi.

-a affiksi: *tuna, o'yna; qiyna, yasha; guldura, shildira* kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-r (-ar) affiksi: *eskir, qisqar, ko'kar* kabi. Bu affiks yordamida sifat asosidagi fe'l yasaladi.

-y (-ay) affiksi: *ulg'ay, kuchay, qoray; ko'pay, ozay* kabi. Bu affiks sifat va ravish asosidan fe'l yasaladi.

-sira affiksi: *suvstva, yotsira; sizstva, sensira* kabi. Bu affiks bilan ot, sifat, olmoshdan fe'l yasaladi.

-lan affiksi: *otlan, shodlan, zavqlan, ikkilan* kabi. Bu affiks tuzilishiga ko'ra qo'shma (-la+n) bo'lib, ot, sifat, son, undov so'zidan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbat (o'zlik)ni shakllantiradi.

-lash affiksi: *gaplash, bahslash, birlash, salomlash, xayrlash* kabi. Bu affiks ham tuzilishiga ko'ra qo'shma (-la+sh) bo'lib, u ot, son, undov so'zidan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbati (birgalik nisbat)ni shakllantiradi.

-i affiksi: *changi, boyi, tinchi* kabi. Bu affiks bilan ot va sifatdan fe'l yasaladi.

-ik (-iq) affiksi: *yo'liq, do'riq, birik, kechik* kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, son, ravishdan fe'l yasaladi.

-qir, -ira, -illa affikslari: *hayqir, yarqira, yaltira, miltira; taqilla, gurilla, vishilla* kabi. Bu affikslar yordamida undov va taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-ir (-ur) affiksi: *gapir, tupur*. Bu affiks ham unum so'z yasovchi affiks bo'lib, u ot va undov so'zidan fe'l yasaydi.

-ka, -sa affikslari: ham unum so'z yasovchi affikslar bo'lib, bu affikslar yordamida otdan fe'l yasaladi: *iska, suvsa* kabi.

2. Sintaktik usulga ko'ra ikki (ba'zan undan ortiq) so'z asosi birikishi bilan yangi so'z qo'shma fe'l yasaladi. Masalan: *Borlig'imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz (I.Karimov). Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi (Tafakkur gulshani)*. Bu misollardagi *ayon qilmoqdamiz, olib keladi* fe'llari sintaktik usul bilan yasalgan qo'shma fe'llardir.

Qo'shma fe'llarning qismlari qaysi so'z turkumidan tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) ot+fe'l qolipidan qo'shma fe'llar. Bunday fe'llarda

birinchi qism fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi fe'l bo'ladi: javob bermoq, qo'l qo'ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo'lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq kabi. 2) fe'l+fe'l qolipidan qo'shma fe'llarning har ikkala qismi fe'llardan tuziladi: *olib chiqmoq, sotib olmoq* kabi. Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi –b (-ib), -a (-y) qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qo'shimchalar ikkinchi qismga qo'shiladi.

Fe'l+fe'l qolipidagi qo'shma fe'llar kam miqdorni tashkil etadi.

Qo'shma fe'llarning har bir qismi o'z leksik ma'nosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan qo'shma fe'llar ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday fe'llarda leksik ma'no uning birinchi qismi bilan ifodalanib (yetakchi qism), ikkinchi qismi esa (ko'makchi fe'l) unga (yyetakchi qism ma'nosiga) qo'shimcha modal ma'no qo'shadi: *aytib ko'r, olib tur, ko'rib chiq* kabi qo'shilmalarda *aytib, olib, ko'rib* qismi yetakchi, *ko'r, tur, chiq* qismlari esa ko'makchi fe'ldir.

Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari

O'zbek tilida fe'l o'ziga xos turli modal ma'nolarga (qo'shimcha ma'nolarga) ega. Fe'llardagi modal ma'nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe'ldagi modal ma'no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe'l negiziga ish-harakatning davomliligi, takroriyliigi, kuchsizligi kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shadigan shakl yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil qilinadi. Fe'llarda modal ma'no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) **–la** affiksi fe'l negiziga qo'shilib, takror, davomiylik ma'nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirnala, cho`qila* kabi;

2) **–gila (-kila, -qila, -g`ila):** *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg`ila* kabi. Bu affikslar ham fe'l negiziga qo'shilib, harakatning davomiyliigi, takror ma'nosini bildiradi;

3) **–(i)msira, –(i)nqira:** *yig`lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe'l negiziga qo'shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) **–(i)sh** affiksi ham harakatning kuchsizligini bildiradi: *oqarishdi, to`lishdi* kabi;

5) **–qilla:** *chopqilla*. Bu affiks fe'l negiziga qo'shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma'nosini bildiradi.

Fe'ldagi modal ma'no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko'makchi fe'llar va to'liqsiz fe'llar yordamida hosil

qilinadi: yozib ko`r, aytib chiq, ko`ra qol, so`zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan kabi.

Ko`makchi fe'llar bilan shakllangan qo`shilmalar ikki so`z shaklidan tashkil topib, birinchi qism leksik ma'no ifodalaydi. SHu tufayli yetakchi fe'l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma'no ifodalaydi va ko`makchi fe'l sanaladi. Ko`makchi fe'llar yetakchi fe'lining ma'nosiga qo`shimcha modal ma'nolar qo`shadi.

Ko`makchi fe'l tarzida *kel, ket, bor, yubor, chiq, o`t, tur, qol, bo`l, ol, bil, qo`y, ber, tashla, ko`r, boshla* kabilar keladi. Bu fe'llar bir tomondan, harakat ma'nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya'ni *keldi, borgan, ko`rmoqchi, bilib* kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe'l shakliga qo`shilib, o`z leksik ma'nosini vaqtincha yo`qotib, o`zi aloqador bo`lgan fe'lining leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no qo`shadi va ko`makchi fe'lga aylanadi. Masalan: *yoza boshladi* fe'li tarkibidagi *boshladi* fe'li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo`shilmada o`z leksik ma'nosini yo`qotib yozish fe'lining leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no, ya'ni harakatning endi boshlanish ma'nosini qo`shgan.

Shu bilan birga ko`makchi fe'l yetakchi ma'nosiga davomiylik, tugallanganlik, takroriylik (*yoza tur, yozib tur, aytib bo`l* kabi); harakatning bajarilish imkoniyati (*yozib ko`r, aytib boq* kabi); harakatning boshqa shaxsdan so`zlovchiga yo`nalishi (*aytib ket, olib bor, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber*), harakatning bajarilish usuli (*yozib tashla, aytib yubor*) kabi modal ma'nolarni qo`shadi.

Fe'llarda modal ma'no juft va takroriy shakllar vositasida ham ifodalanadi. Yetakchi fe'l bilan ko`makchi fe'l bir xil shaklda kelib, juft fe'lni hosil qiladi. Bunda leksik ma'no salmog'i birinchi qismda bo`ladi: *aytdi-qo`ydi, o`tdi-ketdi, oldi-qoldi* kabi.

Ko`makchi fe'llar fe'lining –b (-ib), -a (-y) bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo`llanadi: *o`qib ber, o`qiy boshla* kabi.

Yetakchi va ko`makchi fe'ldan tashkil topgan fe'l shakllarida ko`makchi fe'l birdan ortiq bo`lishi ham mumkin: *yozib qo`ya qol, yozib berib qo`ya qol* kabi.

Ko`makchi fe'lli fe'l shakllarida shaxs-son qo`shimchalari ko`makchi fe'llarga qo`shiladi: *yozib chiqdim, yozib chiqding, yozib chiqdik, yozib chiqdingiz* kabi.



Ravish so'z turkumi, uning leksik-grammatik xususiyatlari

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o`rni, daraja miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va qanday?, qancha?, qachon?, qayer? singari so`roqlarga javob bo`luvshi so`zlar ravish deyiladi.

Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba`zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so`z turkumi ravish deyiladi.

Sifat so`z turkumi kabi ravish ham belgi bildiradi. Lekin sifat, asosan, predmetning belgisini, ravish esa, asosan, ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi. Ravish ish-harakatning bajarilish tarzi (astoydil urindi), payti (hozir keldi), o`rni (yuqoriga intildi), miqdori (kam gapirdi), darajasi (nihoyatda achindi), sababi (noiloj ko`ndi) va maqsadi (jo`rttaga indamadi)ni anglatadi. Ayrim ravishlar ba`zan otga bog`lanib, predmetning noaniq miqdorini (ko`p kitob), sifat va ravishning o`ziga bog`lanib, belgini kuchini; darajasini, o`xshashligini (obdon pishiq, ancha ilgari, toshday qattiq) ifodalaydi. Shu ma`no xususiyatlariga ko`ra ravish qanday? qay tarzda? qachon? qayerga? qayerda? qayerdan? qancha? qay darajada? nega? nima maqsadda? kabi so`roqlariga javob bo`ladi.

Ravish o`ziga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) ravish boshqa so`z bilan bog`lanib kelganda morfologik jihatdan o`zgarmaydi (so`z o`zgartiruvchi affikslarni olmaydi). Lekin ma`lum kelishik yoki egalik kelishik shaklida (qotib qolgan holda) ravishga ko`chgan so`zlar mavjud: kunda, yiliga, kunduzi, chindan, rostdan, yaqinda, birdan, birga kabi.

2) ravish belgi bildiruvchi so`z bo`lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog`ishtirib ko`rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas.

Ravish ham uch daraja ko`rinishiga ega:

oddiy daraja,
qiyosiy daraja,
orttirma daraja.

Daraja ma`nosi sifat darajalaridagi vositalarning o`zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.

Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog`ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o`ziga xos morfologik ko`rsatkichga emas: Usmonjon gunoxkorona jilmaydi (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog`ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko`pligi,

ya'ni kuchaytirish ma'nosini ko'rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi: astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq kabi: Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi (A.Qodiriy).

Ba'zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo'l bilan yanada orttirilgan bo'ladi: Sal burunroq o'tkazilsa, ancha bo'y bergan bo'ladi (Sh.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so'zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o'ta ortiqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: Bu yurtida eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing (E.Vohidov). Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular birbirisiz durust emas (Hadisdan).

3) ravishning fe'lga bog'lanib, gapda ko'pincha hol vazifasida kelishi, uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi: Ogahiy yaratgan she'riy misralar o'zining serjiloligi bilan kishilarni hamon o'ziga rom qilib kelmoqda (Kaykovus).

4) ravish sifat va ravishga, ba'zan otga bog'lanib kelib, belgini belgisini bildiradi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasi bajaradi: Tog'day og'ir bilak berdim... (H.O.). Ba'zi ravishlar otga ham bog'lanib, uning belgisini ko'rsatadi va sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar ravish so'z turkumiga o'tib ketmagani kabi, otga bog'langan ravishlar ham sifat turkumiga o'tmaydi: U ancha jo'yaklarni oraladi, ancha qovunlarni ushlab, qay birini uzishni bilmadi (O.). Yetti qizning onasi haligacha kelinchak (Topishmoq).

5) ravish otlashish xususiyatiga ega, ya'ni ravish bog'lanib kelgan ot gapda qo'llanmasligi mumkin. Bunday holda ravig otga xos egalik, kelishik, ko'plik affikslarini qabul qiladi va gapda ot kabi ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi: Ko'pni ko'rgan ko'hna dunyoda Baxt axtarib ko'plar o'tdilar (H.O.). Ilm ko'pga etkazar, hunar esa ko'kka (Maqol). Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o'g'lim (O.). Ravishlarda otlashish hodisasi, asosan, holat, miqdor belgisini (ba'zan payt belgisi) bildiruvchi ravishlarga xos.

6) ravish gapda hukm tushunchasini anglatib bosh bo'lak ot kesim vazifasida ham keladi: Odam har qancha olim bo'lsa ham, uning o'zi sezmagan kamchiliklari ko'p («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

7) ravish so'z yasaliş xususiyatiga ega. Ravish yasovchi maxsus so'z yasovchi affikslar mavjud: do'stona, yangicha, tasodifan, butunlay

kabi. Bunday usul bilan ravish yasashi morfologik usul sanaladi. Ravish sintaktik usul bilan ham yasaladi: bir oz, har gal, bir yo`la, dam-badam kabi.

8) ravishlarda modal ma'no yasashi ham mavjud. Bunday shaklda kelgan ravishlar harakat belgisining kuchsizligi, ta'kid, noaniqlik kabi ma'nolar anglatadi. Bu modal ma'no sintetik shakl orqali hosil qilinadi, ya'ni ravishga -roq, -gina (-kina, -qina) affikslarini qo'shish orqali: ko`proq, endigina, sekingina, kechagina kabi hamda ravishlarni aynan takrorlash yo`li bilan hosil qilinadi: asta-asta, tez-tez, sal-pal. Men ko`proq uni ko`rish niyatida yurar edim, lekin o`ylaganim bo`lmadi (P.Qodirov). Hasanali sekingina daricha ostig`a yotib hujra ichiga quloq soldi (A.Qodiriy). CHiqsak ham Sulton amaki bilan chiqardik. Sekin-sekin unga o`rgana boshlagandik (H.Nazir).

Ravishlarning ma'no turlari:

Ravishlar ma'no jihatdan olti guruhga bo`linadi:

- 1) holat ravishi,
- 2) payt ravishi,
- 3) o`rin ravishi,
- 4) miqdor-daraja ravishi,
- 5) sabab ravishi,
- 6) maqsad ravishi.

Holat ravishi. Holat ravishi ish-harakatning qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildirib, qanday? qay tarzda? qay holda? kabi so`roqlarga javob bo`ladi: asta, sekin, tez, piyoda, ayov, qo`qqisdan, tasodifan, xomlay, ochin-to`kin, butunligicha, jim, darov, darhol, zo`rg`a, birdan, birga, majburan, yaqqol, harbiylarcha, o`zbekcha, yuzma-yuz, ochiq-oydin kabi. Holat ravishlari, asosan, ravish holi otga bog`lanib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi: Bobur ota yurtidan ajralganini endi astoydil his qildi (P.Q.). Salqin shabadasi kelib olqishlar bizning g`olibona bayrog`imizni (A.M.). Auditoriya jimjit, hamma unga qarar (P.Q.).

Payt ravishi. Payt ravishi ish-harakatning paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? kabi so`roqlarga javob beradi. Payt ravishlariga: hozir, boya, hali, endi, oldin, burun, avval, qadim, bultur, tunov kun, yaqinda, hamisha, hanuz, hamon, bugun, indin, keyin, so`ng, yiliga, dastlab, har kuni, erta-indin, erta-kech, qishinyozin kabilar kiradi. Payt ravishlari asosan, payt holi, ba`zan kesim vazifasida keladi. Masalan: Sen bir birodaringning ayblarini zikr qilmoqchi bo`lsang, avval o`z

ayblaringni esla! (Imom Ismoil al Buxoriy). Bugun sening tug`ilgan kuning, Bugun uying to`ladi gulga (H.O.).

O`rin ravishi. O`rin ravishi ish-harakatning bajarilish o`rnini va harakat yo`nalgan tomonni anglatadi. O`rin ravishi qayerga? qayerda? qayerdan? kabi so`roqlarga javob berib, ularga nari, beri, oldinga, pastda, tubanda, yuqoridan, quyidan, u yoqqa, bu yoqqa, yaqinda, orqadan, to`g`riga, chapda, o`ngda kabilar kiradi. O`rin ravishlari gapda, asosan, o`rin holi ba`zan esa kesim vazifasini bajaradi: Biror kishi gapirgan paytida u yoq - bu yoqqa qarab qo`ysa, demak bu gap omonatdir (Hadisdan). Yoshi ulug` Nazarali ota shu erda (G`.G`ulom).

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi ish-harakatning miqdoriy belgisi, bajarilish darajasini, shuningdek, predmetning noaniq miqdori, belgining darajasi va miqdorini anglatadi. Miqdor-daraja ravishlari ma`no xususiyatiga ko`ra ikki guruhga bo`linadi: miqdor ravishi va daraja ravishi. Miqdor ravishi miqdor tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilishida uning miqdoriy belgisini ko`rsatadi. Shu bilan birga miqdor ravishi otga ham bog`lanib kela oladigan ravish turidir, shu jihatdan bu ravishlar predmetning noaniq miqdorini ham ifodalaydi. Miqdor ravishi qancha? so`rog`iga javob berib, ularga ko`p, mo`l, kam, bir oz, sal, picha, xiyol kabilar kiradi. Daraja ravishi daraja tushunchasini anglatib, harakat-holatning bajarilish darajasini ko`rsatadi. Ba`zan daraja ravishlari sifat va ravishning o`ziga bog`lanib kelib, belgi ma`nosini kuchaytirib keladi. Bu ravishlar qay darajada? so`rog`iga javob berib, ularga g`oyat, nihoyatda, obdon, o`ta, aslo, sira kabilar kiradi. Daraja ravishlari belgi ma`nosini kuchaytirishiga ko`ra (juda, g`oyat) sifat va ravishlarning orttirma darajasini hosil qiladigan element sifatida ham qatnashadi. Miqdor-daraja ravishlari, asosan, miqdor-daraja holi, ba`zan kesim vazifasini bajaradi: Mo`l-ko`l nur to`kar, ko`kdan qadrdon quyoshimiz (E.Vohidov). Biroq ko`zgu shunaqangi xira ediki, o`zimning yuzimni zo`rg`a ko`rardim (O`.H.). Miqdor-daraja ravishi predmetning belgisini bildirib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida ham keladi: Ko`p gap quloqqa yoqmas (Maqol).

Sabab ravishi. Sabab ravishi ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi. Sabab ravishi nega? nima uchun? nima sababdan? kabi so`roqlarga javob bo`ladi va ularga noiloj, noilojlikdan, chorasiz, chorasizlikdan kabi ravishlar kiradi. Sabab ravishi, asosan, sabab holi vazifasini bajaradi: Qunduzoyning qistashi bilan noiloj birinchi qatorga borib o`tirdi (Oydin).

Maqsad ravishi. Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nega? nima maqsadda? kabi soʻroqlarga javob beradi. Bu ravishlarga atay(in), ataylab, joʻrttaga, qasddan kabilar kiradi. Maqsad ravishi gapda, asosan, maqsad holi vazifasini bajaradi: Yuksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin (Poʻlat Moʻmin)

◎ Yordamchi soʻzlar, ularning turlari.

Yordamchi soʻz turkumlari mustaqil soʻz turkumlaridan farqlanadi. Ular lugʻaviy maʼnoga ega emas, morfologik jihatdan oʻzgarmaydi, gapda sintaktik vazifa bajarmaydi, yasalish xususiyatiga ega emas.

Mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmay, gap boʻlaklari va gaplarni oʻzaro bogʻlash, xilma-xil munosabatlarni koʻrsatish yoki ularga qandaydir qoʻshimcha maʼno qoʻshishga xizmat qiladigan soʻz turkumlari yordamchi soʻz turkumlari deyiladi. Yordamchi soʻz turkumlariga bogʻlovchi, koʻmakchi va yuklama kiradi.

Koʻmakchi haqida maʼlumot

Ot, va otlashgan soʻzlardan keyin kelib, ularni boshqa soʻzlarga tobelanish

yoʻli bilan bogʻlaydigan yordamchi soʻzlar **koʻmakchi** deyiladi: *Oʻz qoʻli bilan toʻgʻriladi.* Koʻmakchi qaysi soʻzdan keyin kelsa, oʻsha soʻz bilan birgalikda bir soʻroqqa javob boʻlib, bir xil gap boʻlagi vazifasini bajaradi

Koʻmakchilar quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sof koʻmakchilar lugʻaviy maʼnolarini butunlay yoʻqotib, vazifa jihatidan kelishik qoʻshimchalariga yaqin turadigan soʻzlardir: *bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yangligʻ.* Bunday koʻmakchilar urgʻu olmaydi, urgʻu koʻmakchidan oldingi soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi.

2. Koʻmakchi vazifasida qoʻllanuvchi soʻzlar (vazifadosh koʻmakchilar (22; 63) gapda oʻrni bilan mustaqil soʻz, oʻrni bilan koʻmakchi boʻlib keladi. Bular quyidagi turkumlardan koʻmakchilarga koʻchadi:

1) ot turkumidan: *tomon, tashqari, boʻyi, chamasi, holda, yoʻsinda;*

2) sifatdan: *sababli, tufayli, qarshi, chogʻli, doir, muvofiq, oʻzga, boshqa;*

3) feʼldan: *qarab, qaraganda, koʻra, tortib, degan, deydigan, osha, boʻylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;*

4) ravishdan: *avval, soʻng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan.*

3. Ko‘makchi-bohlovchilar bog‘lovchi vazifasini ham bajaradigan ko‘makchilar: *bilan, deb, deya*. Masalan: *daftar bilan qalam; Umrin shirin o‘tsin deb(deya), u ko‘p mehnat qildi.*

4. Ko‘makchi otlar o‘z lug‘aviy ma'nolarini saqlagan holda ko‘makchi o‘rnida kelib, harakat bilan predmet o‘rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan so‘zlardir. Bu so‘zlar o‘rin-payt, chiqish kelishigi va egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi: *old, o‘rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o‘rin, qosh, yoqa, tomon*. Bu so‘zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zdan keyin kelgandagina ko‘makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqig‘i ostida*. Aks holda, ular o‘rin otlari hisoblanadi: *stolning ustida (stolning qayerida?), uyning oldida*. Ko‘makchi otlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1) vertikal yo‘nalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag*.

2) gorizontal yo‘nalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon*;

3) aralash yo‘nalishni bildiruvchi: *o‘rta, ora, bosh*.

Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma'nolari

1) bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar: **Bilan** (qisqa shakllari: **-la, ila**) ko‘makchisi birgalik, vosita, tez bosg‘lanish, payt, ish-harakat ob'ekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi. Uchun* (qisqa shakli: **-chun**) ko‘makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. O‘qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat. D i q q a t ! -la, -chun* shakllari o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qo‘llarim-la, Vatan-chun. Uchun, bilan, kabi, singari* ko‘makchilari qaratqich kelishigidagi so‘zlar bilan ham qo‘llanishi mumkin: *shuning uchun, buning kabi, shuning singari*.

2. Ko‘makchilar va kelishiklar

Ko‘makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o‘xshaydi. Ayrim hollarda ko‘makchi kelishik qo‘shimchasi o‘rnida yoki kelishik qo‘shimchasi ko‘makchi o‘rnida almashib kelishi mumkin. Ko‘makchilar tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari o‘rnida almashib kelishi mumkin: *Radio orqali eshitdik - Radiodan eshitdik. Ukam uchun oldim - Ukamga oldim. Qalam bilan yozdi — Qalamda yozdi. Borgani haqida gapirib berdi - Borganini gapirib berdi*. Biroq hamma

vaqt ham ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilavermaydi: *Do 'stiga yordamlashdi* gapida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida ko'makchini qo'llab bo'lmaydi.

Bog'lovchi

Gap bo'laklarini yoki qo'shma gapning qismlarini bog'laydigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deyiladi. Bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko'rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur») Kumush ichkariga kirib ko'zdan g' oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. Yakka bog'lovchilar.

2. Takroriy bog'lovchilar.

Yakka bog'lovchilar uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanadi. Bular va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go'yo, basharti, garchi, go'yoki, holbuki, vaholanki.

Xazon qilmas Zaynabni zamon Va otashda o'rtanmas Omon (H.O.) Bu gullarni Azizxon, go'yo ona o'z farzandini ardoqlagan kabi ardoqlardi. (S. Jamol). Ahli majlis Otabekni ko'klarga ko'tarib maqtar edi, lekin Homid bu maqtashlarga ishtirok etmas va nimadandir g'ijingandek ko'rinar edi. (A.Qod.)

Takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari, shuningdek qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba'zan..., ba'zan, bir...,bir. Masalan, *U goh dashtdagi otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go'zal kanilarning mayin kulgulariga quloq solib yotarkan, olam beg'ubor bo'lib tuyular edi. (O.Yo.) Yo bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg'or ishni. (Cho'lpon). Dam bobomga, dam uning o'rtog'iga tikilaman. (O.) Dadasi... erkato'y o'g'lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.Yo.)*

Takroriy bog'lovchilardan yo,yoki yakka holda ham qo'llanishi mumkin, ham, ba'zan, bir so'zlari esa yakka holda qo'llansa bog'lovchi bo'la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo'lgan yoki dunyodan ko'z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o'zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) teng bog'lovchilar;

2)ergashtiruvchi bog'lovchilar.

1. Teng bog'lovchilar

Teng bog'lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo'laklarini va gaplarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Masalan, *Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. (Stefan TSveyg). Agar so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.O.)*

Teng bog'lovchilar biriktiruv, zidlov va ayiruv bog'lovchilariga bo'linadi.

1) biriktiruv bog'lovchilar guruhiga **va, hamda, bilan, ham** kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydi. Biriktiruv bog'lovchisi **va** eng ko'p qo'llanadigan bog'lovchidir. Bu bog'lovchi:

1) gapning uyushiq bo'laklarini bog'laydi: Aqlli odam olimlar, fozillar va tadbirli xunarmandlarning suhbatlarida bo'ladi, ulardan bahra oladi («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»);

2) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashga xizmat qiladi va turli ma'no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: Hamid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyoyi akanikiga taklif qilgali kelgani edi va biz ularni osh-suv qilib jo'natgan edik. (A.Qod.)

Ham, hamda bog'lovchilari ham gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun qo'llanadi. Sultonmurod ham do'st Zayniddin cheksiz quvondilar. (O.)

Kun sovidi hamda erlar muzladi.

Ham so'zi bog'lovchi bo'lib emas, balki gap ma'nosini yoki ayrim gap bo'laklarini ta'kidlash, kuchaytirish uchun ko'p ishlatiladi. Quyosh ham oltin to'rlarini to'kib, mag'rur ko'tariladi (O.)

Biriktiruvchi bog'lovchilari bilan ko'makchisi, -da, -u (-yu) yuklamalari ham qo'llanadi.

Bobom asta ko'zlarini yumadi-da, allaqanday uzoq bir xayolga ketadi. (O.) Onayu bola – gulu lola. (Maqol). SHudgorda Jannatxola bilan Zebixon qoldi. (S.A.)

1) zidlov bog'lovchilari guruhiga *biroq, ammo, lekin, balki, holbuki* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'laklarni yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ammo, lekin bog'lovchilari gap bo'laklarini bog'lab kelganda zidlik ma'nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to'ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo'shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda esa keyingi qism avvalgi qismda aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. SHuning uchun bu faktlar,

voqea-hodisalardan faqat bittasining bo'layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma'nosi anglashiladi. Masalan, *Mahallada bolalar ko'p, lekin bir-biriga o'xshamaydi. (O.) Har narsaning yangisi, ammo do'stning eskisi yaxshi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).* O'xshash mevalarni saralaydi, xidlaydi, biroq egisi kelmaydi. (O.)

Zidlov bog'lovchilari gap boshida kelib, avval aytilgan fikrga zid bo'lgan yangi fikrli gapni oldingi gapga bog'laydi:

Mazmunan bir-biriga qarama-qarshi gap bo'laklari va gaplarni bog'lashda –da, -u (-yu) yuklamalari ham qo'llanadi. *Sobir kichkina-yu, pishiqqina(O.)*

2) ayiruv bog'lovchilar guruhiga *yo, yoki, yo..., yo, yoxud, dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, ba'zan..., ba'zan, bir-bir* kabi so'zlar kiradi.

Bu bog'lovchilar narsa, voqea-hodisalarni boshqarishdan ajratish yoki ularning galma-gal bo'lishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Bulardan *yo, yoki, yo..., yo, xoh..., xoh* bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi: *Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko'rmadi, yo ko'rsa ham nazarga ilmadi. (CHo'lpon).* «YO podshoh biron erga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi», - dedi Zayniddin. (O.) *Xoh ishonig, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to'qqiz tonna paxta teribman. (S. A.)*

Ba'zan..., ba'zan, dam..., dam, goh..., goh bog'lovchilari esa galma-gallikni, navbat bilan almashinib, takrorlanib turishni ifodalaydi. *Dam tekisliklar bo'ylab balandga, dam pastga tushib boramiz. (O.) Nimqorong'i shiftga tikilib yotgancha xayol suraman: goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (O'.Hoshimov)* *Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga soldimi, har nechuk javob bermadi (A. Qod.)*

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelanish yo'li bilan bog'laydi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar grammatik aloqalarni ifodalash va ma'nolariga qarab: 1) aniqlov bog'lovchisi; 2) sabab bog'lovchilari; 3) chog'ishtiruv bog'lovchilari; 4) maqsad bog'lovchisi; 5) shart va to'liqsizlik bog'lovchilariga bo'linadi.

1) aniqlov bog'lovchilariga *ya'ni, -ki (-kim)* so'zlari mansub bo'lib, ular ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun qo'llanadi. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. *Mirzo Ulug' bek joyiga o'tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi nomani tutdi.(O.Y.)*

2) sabab bog'lovchilariga chunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar ergash gapni bosh gapga bog'lab, sabab, payt ma'nolarini ifodalaydi. *Chorasi bo'lmagan ishga kirishma, chunki undan qutilib bo'lmaydi. (Amir Temur o'gitlari) Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. (A.Qod.) U ikki, balki uch yildan buyon o'z to'yini kutar edi.(O.)*

3) chog'ishtiruv bog'lovchilari: *go'yo, go'yoki.* Bu bog'lovchilar bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi. *Sen menga baxsh etding ko'rkam bir yoshlik, go'yo qalbmida ulg'aydi quyoshday viqor. (J.Jabborov). Nihoyat chollar jim bo'lishadi, go'yo yoshliklarini sog'inganday boshlarini quyi solishadi(O.)*

4) maqsad bog'lovchisi toki qo'shma gap tarkibidagi maqsad ma'nosini ifodalagan ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi. *Yomonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar. (H.G'.)*

5) shart va to'liqsizlik bog'lovchilari: *agar (gar), modomiki, basharti, garchi, garchand, mabodo.*

Bu bog'lovchilar shart va to'liqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatdagi shartni, shu bilan birga to'liqsizlik ma'nolarini anglatadi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g'oya uchun kurash bilan o'tsa, bunday hayotga hech afsus qilmaslik kerak. (M.Ibr.) Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo'lsa ham, kechagidan ko'ra qo'rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. (O.)*

Bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar

Boshqa so'z turkumiga oid ba'zi so'zlar ham bog'lovchi o'rnida qo'llanadi: *bilan, deb, degan, bordi-yu, u(-yu), -da.*

Masalan: *Umrin shirin o'tsin deb, tilni tiydim hamisha. Ayvonda Hurmatbibi bilan onam choy ichib, gaplashib o'tirishibdi (O.)*

Yuklama

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo'ladi. (M.Hasaniy). Quyosh ham atayin nurlarini to'kib, mag'rur ko'tarildi. (O.)*

Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil: a) qo'shimcha holatdagi yuklamalar: *-mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku;* b) so'z holatidagi yuklamalar: *axir, faqat, xudi, nahotki, ham, naq, xolos.* To'ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g'irch etib ochildi-da, ruxsat so'rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G'iyosiddin Kichkina,

xudi shu erda, daricha ostida o'tirib, uni erkalatmasmidi.

1. Yuklamalarning turlari

Hozirgi o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga beradigan qo'shimcha ma'nolariga ko'ra yuklamalarni quyidagicha turlarga bo'lish mumkin.

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

-mi yuklamasi so'roq, taajjub, hayrat kabi ma'nolari bildiradi. Masalan: - Keling suluvligi Marg'ilonda ma'lum ekanmi? (A.Qodiriy) Men dalada ishlashish kerakmishmi? (O.)

-chi yuklamasi so'roq, kuchaytiruv, harakatga undash, buyruq, iltimos, ta'kid ma'nolarini bildiradi. Masalan, - Sizga-chi, Anvar (A.Qodiriy) - O'g'ling qaytsin-chi, bo'lmasa... (A.Qod.) - Loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishga va'da bering-chi, -dedi (A.Qod.) - O'rtoqjon, bir narsa desang-chi. (Cho'lpon).

-a (-ya) yuklamalari so'roq, taajjub, hayratlanish ma'nolarini bildiradi. Masalan, Bu gap oramizda qolsin-a! (T.Malik) Gulnorni sevishimni bilardi-ya (O.) - Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqasan-a? – deb qolmasinmi! (A.Qod.)

2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim), ham, hatto, hattoki, axir, nahot (nahotki).

-ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim) yuklamalari ma'noni kuchaytirish, to'liqsizlik, tezlik va davomiylik ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, Shundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim (A.Q.) - O'z qizingiz-ku, tengini topib bering-da! (Cho'lpon) Mirzo Ulug' bek maktubni o'qib tugatmasdanoq o'rnidan turib ketdi. (O.Yo.) Ko'plar yomg'irdan qochib ulgirmasdayoq, oftob charaqlab ketdi. (S.A.)

Ham, axir, hatto, hattoki, nahot (nahotki) so'z yuklamalari fikrni ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. (S.A.) Oyim o'rta bo'yli, oppoq, nozik tabiat ham ipakday muloyim, istarasi issiq xotin edi. (Zarifa Saidnosirova) Axir bu qal'ani olguncha ozmuncha talofat berildimi? (P.Q.) Sizni otasi o'rnida ko'rsak-u, nahotki sizdan beso'roq ish tutsak (A.Q.) Uzoq cho'zilgan bu suhbatda Miryoqubning qulog'i bir marta g'alati dingkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko'zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. (Ch.)

Bir qissakim, buning so'ngida

Sevishganlar topishgusidir. (H.O.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina). Bu yuklamalar turli soʻz turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab koʻrsatish va maʼno jihatdan ajratish uchun qoʻllanadi. Masalan, Oʻzi haqida oʻylamay, faqat xalqqa ilm berishga bel bogʻlagan olim kishi xudi shamga oʻxshaydi, sham oʻzini yondiradi, xalqqa ziyo bagʻishlaydi. (M.Xasaniy) Yoqimli doʻstgina suhbatini olis yoʻlni yaqin qiladi. (M.Xasaniy) Dunyoda koʻrib oʻturgan barcha orzuimiz, havasimiz faqat sengagina qarab qolgan (A.Qod.)

Faqat yuklamasi oʻrnida yolgʻiz soʻzi qoʻllanishi ham mumkin. Miryoqubning topishi yolgʻiz mingboshi orqali boʻlsa, unga «epaqa» nomini qoʻyish toʻgʻri boʻlarmidi. (Choʻlpon)

4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Bu yuklamalar oʻzi mansub boʻlgan soʻzning maʼnosini aniqlab koʻrsatish uchun qoʻllanadi. Ilm oʻrganib, ilmiga amal qilmagan kishi naq er haydab, uni ekmagan kishiga oʻxshaydi. (M.Xasaniy) Hayosi yoʻq poʻsti shilib olingan yogʻ och va xuddi yogʻi tugagan chiroqqa oʻxshaydi. (M.Xasaniy)

5. Gumon yuklamasi: -dir barcha soʻz turkumlariga qoʻshilib kela oladi va oʻzi aloqador boʻlgan soʻzga gumon, noaniqlik maʼnosini qoʻshadi: - Sizga nimadir vaʼda bergandir-da? (Isfandiyor)

6. Inkori yuklamasi *na... na* uyushiq boʻlaklar va qoʻshma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, boʻlishsizga aylantiradi. Inkori shaklli gap boʻlaklari va gaplar oldida kelganda, boʻlishsizlik kuchaytiriladi, taʼkidlanadi. Bu buyruqqa na ona eʼtiroz qildi va na qiz (Choʻlpon). Na qor, na yomgʻirdan darak bor. (O.)

2. Yuklamalarning yozilishi

1) *-mi, -oq(-yoq), -gina (-kina,-qina), -dir* yuklamalari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?*

2) *-chi,-ku,-u(-yu), -da, -a(-ya)* yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi: *Sen-chi? Keldi-ku!*

D i q q a t! Juft so'zlar tarkibida bog'lovchi vazifasida kelgan *-u(-yu)* yuklamasi kirilcha yozuvda so'zga qo'shib yoziladi: *Gapu* so'z ko'paydi. Yangi alifboda esa chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *Gap-u* so'z ko'paydi.

3) *faqat, ham, hatto,axir* kabi so'z yuklamalar ayrim yoziladi:

*Tog'larda **hatto** yoz oylarida **ham** yomg'ir yog'adi.*

Alohida guruh so'zlar, ularning turlari

Alohida olingan so'z turkumlari 3 guruhga bo'linadi.

Modal so'zlar – so'zlovchi o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlar

Taqlid so'zlar – holatga va tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar

Undov so'zlar – haydash, chaqirish, buyurish, undash va his-hayajonni bildiradigan so'zlar

Modal so'zlar deb, so'zlovchi o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlarga aytiladi.

Undov so'zlar deb, his-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish ma'nolarini ifodalovchi so'zlarga aytiladi.

Taqlid so'zlar deb, ovozga va holatga taqlidni bildiruvchi so'zlarga aytiladi.

Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar
2. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:
3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan*
4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*
5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*
6. Achinish: *afsus, attang, esiz*
7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim.*
8. Quvonch: *xayriyat.*
9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo`q*

Undovlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **His-hayajon** undovlari :*ie, o, voy, voy-ey, eh; : ho, o`h-ho`, ehe; hay-hay ; oh-oh; e-ha, eh, ha-ya, o; ha*

2. Buyruq-xitob undovlari :*hoy, hay* (bir marta aytilsa), *hey, allo, ey; ma, tss, jim, marsh; bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey; ishsh, ho`k, tak; pisht, drr, xix, hov-hov, cho`k, tek, hayt, chu*

TAQLID SO‘ZLAR MA’NO JIHATDAN QUYIDAGI TURLARGA BO‘LINADI:

1. Tovushga taqlid bildiradigan soʻzlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g`arch-g`urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov*

2. Holatga taqlid bildirgan soʻzlar: *yalt-yult, apil-tapil, g`uj-g`uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo`lt-mo`lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang*

Soʻz birikmasi sintaksisi.

Soʻz birikmasi — ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzning tobe grammatik aloqa (moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv) asosida birikishi natijasida hosil boʻlgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma — nutq birligi: ignaning koʻzi, kitobni oʻqimoq, oydin kecha va boshqa Har qanday soʻz birikmasi birdan ortiq mustaqil soʻzning birikuvidan hosil boʻladi, tuziladi va ikki qismdan — hokim va tobe qismdan tashkil topadi: oliy maʼlumot (oliy — tobe qism, maʼlumot — hokim qism).

Soʻz birikmasi komponentlarining tarkibiga koʻra sodda va murakkab turlarga boʻlinadi. Komponentlarining har biri bir soʻz shakliga teng boʻlgan soʻz birikmasi sodda soʻz birikmasi hisoblanadi: sayroqi qush, yigirma xonadon, tez yugurmoq kabi. Komponentlari yoki ulardan biri birdan ortiq soʻzdan, soʻz birikmasidan iborat boʻlgan birikmalar murakkab soʻz birikmasi deyiladi. Masalan, oliy maʼlumotli mutaxassis (oliy maʼlumotli — tobe qism, mutaxassis — hokim qism).

Tarkibidagi hokim qismning qaysi soʻz turkumidan boʻlishiga koʻra soʻz birikmasining 2 turi farqlanadi: ot soʻz birikmasi va feʼl soʻz birikmasi. Ot soʻz birikmasi hokim komponenti feʼldan boshqa turkumga oid soʻz (ot, son, ravish) bilan ifodalangan soʻz birikmasidir (yuk mashinasi, barcha oʻquvchilar, goʻzal qishloq va boshqalar). Feʼl soʻz birikmasi hokim kismi feʼl bilan ifodalangan soʻz birikmasilaridir (bogʻni aylanmoq, kitob oʻqimoq, tez yurmoq kabi). Tarkibidagi tobe soʻzning sintaktik vazifasiga koʻra 3 turi farqlanadi: aniqlovchili soʻz birikmasi (yangi kitob), toʻldiruvchili soʻz birikmasi (ukamni oʻynatdim) va holli soʻz birikmasi (tez gapirmoq, qishloqda yashamoq).

Soʻz birikmasi mazmun va ohang tugalligiga ega boʻlmaydi, fikr ifodalamaydi va shu xususiyati bilan sintaktik birlik boʻlmish gapdan farqlanadi.

 **Gapni boʻlaklari. Bosh boʻlaklar. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning turlari, ifodalanishi.**

Gap boʻlaklari — gap tuzilmasida muayyan soʻroqqa javob boʻlib, maʼlum bir sintaktik vazifani bajaruvchi soʻz va soʻz birikmalari. Gap boʻlaklari gap tuzilmasidagi ahamiyatiga koʻra quyidagi 2 asosiy turga ajraladi: 1) bosh boʻlaklar — gapning predikativ asosini tashkil etuvchi ega va kesimdan iborat boʻladi; 2) ikkinchi darajali boʻlaklar — bosh boʻlaklar bilan yoki oʻzaro bir-birlari bilan tobe aloqada boʻladi, hokim boʻlak maʼnosini aniqlab, toʻldirib, izohlab keladi hamda asosiy xususiyatlariga koʻra aniqlovchi, toʻldiruvchi va holga boʻlinadi.

Gap tarkibida tobe bogʻlanib maʼlum soʻroqqa javob boʻluvchi soʻz yoki soʻzlar birikmasiga gap boʻlagi deyiladi. Masalan, oʻqituvchimga gul berdim. Bu gapda uchta gap boʻlagi boʻlib, birinchisi kimga? soʻrogʻiga javob boʻlib, toʻldiruvchi vazifasida, ikkinchisi nima (ni)? soʻrogʻiga javob boʻlib, toʻldiruvchi vazifasida, uchinchisi nima qildi? soʻrogʻiga javob boʻlib, kesim vazifada kelyapti.

Ikkinchi darajali boʻlaklar: Aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol Aniqlovchi

Predmet maʼnosini bildiruvchi soʻzni izohlaydigan va uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali boʻlakka **aniqlovchi** deyiladi.

Aniqlovchi predmetning xususiyatini, qarashlilikini va shu kabilarni ifodalaydi. Aniqlovchi leksik-semantik va grammatik jihatdan uch xil boʻladi: **sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.**

1. Sifatlovchi aniqlovchi

Aniqlovchining bu turi ot bilan ifodalangan boʻlakka odatda bitishuv yoʻli bilan bogʻlanib, otdan anglashilgan predmetning belgi-xususiyatini, sifatini, miqdorini, oʻringa munosabatini bildiradigan aniqlovchining bir turidir. U *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?*, *qancha?*, *necha?*, *nechanchi?*, *qachongi?*, *qayerdagi?* soʻroqlaridan biriga javob boʻladi.

Sifatlovchi bogʻlanib kelgan soʻz **sifatlanmish** deb ataladi.

Sifatlovchi turli soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:

1) sifat bilan: *Quyoshning issiq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan boʻlib qoldi. (Oʻ.Hoshimov). Rang-barang gullar, har xil ekinlar, bogʻlar, suvlar quyoshda yashnab tovlanadi (Oybek). Yaxshi soʻz, yaxshi muomala, ishq-muhabbat — insonni insonga, qalbni qalbga bogʻlaydigan sehrli ip. (Sh.Ubaydullayev).*

2) **son bilan:** *Ikkita* zog'ora non bilan **to'rtta** turshakni dasturxonga qo'yib tamaddi qilgan bo'ldim. (O'.Hoshimov). **Birinchi** qor ham shu tepalik boshiga yog'adi, **birinchi** maysalar ham Xirmontepa bag'rida ko'karadi. (O'.Hoshimov). **Uch-to'rtta** yirik-yirik qora qushlar nimanidir mo'ljalga olib shoshilmay aylanishadi. (P.Qodirov).

3) **olmosh bilan:** *Allaqaysi* dengiz qushlarining odati qiziq ekan. (O'.Usmonov) **Har bir** qiyinchilikdan so'ng bir rohat bor. (Maqol).

4) **ot bilan:** Asfalt ko'chaning u er bu erida suv xalqob bo'lib yotardi. (O'.Hoshimov). **Kumush** so'zingni chaqaga mayda qilma. (Maqol).

-**dagi** affiksini olgan otlar ham sifatlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: **Uydagi** har bitta buyum Ma'sudani esimga soladi. (P.Q.). Toshkentlik yosh olim... **atrofdagi** cho'ponlarni to'plab, ziyofat qilib bermoqda... edi. (P.Q.).

5) **sifatdosh bilan:** Unda **dam oladigan** va yo **tunab qoladigan** manzil yo'q. (K.Yashin). **Aytar** so'zni ayt, **aytmas** so'zdan qayt. (Maqol).

6) **ravish bilan:** **Ko'p** befoyda narsalarni o'rganganingdan ko'ra senga doimo xizmat qiladigan besh-o'nta yaxshi o'gitni bilganing ma'qulroq. (Seneka).

7) **taqlid so'z bilan:** **G'ir-g'ir** mayin bahor shamoli. (Oybek). Bir gala o'rdak kanal bo'yiga tushdi. Bularning **g'aq-g'uq** ovozi ancha vaqtgacha bosilmadi. (S.Ahmad).

Sifatlovchi ba'zan so'z birikmasi bilan ham ifodalanadi. Masalan: **Qarama-qarshi turgan** ikki eshikning birini shaxt bilan ochdi... (P.Qodirov). *Dunyoda xushfe'l, olijanob, hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan* odamlar juda ko'p (O.Husanov).

Sifatlovchi vazifasini gapga teng predikativ birliklar ham bajarishi mumkin: **Himmati zo'r** kishining qimmatini zo'rdir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

2. Qaratqich aniqlovchi

Bu aniqlovchi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalangan bo'lakka muvofiqlashuv yo'li bilan bog'lanib, o'zi ifodalayotgan shaxs yo predmetga boshqa bir shaxs yoki predmetning qarashli, tegishli ekanini bildiruvchi aniqlovchining bir turidir. U kimning? nimaning? qayerning? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Qaratuvchi bog'lanib kelgan so'z **qaralmish** deb yuritiladi.

Qaratuvchi quyidagicha ifodalanadi:

1) **ot yoki ot o'rnida qo'llanadigan olmosh bilan:** *Tip-tiniq fazoning bir burchida turnalar karvoni ko'rindi. Zum o'tmay ularning o'ychan sadolari havoni to'ldirdi... (O'.Hoshimov).*

2) **harakat nomi bilan:** *U bilan uchrashishning ming xil yo'lini izladi. (S.Ahmad). Ovora bo'lmoqning nima zarurati bor? (A.Qodiriy).*

3) **otlashgan sifat bilan:** *Nomardga ishi tushmagan mardning qadrini bilmas. (Maqol). Tekinning minnati ko'p, mehnatning ziynati ko'p. (Maqol). Qo'rqqoqning ko'zi katta, ahmoqning so'zi katta. (Maqol).*

4) **otlashgan son bilan:** *O'nning yarmi – besh.*

5) **otlashgan olmosh bilan (sifat, son o'rnida qo'llanadigan otlashgan olmosh bilan):** *Buning sababi ko'p. (P.Qodirov).*

6) **otlashgan sifatdosh bilan:** *O'qiganning tili ko'p uzun bo'ladi. (Maqol).*

7) **otlashgan ravish bilan:** *Ertaning buguni bor, bugunning ertasi bor. (Maqol).*

Qaratuvchi ba'zi hollarda so'z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: ... kim bo'lsa ham **beklardan birining** shunday tinchsizlik chiqarishig'a «mumkin va bo'ladirg'an ish» deb qarar edi. (A.Qodiriy). **Cho'qqida yashashning ta'rifi** ulug', cho'qqidan olam keng, cho'qqida - yorug'!!! (Shuhrat).

Qaratuvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanadi. Masalan: Uyda **rohati yo'qning** ko'chada farog'ati yo'q. (Maqol). **Dili qing'irning** tili qing'ir. (Maqol). **Qizi borning** nozi bor. (Maqol).

Qaratuvchi ikki xil shaklda bo'lishi mumkin: belgili va belgisiz. Aniqllovchi qaratqich kelishigi affiksini olgan bo'lsa, **belgili** bo'ladi. Masalan: **Har narsaning dalili bor: aqlning dalili – fikr, fikrning dalili** sukutdir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Aniqllovchi qaratqich kelishigi affiksini olmagan bo'lsa, **belgisiz** sanaladi. Masalan: Xullasi, ikkala **qal'a** ahli bir-biri bilan ahil, bir onaning bolasidek yashar ekan. (S.Ahmad). Mashina **Hazrat Botir** burulishiga kelganda, Tolibjon **kabina** tomini tapillatib urdi. (S.Ahmad).

3. Izohlovchi

Bu bo'lak aniqllovchining bir turi sifatida o'zi aloqador bo'lgan so'zga bitishuv yo'li bilan bog'lanib, uni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlab, izohlab keladi.

Izohlovchi bog'lanib kelgan so'z **izohlanmish** deb qaraladi.

Izohlovchi, asosan, ot bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1) **unvonni**: Orqadagi «Chayka»dan **general** Luqmonov tushdi. (S.Ahmad). Ro'para kelgan bir ayoldan: «**Professor** Jabborov qayerda o'tiradi?»- deb so'radi. (O'.Usmonov).

2) **amalni**: Qishloq xo'jalik bo'limining mudiri Zokir Qo'shmoqov qotmadan kelgan, jikkakina yigit bo'lib, harakatchan yigit edi. (O'.Usmonov). Ko'rinishidan qo'rs odamga o'xshab ketadigan bo'lim mudiri O'sar Qurbonovich kirib keldi. (Y.Yakvalxo'jaev).

3) **kasbni, mutaxassislikni**: Rafiqov idorada turolmaydi, chunki idorada hisobchi Umar Alidan boshqa hech kim yo'q. (A.Qodiriy). Adabiyot o'qituvchisi YAmin afandi bir dasta insholar yozilgan daftarlar ustiga bitta kitob qo'yib, kirib kelarmish (Y.Yakvalxo'jaev). U rassom O'rol Tansiqboev asarlarining nushasini jurnallardan qirqib olib saqlardi. (S.Ahmad).

4) **qarindoshlikni**: Nomimni dadam emas, **bobom** Ahmadbek hoji qo'ygan ekanlar. (Y.Yakvalxo'jayev). Hojar **xolam** ham qozon nonni yopadilar-ku. (P.Qodirov). Saltanatning **ukasi** Mirvosil armiyadan ta'tilga kelgani, shunda qarindosh-urug'larining barii yig'ilganini xabarlashdi. (O'.Usmonov).

5) **laqabni**: Mahamat **chatoq** keyingi fikrlarini bir safga jamlayotganday tag'in bir oz jim qoldi. (O'.Usmonov). Islom Novcha ketmonini qo'liga olib, hammadan yarim gaz yuqori turgan qaddi bilan g'o'zaning ustiga keladi. (A.Qodiriy). Dalavoy kal dadangni tanirdi, o'shandan so'radim. (S.Ahmad).

6) **taxallusni**: Muso Toshmuhammad o'g'li **Oybek** - taniqli o'zbek yozuvchisi.

7) **jinsni**: Nahot qiz bola o'z otasini shunchalik mensimasa? (O.Yoqubov). Maktab yonidagi ikki xonali uychada o'qituvchi **qiz** Cho'lponoy istiqomat qiladi. (P.Qodirov).

8) **yaqinlikni**: Yana **do'stim** Mamajon Ali jonimga oro kirdi. (Y.Yakvalxo'jayev). Malohatxon **dugonasi** Hamida bilan Akromni hazil-mutoyibalar bilan kuzatib qo'yishar edi. (O.Yoqubov).

Izohlovchi ba'zan so'z birikmasi bilan ham ifoda etiladi. Masalan: Ayniqsa, **yosh olim** Aziz Qosimovning xizmatlari salmoqli bo'ldi. (O'.Usmonov). Xonaga kichkina sandiqcha ko'tarib, **asab doktori** Shamsiqamar kirib keldi. (Y.Yakvalxo'jayev). Bu ma'ruza institutning **bosh arxitektori** Zafar Boboyevning bir loyihasi to'g'risida edi. (O.Yoqubov).

Izohlovchi izohlanmishdan oldin ham, undan keyin ham kelishi mumkin: So'ng **boshqarma boshlig'i** G'iyosiddinovni esladi.

(P.Qodirov). U dadasi bilan mendan tashqari, Oqsoqolga, Xolposh **xolasiga**, Potma-Zuhra **kelinoyilariga** salom aytibdi. (O'.Hoshimov).

To'ldiruvchi

Ko'pincha fe'l bilan ifodalangan, ba'zan fe'ldan boshqa ayrim so'zlar bilan ifodalangan bo'lakka boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keladigan ikkinchi darajali bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi.

To'ldiruvchi boshqaruvchi so'zning talabiga ko'ra kelishik affikslari (qaratqich kelishigidan tashqari) yoki ko'makchilar orqali shakllanadi. Masalan: *Aql va idrok **quyoshga** o'xshaydi, ular **dog'larni** bekitadi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

To'ldiruvchi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan (fe'l, sifat, ravish, ot, modal so'z bilan) «to'ldiruvchi-to'ldirilmish» sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi.

To'ldiruvchi ifoda materialiga ko'ra egaga hamda qaratuvchiga o'xshaydi, faqat grammatik shakl jihatdan ulardan farq qiladi.

To'ldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Nodon kishi o'zining **nasl-nasabiga**, olim kishi esa o'zining **ilm va adabiga** tayanadi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Oy to'lmagan bo'lmasa ham, juda yorug', **shabadada** silkinayotgan terak **barglarini** bitta-bitta sanab chiqish mumkin. (P.Qodirov).

2. Olmosh bilan: *Shaharliklar... o'zlarini tog'da yashayotganday his qilishadimi?* (Sh.Xolmirzayev). *O'g'il ham otaga shunchalik o'rgandiki, u bilan birga yotadigan bo'ldi.* (Sh.Xolmirzayev).

3. Harakat nomi bilan: *Xalqning **hurmat qilishini** tilasangiz, avval o'zingiz hammani hurmat qiling.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). *Olim kishi... **maqtashlar** va **olqishlarga** uchib, o'zini yuqori tutmaydi, kamtar bo'ladi* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

4. Otlashgan sifat bilan: ***Yomondan** qoch, yaxshiga quloch och.* (Maqol). *Aziz o'g'lim, yomonlar bilan suhbatdosh bo'lma, ulardan arslondan qochganday qoch, hammaga rahm va shafqat ko'zi bilan qara.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). ***Botirdan** yaxshi ish qolar, donodan – yaxshi so'z.* (Maqol).

5. Otlashgan son bilan: *Chiqmasa... **bittasini** menga ber, bir-ikki oy boqay...* (P.Qodirov). ***Ikkovga** birov botolmas, otliqqa yayov etolmas.* (Maqol).

6. Otlashgan olmosh bilan: *Manmanlik yaramas odat ekanini anglang, hamisha **buni** yodingizda tuting.* («Oz-oz o'rganib dono

bo'lar»). *Kattami, kichikmi - har qaysisini hurmatlab, yoshi va martabasiga ko'ra muomala qiling. («Oz-oz o'rganib dono bo'lar»).*

7. Otlashgan sifatdosh bilan: *Ayрилganni ayiq er, bo'linganni bo'ri yer. (Maqol).*

8. Otlashgan ravish bilan: *Ko'kka boqma, ko'pga boq. (Maqol). Ko'pni bilgan oz so'zlar, oz bo'lsa ham soz so'zlar. (Maqol).*

9. Otlashgan taqlid so'z bilan: *To'g'ri, studentlar allaqachon paxtadan qaytib, yomg'irdan ivigan parklar yana oshiq-ma'shuqlarning shivir-shiviriga to'ldi. (O'.Hoshimov).*

10. To'ldiruvchi so'z birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan: *O'zingdan kichiklarni kamsitmang. («Oz-oz o'rganib dono bo'lar»).* Ular bosh silkib, *shundoq muhtaram odam bilan tanishganlaridan minnatdor ekanliklarini* izhor qilishdi (O'.Hoshimov).

To'ldiruvchi gapga teng predikativ birlik bilan ham ifodalanishi mumkin: *Yoshi ulug'ni ulug'lasa, baxt topar. (Maqol).*

1. Vositasiz to'ldiruvchi

To'ldiruvchi o'z vazifasi va shakliga ko'ra ikki turga ajratiladi: **vositasiz** to'ldiruvchi va **vositali** to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat o'ziga bevosita o'tgan predmetni bildiradi. Shu bois u odatda o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lakka bog'lanadi.

Vositasiz to'ldiruvchi ko'pincha tushum kelishigidagi birliklar bilan ifodalanib, *kimni? nimani? qaerni?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi: *Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra. (Maqol). Aqlni beaqldan o'rgan. (Maqol). U hamma qishloqlarni o'zi aylanib chiqdi. (P.Qodirov).*

Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi: *Temirjon quymoqdan ko'p yemadi. (J.Abdullaxonov).*

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodanganda, harakat butunlay predmetga o'tadi, chiqish kelishigidagi so'z bilan ifodalanganda esa, harakat qisman predmetga o'tganligi anglashiladi.

Vositasiz to'ldiruvchi ikki xil shaklda: belgili va belgisiz shaklda ishlatiladi. Belgili vositasiz to'ldiruvchi tarkibida tushum kelishigi – **ni** affiksi saqlanadi: *Bor borini yeydi, uyatsiz orini yeydi. (Maqol). Odamni po'stin emas, ish qizdiradi. (Maqol).* Belgisiz vositasiz to'ldiruvchida –**ni** qo'shimchasi qatnashmaydi, lekin uni tiklash mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday vositasiz to'ldiruvchi belgisiz tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi: *Non emoqchi*

bo'lsang, o'tin tashishdan erinma (Maqol). Tekin boylik axtarguncha, o'zingga bop hunar top (Maqol).

2. Vositali to'ldiruvchi

Vositali to'ldiruvchi bosh, qaratqich, tushum kelishiklaridan boshqa kelishikdagi birliklar bilan hamda ko'makchili ishlatilgan birliklar bilan ifodalanadi. Vositali to'ldiruvchilarning ma'nolari va so'roqlari turlichadir. Mazkur to'ldiruvchilarni jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari affikslari hamda «*bilan*», «*uchun*», «*to'g'risida*», «*haqida*» kabi ko'makchilar shakllantirib, ular *kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim uchun? kim to'g'risida? nima xususida?* kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Masalan: Inson **bilimga** intiladi va qachonki **unda bilimga** tashnalik so'nsa, u **insoniylikdan** mahrum bo'ladi. («Tafakkur gulshani»). **Do'sting bilan** sirdosh bo'l (Maqol). Mineral tuz, **bosh miya uchun** zarur bo'lgan efir moyi aksar yong'oqning **mag'zidan** olinadi. (J.Abdullaxonov). G'oyib endi «**studentlikning oltin davri**» **haqida** zavq-shavq bilan hikoya boshladi. (J.Abdullaxonov). Mana endi uning yaxshi **xislatlari to'g'risida** gap ketyapti. (J.Abdullaxonov).

Vositali to'ldiruvchi ko'pincha fe'l bilan ifodalangan bo'laklarga, ba'zan esa sifat, ravish, ot, modal so'z bilan ifodalangan bo'laklarga ham bog'lanib keladi. Masalan: Bu – professor Jamolovning saxiyligi, **yoshlarga** mehr-muhabbatining mevasi, albatta. (J.Abdullaxonov). Temirjon gamma nurlarini **hayot uchun** faqat ofat manbai deb bilardi. (J.Abdullaxonov). Temirjon uning bu uyda **xizmat qilishidan** bexabar edi. (J.Abdullaxonov). Uning tashqi ko'rinishi sokin tuyulsa-da, ichki dunyosi olam-olam **orzularga** boy... (J.Abdullaxonov).



Uyushiq va ajratilgan bo'laklar.

Uyushiq bulaklar - gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklar. Bunday bo'laklar gapda birdan ortiq holda qator kelishi mumkin va bu gaplar Uyushiq bo'lakli gaplar hisoblanadi. Masalan, Tobora ko'tarilayotgan quyosh o'rik, olma, shaftoli va giloslarning shoxlariga o'zining ertalabki yog'dusini sepmoqda. Bu gapda o'rik, olma, shaftoli va gilos so'zlari uyushib kelgan. Ular bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarmoqda. Ular o'zaro sanash ohangi va teng bog'lovchi yordamida birikkan. Gapning barcha bo'laklari uyushiq bo'la oladi: uyushiq egalar, uyushiq kesimlar, uyushiq aniqlovchilar, uyushiq to'ldiruvchilar, uyushiq hollar. Uyushiq bo'laklar qismlari, odatda, bir xil grammatik shaklda bo'ladi. Gapning bo'laklari

yakka-yakka holda yoki o'ziga bog'liq so'zlar bilan kengaygan holda uyushib kelishi mumkin: Abdulla Qahhorning ijodiy tajribasi kitobxonlar uchun ham, adabiyotshunoslar uchun ham, yosh yozuvchilar uchun ham bebaho bir manbadir (P. Qodirov). Kesim uyushib kelganda uni shakllantiruvchi vositalar (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bog'lama va ko'makchi fe'llar) oxirgi bo'lakka qo'shiladi: Mavzuni yaxshi tushunish uchun, avvalo, darsni diqqat bilan tinglash berilgan topshiriqlarni bajarish, muntazam takrorlash kerak; Men uzoq yillardan buyon shu shaharda yashab, o'qib, ishlab kelyapman. Agar ushbu vositalar har bir kesimga qo'shilsa, bunday gap uyushiq kesimli sodda gap emas, qo'shma gap hisoblanadi: Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi. Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:

- a) tartibni o'zgartirish;
- b) bir nomni boshqacha nomlash.

Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar.

Undalma — so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet deb tasavvur qilingan hodisani bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi. U., kirishlar yoki kiritmalar kabi, gapni kengaytiradi, ammo uning bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, yozuvda vergul yoki undov belgisi bilan ajratiladi. U. Gap boshida ham, o'rtasida ham va oxirida ham kelishi mumkin. Qiyoslang: Uka, bu ishlaring menga yoqmayapti; Bu ishlaring, uka, menga yoqmayapti; Bu ishlaring menga yoqmayapti, uka. Bolalar! Ko'chada ehtiyot bo'linglar. Gap boshida U. maxsus intonatsiya bilan aytiladi va ba'zan vokativ gap vazifasini bajaradi. U., kirish, kiritma kabi, fikr bayonida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ularni gapning uchinchi darajali bo'laklari sifatida qarash ham mavjud.



Sodda gapning tarifi va tasnifi.

SODDA GAP — o'z tarkibida birgina predikativ birlikka ega bo'lgan, ma'lum fikr ifodalay oladigan, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik birlik (Sen kosmonavt bo'lmoqchimisiz? Tog' tepasida to'planayotgan bulutlar tushga borib quyuqlasha boshlaydi. Men sizga mashq chalib beray). Sodda gap bir predikativ aloqani namoyon qiluvchi sodda birlik sifatida ikki yoki undan ortiq sodda predikativ birliklarning qo'shilmasidan iborat bo'lgan qo'shma gapga qaramaqarshi qo'yiladi.

Sodda gapning asosiy tavsiflari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: uning muayyan so'z shakllari (ran predikativ asosining tarkibiy qismlari) orqali shakllanuvchi sintaktik strukturasi va mazkur tarkibiy qismlarning o'zaro munosabati; uning semantik strukturasi; so'z tartibi va ohang; ran predikativ asosining tarkibiy qismlari yoki predikativ asosning kengaytiruvchilari hisoblangan gap bo'laklari.

Zarur bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra sodda gap turlari.

Gaplar tuzilishi jihatdan ikki xil bo‘ladi va ular o‘zaro grammatik asoslar miqdoriga ko‘ra farqlanadi:

1. Sodda gaplarda bitta ega va kesim munosabati, ya’ni bitta grammatik asos mavjud bo‘ladi: Dars boshlandi. Yomg‘ir yog‘madi. Bahor keldi. Ba’zan sodda gap egasiz, faqat bitta kesimdan iborat bo‘lib, boshqa bo‘laklar shu kesim atrofiga birlashadi: Bugun Buxorodan ukam bilan uchib keldim.

2. Qo‘shma gaplarda ikki va undan ortiq ega va kesim munosabati, ya’ni grammatik asos mavjud bo‘ladi: Qo‘ng‘iroq chalindi va dars boshlandi. Qiyoslang: Bugun havo issiq (sodda gap). Quyosh chiqdi, kunlar isidi.



Qo‘shma gapning ta’rifi va tasnifi.

Bu tasnif sof shakliy bo‘lib, gap orasidagi ma’noviy bog‘lanish qanday qo‘shimcha (shakliy) vosita bilan ta’minlanishiga tayanadi.

Bu asosga ko‘ra qo‘shma gapning quyidagi turlari ajratiladi:

- a) faqat ohang bilan bog‘langan qo‘shma gap;
- b) yuklamalar vositasida bog‘langan qo‘shma gap;
- d) teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gap;
- e) ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gap;
- f) nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan qo‘shma gap. Bog‘ovchi vositalarning ma’nodoshligi va vazifadoshligi.

Qo‘shma gaplarning bog‘ovchi vositalarga ko‘ra yuqorida berilgan 5 turi asosida ma’nodoshlik munosabati juda kuchli. Xususan, faqat ohang bilan bog‘langan qo‘shma gapda ifodalangan ma’noviy munosabat qo‘shma gapning boshqa turi bilan ham berilishi mumkin. Biriktiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gap va faqat ohang bilan bog‘langan qo‘shma gap sinonimiyasi juda keng. 1. Bahor boshlandi, dalada ishlar qizidi.

2. Bahor boshlandi va dalada ishlar qizidi.

Qo‘shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma’noviy munosabatga ko‘ra turlari

Bu tasnifda qo‘shma gap tarkibidagi qism (gap)lar o‘rtasidagi ma’noviy munosabatga asoslaniladi va ikkita muhim nuqtaga e’tibor qaratiladi:

1) qo‘shma gap tarkibiy qismlari orasida qanday ma’noviy munosabat (masalan, payt, o‘rin, sabab, birin-ketinlik, bir vaqtdalik, izohlash, qiyoslash va h.) ifodalanganligi;

2) aynan bir ma'noning turli yo'llar bilan ifodalanishi mumkinligi (yoki aksincha). Shakl va mazmun munosabati nisbiy mutanosiblikda (ya'ni asimmetrik) bo'lganligi sababli qo'shma gapda polisemiya va omonimiya hodisalari kuzatiladi.

Jumladan, payt munosabatini ifodalashda quyidagicha sinoni iya hodisasini kuzatishimiz mumkin: 1. O'qituvchi keldi, dars boshlandi. 2 . O 'qituvchi kelsa, dars boshlanadi. 3. O 'qituvchi keldi-yu, dars boshlandi. 4. O'qituvchi keldi, shu zahoti dars boshlandi va h.k.

Ko'chirma gap va o'zga gap.

Ayrim hollarda so'zlovchi o'z nutqida o'zganing gapini ham ishlatishi mumkin. Bunday qo'llangan o'zgalarning gapi so'zlovchi nutqida hech qanday o'zgarishsiz yoki mazmuni saqlangan, ammo grammatik xususiyatlari o'zgartirilgan holda qo'llanishi mumkin.

Shunga ko'ra o'zga gap, asosan, ikki turga bo'linadi:

1) ko'chirma gapli qo'shma gap.

2)o'zlashtirma gap.

Mazmuni, leksik va grammatik xususiyatlari o'zgartirilmay, aynan berilgan o'zga gap ko'chirma gap deyiladi. Bunday gap odatda so'zlovchi (avtor) gapi bilan birga qo'llanadi.

Shuning uchun ham ko'chirma gap ikki qismdan iborat bo'ladi:

1) ko'chirma gap (o'zganing gapi),

2)avtor (so'zlovchi) gapi.

Ko'chirma gap so'zlovchi avtor (gapi bilan birga qo'llanadi) va so'zlovchi gapi ko'chirma gap kimning gapi ekanligini bildiradi. So'zlovchi gapining kesimi ko'pincha dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zladi, aytdi kabi fe'llar bilan ifodalanadi. Ko'chirma gap so'zlovchi gapidan oldin va keyin keladi. Shuning uchun so'zlovchi gapi ko'chirma gap ichida va ko'chirma gap avtor gapi ichida keladi. Agar ko'chirma gap darak gap shaklida bo'lib so'zlovchi gapidan oldin kelsa, ko'chirma gapdan keyin vergul va tire qo'yiladi va ko'chirma gap qo'shtirnoq ichiga olinadi.

Masalan: "Men maymunjon tergani shu yerga kelgan edim —dedi Qo'ziboy. (H.N.) ko'rinishi "K"-,S.

Ko'chirma gap so'roq, buyruq yoki his-hayajon gap bo'lsa, so'roq va undov belgilari qo'shtirnoq yopilmasdan oldin qo'yiladi: "Ota, qayergacha quvib bordingiz?" - dedi Haydarov cholning gaplarini tez-tez yozib borarkan. (S. A.) "K"?- S. "Xat !" xat!" deb shivirlashdi bedapoyaga yugurgan bolalar. (H.N.)

"K!"—S. Agar ko'chirma gap so'zlovchi gapidan keyin kelsa, so'zlovchi gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Ko'chirma gap so'roq, buyruq yoki his-hayajon gap bo'lsa, so'roq va undov belgilari qo'shtirnoq yopilmasdan oldin, ko'chirma gap darak gap bo'lsa, nutq qo'shtirnoq yopilgandan keyin qo'yiladi.

Dedi: "Qaydin sen ey Majnuni gumroh!"

Dedi: "Majnun Vatandin qayda ogoh"

S: "K?" S: "K!" S: "K." So'zlovchi gapi ko'chirma gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi: Ko'chirma gapning uzilgan qismida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa yoki hech qanday tinish belgisi bo'lmasa, so'zlovchi gapining har ikki tomonidan vergul va tire qo'yiladi. Masalan: Kampir ketish uchun eshikka tomon borarkan, Aleksey: "Rahmat **buvijon**", -dedi -S: "K".

Matnning ta'rifi va tasnifi. Matnning xususiyatlari.

Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni

lug'atda tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.

3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.

Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi

tahrirdagi izohli lug'atda ham ayni ta'kid saqlangan: matn [arabcha – yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst]

1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat.

2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy o'rinni egallaydi.

Matnning qurilishi. Matnni shakllantiruvchi vositalar

Osonlik bilan tushuniladigan matn tuzilishi mavjud, lekin ba'zida tushunish oson emas. Matn materiallarini to'plashning ayrim turlarini

ko‘rib chiqing va eng muhimi, biz qulay va tez o‘qiladigan va chuqur tushunilgan bunday matnni yaratishga maslahatlar beradi.

Vazifaga qarab, tuzilish elementlari yaratuvchining o‘zi tomonidan belgilanadi. Barcha mualliflar buni qanday qilib to‘g‘ri qilishni bilishmaydi, chunki ba'zi matnlar hatto diagonalda ham to‘liq tushuniladi, boshqalar sizni to‘xtatib turadi.

Ichki tuzilishmatndan, bu ularning tegishli doirasidagi g‘oyalarni taqsimlash bilan bog‘liq paragraflar, shunday qilib xabar siz bermoqchi bo‘lgan narsa tushunarli va mantiqiy.

tashqi tuzilishmatndan, bu matnning taniqli segmentlarida paragraflarni tartiblash bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchiga g‘oyalarning tartibli va uslubiy yo‘lini taqdim etish.

Biroq, tashqi tuzilma deyarli har doim biz yaratayotgan matn turiga bog‘liq bo‘ladi, chunki biz yozgan narsa hikoya bo‘lsa, biz juda boshqacha yakuniy maqsadga ega bo‘lamiz. mashq yoki a reportaj jurnalistik. Hatto oldindan belgilangan sxema yoki taqdimot namunasi bilan boshqariladigan matnlarning juda o‘ziga xos holatlari mavjud.

Adabiy til uslublari.

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublari, til vositalarining nutqda qo‘llanish yo‘llari, fonetik, lug‘aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma‘lum bir sohada qo‘llanadigan ko‘rinishi adabiy til uslubi deyiladi.

O‘zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor

1. So‘zlashuv uslubi

Keng qo‘llanadigan uslublardan biri so‘zlashuv uslubidir. Bu uslubda ko‘pincha adabiy til me‘yorlariga rioya qilinadi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialogik shaklda bo‘ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasi dan tuzilgan nutq dialogik nutq deyiladi.

So‘zlashuv uslubida ko‘pincha turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, grammatik vositalar, tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi mumkin: Obbo, hamma ishni do‘ndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!

So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. Oilada, ko‘cha – ko‘yda kishilarning fikr almashish jarayonida qo‘llanadigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi deyiladi.

Soʻzlashuv uslubiy adabiy va oddiy soʻzlashuv uslublarini oʻz ichiga oladi. Adabiy til meʼyorlariga qatʼiy amal qilingan soʻzlashuv uslubi adabiy soʻzlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega boʻlmagan soʻzlashuv uslubi esa oddiy soʻzlashuv uslubidir. Soʻzlashuv uslubining har ikki turi koʻpincha dialog shaklida roʻyobga chiqadi. Bu uslubda soʻzlar odatda kinoya, piching, qochirmalarga boy boʻladi. Soʻzlashuv uslubining yana bir oʻziga xos xususiyati erkinligidir. Jumlar qisqa va taʼsirli boʻlib, koʻpincha soʻz – daplar, toʻliqsiz gaplar, maqol va matallar hamda iboralardan keng foydalaniladi. Umumxalq tili maʼlum bir xalqning soʻzlashuv tilidir. Adabiy til esa maʼlum bir **til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan**, sayqal berilgan tildir. Umumxalq tili kengroq hajmda boʻlib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid soʻzlar, atamalar, jargonlar, maʼlum toifa (biror ijtimoiy guruh) ga oid soʻzlarni ham oʻz ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin boʻlib, til qoidalariga asoslanilmaydi.

Soʻzlashuv uslubida gapdagi soʻzlar tartibi ancha erkin boʻladi. Koʻproq sodda gaplar, toʻliqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. Oilada, koʻcha – koʻyda kishilarning fikr almashish jarayonida qoʻllanadigan nutq uslubi soʻzlashuv uslubi deyiladi. Soʻzlashuv uslubiy adabiy va oddiy soʻzlashuv uslublarini oʻz ichiga oladi. Adabiy til meʼyorlariga qatʼiy amal qilingan soʻzlashuv uslubi adabiy soʻzlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega boʻlmagan soʻzlashuv uslubi esa oddiy soʻzlashuv uslubidir. Soʻzlashuv uslubining har ikki turi koʻpincha dialog shaklida roʻyobga chiqadi. Bu uslubda soʻzlar odatda kinoya, piching, qochirmalarga boy boʻladi. Soʻzlashuv uslubining yana bir oʻziga xos xususiyati erkinligidir. Jumlar qisqa va taʼsirli boʻlib, koʻpincha soʻz – daplar, toʻliqsiz gaplar, maqol va matallar hamda iboralardan keng foydalaniladi. Umumxalq tili maʼlum bir xalqning soʻzlashuv tilidir. Adabiy til esa maʼlum bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan, sayqal berilgan tildir. Umumxalq tili kengroq hajmda boʻlib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid soʻzlar, atamalar, jargonlar, maʼlum toifa (biror ijtimoiy guruh) ga oid soʻzlarni ham oʻz ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin boʻlib, til qoidalariga asoslanilmaydi.

2. Ilmiy uslub

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq maʼlumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, taʼriflar)ga boy boʻlishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: Yomgʻir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yogʻini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm boʻladi

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi

3. Rasmiy-idoraviy uslub

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi.

Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarining bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar **ishlatiladi**, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak **gaplardan**, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: O'z lavozimini suiiste'mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.

Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarining bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: O'z lavozimini suiiste'mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.

4. Ommabop (publitsistik) uslub

Tashviqot-targ'ibot ishlarni olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi: Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.

5. Badiiy uslub

Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi. O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish – xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar uslubiy xoslanmagan yoki betaraf so'zlar deyiladi

Tovush, urg'u, bo'g'in, undalma, morfema, omonim, sinonim, uslubiyat kabi qator so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Chunki bu so'zlar asosan tilshunoslik fani doirasida qo'llaniladi.

Osmon, xalq, bayram, o'quvchi, dars, tushlik, salomatlik, odam kabi so'zlar barcha nutq uslublari doirasida birdek qo'llanish imkoniga egaligi sababli uslubiy betaraf so'zlar qatoriga kiradi. Ya'ni, so'zlashuv **uslubida ham**, kitobiy uslubda ham ishlatiladigan so'zlar uslubiy betaraf so'zlar hisoblanadi: suv, tog', bola, xat

Leksik va fonetik uslubiyat.

leksik semantik usul. Bunda belgi bildiruvchi so'zlar oldidan yoki ular o'rniga boshqa turkumdagi so'zlar qo'llanadi: zahar (garmdori), olov (bola);

fonetik usul: a) unlilar cho'zib aytiladi: tooza, chuquur;

b) undoshlar ikkilanadi:tekkis, yummsheq.

3. **Qiyosiy** daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xud di

shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga -roq qo'shimchasini qo'shish yoki sifatdan oldin bir-biridan, undan ham, yanada so'zlarini keltirish bilan yasaladi:

olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq. Bir-biridan go'zal, bunda ham battar, yanada kuchli.

3.Ozaytirma daraja belgi darajasining normal darajaga yetmaganligini, normaldan pastligini ifodalaydi:

1) qo'shimchalar yordamida: oqish, qizg'ish, qoramtir, roq qo'shimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi): eskiroq (kiyim); 2) sifatdan oldin yarim, nim, och, xiyol, chizi, sal, aytarli, uncha, u qadar so'zlarini keltirish bilan: yarim ochiq (eshik), uncha katta emas.

Morfologik uslubiyat.

Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funksional) uslub deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi.

Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi.

Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud:

- 1) so'zlashuv uslubi;
- 2) rasmiy uslub;
- 3) ilmiy uslub;
- 4) publitsistik uslub;
- 5) badiiy uslub.

Vazifaviy uslubni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. So'zlashuv uslubi — kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos amal qilishidir. Vazifaviy uslubning bu turi o'ziga xos ish ko'rsatish sharoiti, ya'ni fikr olishuvning bevositaligi, til vositalarini saylab ishlatilmasligi bilan, shuningdek, ohang vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressivemotsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan, farzand — jujuq, dunyodan o'tmoq — jon bermoq, imtihondan o'ta olmaslik — imtihondan yiqilmoq kabi juftliklarning ikkinchisi asosan so'zlashuv uslubiga xos. So'zlashuv

uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik oʻziga xosliklarga ega. Rasmiy uslub (rasmiy ish qogʻozlari uslubi) — hozirgi oʻzbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va yuridik ishlarda amal qiladigan bir koʻrinishidir. Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va koʻrsatmalar, shartnomalar, har xil rasmiy hujjatlar, tashkilotlar oʻrtasidagi yozishmalar rasmiy uslubda yoziladi. Bu uslub boshqa uslubdan lugaviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda soʻz va soʻz shakllarini qoʻllashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qoʻshimchalarini olgan soʻzlar, koʻtarinki, tantanavor yoki shevaga oid soʻzlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan soʻzlar, oʻxshatish, mubolagʻa kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Rasmiy ish qogʻozlari matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmuniy toʻliqlikdan iborat zaruriy sifatlari undagi oʻziga xos soʻz qoʻllash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali taʼmin etiladi. Bu uslubdagi gap qurilishi, odatda, tasniflovchi, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga asoslanadi. Shuning uchun ham rasmiy ish qogʻozlari (hujjatlar)da nisbatan uzun jumlar, murakkablashgan, uyushiq boʻlakli gaplar koʻp qoʻllanadi. Rasmiy gap tarkibida odatdagi soʻz tartibiga qatʼiy rioya qilinadi. Rasmiy uslubda soʻroq va undov gaplar deyarli qoʻllanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qogʻozlari matnini tuzishda turgʻunlashgan, qoliplashgan soʻz birikmalaridan keng foydalaniladi. Masalan, buyruqda "... soʻm maosh bilan... lavozimiga tayinlansin", yoki xizmat yozishmalarida

"Sizga...ni maʼlum qilamiz". "...ga korxona kafolat beradi"

kabi qoliplashgan tuzilmalar qoʻllanishi mumkin.

Sintaktik uslubiyat.

1) nutq birliklarini shakllantirishning muayyan tillar uchun xos boʻlgan vositalari majmui;

2) grammatikaning soʻzlarni soʻz birikmalari va gaplarga, sodda gaplarni esa qoʻshma gaplarga birikish usullarini oʻrganuvchi, soʻz birikmalari va gaplarning tuzilishi, maʼnosi, oʻzaro taʼsirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi boʻlimi. "Sintaksis" termini soʻz birikmalari va gaplarni hamda ularning tilda qoʻllanishini qamrab oluvchi grammatik qurilish maʼnosini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Tilning grammatik qurilishida Sintaksis juda katta ahamiyatga ega, chunki uning tarkibiga bevosita kishilarning muomala muloqot jarayonini amalga oshirishga

yordam beruvchi sodda gap va qo'shma gap kabi til birliklari kiradi. Sodda gap muayyan voqeahodisani, qo'shma ran voqeahodisalar orasidagi aloqamunosabatni, ran bo'lagi esa voqeahodisa unsurlarning vazifalarini ifodalaydi.

Sintaksis morfologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Sintaksisda, xuddi morfologiyada bo'lgani singari, so'z asosiy birlik hisoblanadi, lekin u shakl yasalishi jihatidan emas, balki so'z shakllarining so'z birikmasi va gaplarni tuzishdagi ishtiroki jihatidan o'rganiladi. So'z birikmalari va gaplar tilning asosiy sintaktik birliklari va ularning har biri o'z ichki xususiyatlariga egadir.

Gap, gap bo'lagi, so'z birikmasi Sintaksisning asosiy birliklaridir. Bularga keyingi paytlarda abzats, period, matn kabi birliklar ham kiritilmoqda. So'z birikmasi tobe aloqa (bog'lanish) vositalari — moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv yordamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zdan qosil bo'ladi va faqat ran tarkibidagina amal qiladi. Gap Sintaksisning markaziy birligidir. U struktursemantik qolip va nutq birligi bo'lmish fikr sifatida o'rganiladi. Gap fikrni — tashqi olam bilan aloqa tufayli yuzaga keladigan histuyg'ularni ifodalash vositasidir. Gap bir mustaqil so'zdan ("qorong'ilashmoqda", "jimjitlik"), aksariyat hollarda esa bir necha so'zdan hosil bo'ladi. Asosan, sintetik tillar, shuningdek, analitik tillarning xususiyatlariga ega bo'lgan o'zbek tilida gapdagi so'zlarning bog'lanish vositalari sifatida yordamchi so'zlar — ko'makchilar va bog'lovchilarni, suz tartibini, ohangni va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Sof analitik tillarda gapdagi suzlarning bog'lanish vositalari, asosan, yordamchi so'zlar bo'lsa, agglyutinatив va amorf tillarda mazkur vazifani so'z tartibi bajaradi.

Matnni lingvistik tahlil qilish:

Matnning semantik yaxlitligi mavjud voqelikdagi bog'lanish va bog'liqliklar (ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari, inson, uning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi, jonsiz tabiat ob'ektlari va boshqalar)ni aks ettiradi.

Nutq predmetining birligi gapning mavzusidir. Mavzu esa matnning semantik o'zagi, uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir.

“Matn mazmuni,, tushunchasi nutqning axborot mazmuni kategoriyasi bilan bog'liq jarayon bo'lib, faqat matnga xosdir. U o'quvchiga hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni, ularning barcha sohalaridagi ahamiyatini muallifning individual munosabati orqali xabardor qiladi, unga semantik yaxlitlik beradi.

Katta matnda yetakchi mavzu bir qator kichik tarkibiy mavzularga, kichik mavzular esa o'z navbatida paragraflar (mikro-mavzular)ga bo'linadi.

Matnda bayon qilinayotgan fikrning to'liqligi matnning semantik yaxlitligi bilan bog'liq bo'lib, to'liq tugallangan, yaxlit tugal mazmunga ega matn mazmunni to'liq aks ettiruvchi sarlavhani tanlash orqali amalga oshiriladi.

Shu tariqa matnning semantik yaxlitligidan uning quyidagi xususiyatlari kelib chiqadi:

Matn — bu ma'lum bir mavzudagi bayonot;
Matn so'zlovchining niyatini, asosiy g'oyasini ifodalab beradi;
Har qanday hajmdagi matn nisbatan avtonom (to'liq) bayonotdir;
Matnda gaplar mantiqiy jihatdan bog'langan bo'ladi;
Matn uchun uning mazmuniga mos sarlavha tanlash mumkin;
To'liq matn odatda boshlanish va yakunga ega bo'ladi.

[illegible]

[illegible]

[illegible]

Eshonqulova Malika Zayniddin qizi

ONA TILI O‘QISH SAVODXONLIGI VA UNI O‘QITISH METODIKASI

Muharrir:	<i>E.Eshov</i>
Tex.muharrir:	<i>D.Abduraxmonova</i>
Musahhih:	<i>M.Shodiyeva</i>
Badiiy rahbar:	<i>M.Sattorov</i>

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.
Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 01.03.2023. Bichimi
60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garnitura 1/16.
Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog‘ozi.
Bosma tabog‘i 7,5 Adadi 20. Buyurtma № 50.1



“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar Namozgoh ko‘chasi 24 uy
Tel.: + 998 98 778 47 27



ISBN: 978-9943-9147-1-1



9 789943 914711